ISSN 2181-3035
28.02.2023. №6



ILM-FAN MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI

KITOB
ILM
TADQIQOT
TAHLIL
FAN
TA'LIM
YANGI O'ZBEKISTON
INNOVATSIYA
MAKTAB
BUYUK KELAJAK
UCHINCHI RENESSANS

doi
zenodo
CYBERLENINKA
OPEN ACCESS
Google Scholar

@TALQINVATADQIQOTLAR

KONFERENSIYA QATNASHCHILARI:

- TALABALAR
- MAGISTRANTLAR
- DOKTARANTLAR
- YOSH OLIMLAR
- YOSH O'QITUVCHILAR

Aniq fanlar
Tabiiy fanlar
Tibbiyot fanlari
Texnika fanlari
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
San'at va madaniyat fanlari
Jismoniy tarbiya va sport
Iqtisod fanlari
Filologiya fanlari
Pedagogika fanlari
Psixologiya fanlari

WWW.TALQINVATADQIQOTLAR.UZ
+99891-152-93-14

Ushbu ilmiy-onlayn konferensiya “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, talabalar, magistrantlar, doktarantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 1540-sonli Guvohnoma, ISSN 2181-3035, talqinvatadqiqotlar.uz veb-sayti) tomonidan har oyda bir marota tashkil etib boriladi.

“Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida”

mavzusidagi 6-sonli respublika ilmiy konferensiyasi

MATERIALLARI TO‘PLAMI

28-fevral, 2023-yil

1-QISM

“Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi tahrir kengashi:

Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA DIDAKTIK O'YINLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Xo‘jayeva Kamola Otabek qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o‘yinlarning ahamiyati, mashg‘ulot davomida didaktik o‘yinlarni o‘ziga xos tarzda tashkil etish haqida va bolalarda o‘yinlar orqali turli umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalash, o‘yinning bola hayotidagi o‘rni yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘yin, didaktik o‘yinlar, o‘yinning qoidasi, amaliy faoliyat, O‘yinning vazifasi "Nima qilyapti" o‘yini, tafakkur mustaqilligi, rag‘batlantirish.

O‘tgan qisqa vaqt mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek, “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» asosida misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta’lim tizimni yaratish ko‘zda tutildi.

Shu maqsadda maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma‘lumki maktabgacha ta'lim tashkiloti ostonasiga ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan mohir tarbiyachi bolalarning faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O'yin - bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Didaktik o’yin –maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlariga, aqliy imkohiyatlariga mos keladigan ta’lim berish metodidir. Tajribali tarbiyachi bu o’yindan nofaol bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo’rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik o’yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg’ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, didaktik o’yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usuldan foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Mashg‘ulot jarayonida didaktik o'yinlar bolalarnining xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bolalarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi:

1. O'yinning vazifasi. 2. O'yinning harakati. 3. O'yinning qoidasi. 4. O'yinning yakuni.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin bolalarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini tarbiyachii tomonidan tushuntiriladi. Bolalar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini mustahkamlash, ijodiy tafakkurini shakllantirish, tasavvurini kengaytirishga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlardan biri «Nima qilyapti?» deb nomlanadi. Bu o‘yin jihozi uy hayvonlarining harakatdagi suratlaridir. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga harakatdagi birorta uy hayvoni suratini ko‘rsatadi. Ular uy hayvonining nomi va harakatini topib aytishadi. Masalan, bu ot. U chopyapti. Bu it. U huryapti. Bu mushuk. U yotibdi va hk. So‘ngra bolalar shu surat mazmuni asosida ot qayoqdan kelayotgani, qayoqqa chopayotgani, nega chopayotgani, u chopyaptimi yoki yo‘rg‘alab ketyaptimi va hk.larni, it kimga, nima uchun hurayotgani, ya’ni tasvirdagi holatdan oldingi va keyingi hodisalarni tasavvur qilgan holda kichik hikoyachalar tuzishga yo‘naltirilishi talab qilinadi. Kichik hikoyachalarda suratdagi hayvonlarning bir-biri bilan suhbatini ham tashkil etish mumkin. Suhbatlarning mazmunini bolalarning o‘zlari belgilashadi. SHu tariqa ularda tafakkur mustaqilligi, ijodkorlik va yaratuvchanlik hissi shakllana boradi.

O‘yin qatnashchilarini rag‘batlantirish, maqtash, yaxshi qatnashganliklari uchun ularga yetakchi rolni berish,ba'zan esa o‘yinlarda foydalanilgan o‘yinchoqni o‘ynashga berish yoki mevalarni yeyishga berish mumkin, ammo bolalar bunday mukofotlarni olaman deb har qanday yo‘l bilan bu ishga intilishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Didaktik o‘yin jarayonida turli-tuman aqliy jarayonlar faollashadi va ixtiyoriy tus oladi. O‘yin g‘oyasini tushunish va unga amal qilish, o‘yin harakatlari va o‘yin qoidalarini o‘zlashtirish uchun tarbiyachining gaplarini yaxshilab tinglash va tushunib olish zarur. O‘yindagi vazifalar diqqatni bir joyga to‘plashni, narsalarni farq qilish, taqqoslash, umumlashtirish jarayonlarning faolligini talab qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, didaktik o‘yinlar orqali tarbiyachilar ham o‘z ustida ishlaydi hamda mashg‘ulotlarda bolalarning yaxshi qiziqarli bilim olishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-2707-sonli Qarori. T.: 2016 yil

2. A. M. Karimova. Nutq o’stirish mashg’ulotlari jarayonlarida didaktik o`yinlardan foydalanish. Samarqand: SamDU, 2020.

3. M.Marufova "Bolalarni nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi". Samarqand-2022 Ma'ruzalar matni

NUTQNING SHAKLLANTIRISH OBYEKTIDA AYOLLARNING O‘RNI

Akramova Shohista Islom qizi

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi 70230101− Lingvistika

(o‘zbek tili) mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu mavzu o‘rganilishi jihatdan mamlakatimizga kirib kelganiga ancha vaqt bo‘lgan bo‘lsa ham, chuqur o‘rganish sifatida asosiy ilmiy ishlar hozirda takomillashib va mukammallashtirib borilayotganligi, adabiy nutqda muhim o‘rni haqida manbalar asosida ma’lumotlar keltirilgan.Ushbu tavsiyalarda pedagoglar foydalanishlari uchun muhim hayotiy omillar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: Emotsiya, psixolingvistika, nutq idroki, an’ana.

Nutqning ta’sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay “yuqumli” tarzda yetkazish imkoniyati so‘zlashuvda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy til me’yorlari, nutqning sifatlari, nutq madaniyati masalalari o‘zbek, rus umuman, dunyo tilshunosligida ham amaliy, ham nazariy jihatdan yetmish-sakson yildan beri faol o‘rganib kelinadi. O‘zbek tilshunosligida Abdurahmonov, R.Qo‘ng’urov, E.Begmatov, M.Sodiqova, Yo. Tojiyev, B.O‘rinboyev, M.Asomiddinova, T.Qudratov, S.Karimov, T.Qurbonov, A.Boboyeva, B.Umirqulov, A.Ahmedov, Q.Samadov, S.Inomxo‘jayev va boshqa ko‘plab olimlar nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Ular yaratgan asarlarda o‘zbek nutqi madaniyatining nazariy masalalari bilan bir qatorda bevosita amaliyot bilan daxldor, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Har qanday narsaga baho berilganda, avvalo, uning aslligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o‘z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me’yorlardankelib chiqiladi.Soflik sifati nutqning ana shunday baholash mezonlaridan hisoblanadi. Boy nutq tinglovchining joniga tegmaydi, balki u bunday nutqni jon qulog’i bilan tinglaydi.

Nutqning boy yoki kambag’alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so‘zlar, ma’nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar,iboralar…) dan qay darajada foydalanganligi bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo‘lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi yoki aksincha, muayyan til unsurining takrori ko‘p bo‘lgan nutq kambag’al hisoblanadi va unig ta’siri ham shunga yarasha bo‘ladi .Ulug’ mutafakkir Alisher Navoiy aytganidek, “Bir deganni ikki demak hush emas, So‘z chu takror o‘ldi, dilkash emas”. Shuning uchun ham nutqning bu sifati rang – baranglik tarzida ham talqin etiladi. O‘zbek tili har jihatdan, lug’at xazinasi nuqtai nazaridan benihoya boy va rivojlangan tildir. Shuning uchun ham bu qadim tilda “oldidan o‘tganda bugungi kun adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o‘tadirg’an” (Fitrat) adabiyoti yaratilgan.

Agar nutq o‘zida barcha kommunikativ sifatlarini mujassam etsada, yetkazib beruvchida mahorat bo‘lmasa bunda ham so‘zlivchi maqsadiga erishishi samarasiz bo‘lib, so‘z qadrini yo‘qotadi. Insonlarda nutq chiroyli, so‘zlar betakror va ifodalayotgan paytda uning suhbati yuzida emotsiyalar bilan ifodalanishi tinglovchining qiziqishini yanada orttiradi .Zamonamizning so‘z ustalariga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularda bu tizim yani, nutq bilan birga yuz, tana emotsiyalarini ishtirokidan foydalanib faoliyat olib borishadi. Emotsiya o‘zi nima? Emotsiya-shaxsning voqelikka o‘z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog’liq bo‘lgan yoqimli va yoqimsiz kechinmalaridir. Emotsiyani ta’sirchanligini esa hissiyot keltirib chiqaradi. Hissiyot –bizning tuyg’ularimizning o‘ziga xos aks ettirish jarayonida bizda tug’iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiradi.

Hissiyot va tuyg’ular o‘rtasida hislar emotsional kechinmalarning ifodalanishlardan biridir. Biz bu maqolada bugun hissiyot va kechinmalarni ifodalovchi nutq imkoniyatlari to‘g’risida yondashmoqchimiz. Texnika rivojlanib borayotgan davrda yashar ekanmiz, barcha sohalarda yangiliklarga duch kelamiz. Bu rivojlanishda, nutqning yangi yo‘nalishlarini o‘rganuvchi bo‘limlarining o‘zbek tilida ham o‘rganilayotgani yangi fanlarga asos solmoqda. Ana shunday nutqning

zamonaviy yo‘nalishlaridan biri, psixolingvistika- psixologiya va lingvistika qo‘shilishidan shakllanadigan fan hisoblanadi.

Psixolingvistika nutqning hosil bo‘lishi, shuningdek nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o‘zaro bog’lanish holatida o‘rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo‘lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik eksperimentlar yo‘li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi bo‘yicha tilshunoslikka yaqin bo‘lgan psixolingvistika o‘z tekshirish usullari bo‘yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o‘zaro bog’lanishli eksperiment, “samantik differensial” kabi va boshqa eksperimental usullar qo‘llaniladi. Psixolingvistika termini XX asrning 60-yillarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. O‘zbekistonda ushbu soha boyicha bir qancha ishlar amalga bajarilgan bo‘lsada, haqiqiy ma’nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Psixolingvistika asoschisi nemis tilshunos olimi G.Shteyntal (1823-1899) hisoblanadi. Uning eng muhim asarlari sifatida “Tillarni tasnif etish va ularning taraqqiyot qonuniyatlarining maqsadi” deb nomlangan bo‘lib, 1850-yilda yozilgan. Undan keyin 1851-yilda “Tillarning kelib chiqishi”, 1855-yilda yozilgan “Grammatika, lingvistika va psixologiya”, 1860-yillarda yozilgan “Muhim tipdagi tillarning tuzilishi xarakteriskasi” asarlarini sanab o‘tish lozim. Shuni alohida ta’kidlash joizki, lingvistik biologizmning o‘ziga xos hususiyatlari Shleyxer ta’limotida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, logikgrammatizm Bekker ta’limotida jonlantiriladi.

Shteyntal ta’limiy qarashlariga Potebnya va Boduen de Kurtene ham Sossyur, Sepira va Sherbalar e’tibor qaratdi. Biroq psixolingvistika birgina xalq misolida rivoj topgan emas. Psixologik maktab XIX asrning birinchi yarmi XX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, til va nutq muammosiga oid amaliy ishlar amalga oshirila boshlandi. Zamonaviy tilshunoslik tobora kengayib, taraqqiy etib bormoqda. Buning asosini shubhasiz, tilshunoslik va boshqa fanlar o‘rtasidagi aloqadorlik ta’minlaydi. Psixolingvistika ham mana shunday jarayonning mahsulidir. Psixolingvistikaning

asosiy tadbiq obyekti nutqiy faoliyat subyekti bo‘lgan shaxs, til sohibi hisoblanadi. Rus tilshunosligi mazkur soha rivojiga katta hissa qo‘shgan.

A.A. Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasi haqida yozar ekan, “T ilning amal qilishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish” ushbu sohaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Psixolingvistika nutqda bevosita psixologiya bilan aloqador fan bo‘lgani, inson psixologiyasida ayol jinsi vakillarining obyekt sifatida muhim rol o‘ynashini kuzatamiz. Ayol farzandni dunyoga keltirish bilan birga juda ko‘p rivojlanish bosqichlari aynan ayol kishiga bog’liq hisoblanadi.

Ayollar psixolingvistikasini o‘rganar ekanmiz, bu hilqat ichida dunyocha mo‘jiza va sirlarga duch kelamiz. Bunga yaqqol misol tariqasida o‘zbek ayollarini psixolingvistikasiga e’tibor qaratmoqchimiz. Dunyo xalqlarini etnografiyasiga, urf – odatlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, sharq ayollari g’arb ayollariga nisbatan so‘zlarida ham, harakatlarida ham mehr- murruvatni his qilib turasiz. Bu bag’rikenglik azaldan merosdir. O‘zbek ayollari farzand tarbiyasidagi so‘zlariga e’tibor bersak, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lish g’oyalari keng shakllantiriladi. Ayniqsa, qizlarning so‘zlash odobidagi kamchiliklarni bartaraf etishga alohida e’tibor beriladi. Chunki, o‘zbek qizlarining boshqa xonadonga kelin bo‘lib borganda uning gap-so‘zlariga alohida e’tibor qaratilib, o‘z ota-onasinikida sizlab gapirmagan singlisi, ukasini turmushga chiqqan joyidagi turmush o‘rtogi barcha oila vakillarini har qanday holatda ham sizlab, muloyim bo‘lishi, shu oilada tezroq ildiz otishiga imkon yaratuvchi omillardan biridir. Ayollar erkaklarga nisbatan, hissiyotga beriluvchi bo‘lishini psixologiyani o‘rganganimizda amin bo‘lganmiz. Erkak aqliga suyanib so‘zlasa, ayol hissiyotlarini tiliga chiqaradi. Bu borada qizini uzatayotgan onaning nasihatlariga e’tibor beramiz, “Qizim qaynonang so‘zlayotganda gaplariga quloq sol, senga yoqmaydigan gaplar bo‘lsa ham aslo javob berishga shoshilma, chunki u ona, sening turmush o‘rtogingni voyaga yetkazgan, ularnikidagi turmush tarzi biznikidan tamomila farq qilishi aniq, chunki Alloh ikkita bir xil inson yaratmaganidek, aslo solishtirma, shunday bo‘lishi kerak edi, deya qabul qilsang juda yaxshi, biror savol berganlarida yoki xizmatga chorlaganlarida “labbay” deb javob bersang, senga ham chiroyli so‘zlar bilan siylashlariga ishonaman… ”.

Ayollardagi bunday holatlarni psixolingvistikaga qanday bog’lashimiz mumkin. Bugungi kunda ayollarni ta’lim olishiga juda katta e’tibor qaratilmoqda.Avvallari o‘qigan qiz o‘zini uddalaydi, oilasiga moddiy ta’minotiga ko‘maklashadi deb e’tibor berilgan bo‘lsa, inson ongini rivojlanishi bilimli, ko‘p ilm olishga harakat qilgan qizlar komil inson tarbiyasiga, barkamol avlodlar ulg’aytirishiga munosib hissa qo‘sha olishiga imkon deya qaralmoqda. Chunki, bilimli, ilmli ayollardan qalban, aqlan, hushkayfiyat energiyalarini his qilib yashashlari mumkinligini ko‘ramiz. Ayollar psixolingvistikasini o‘rganish uchun kuzatuvlar olib borgan paytlarimda shunga amin bo‘ldim, qalbiga yoqmasada, siz bilan majburlikdan muloqot qilish, soxta tabassum yoki chiroyli so‘zlar ham ularni hissiyotlarini to‘liq yashirib bera olmas ekan. Buni his qilgan qalbingiz chiroyli tabassum yoki chiroyli soxta so‘zlardan uzoqlashgisi kelar ekan. Aksincha, ona farzandiga noma’qul ish qilgan paytlarida dakki berib tanbeh berganida, onaga yana yaqinlashgingiz keladi. Bunga sabab nima deb o‘ylaysiz? Albatta,ona o‘z farzandini qalbida sevgini o‘chirib turib so‘zlamasligidandir. Psixolingvistikani o‘rganish bilan ayollardagi bir qancha holatlardagi ehtimoli ko‘p bo‘lgan so‘zlarni ifoda etadigan hissiyotlar ko‘rinishlari quyidagilarda ifoda topadi:

- Sizni gaplaringizni lablarini tez-tez tishlab eshitayotgan bo‘lsa, bu ishonchsizlik belgisi;

- Atrofni kuzatib eshitish, sizga e’tiborsizlik, kasb joylarda bo‘lsa kamchilik qidirish;

- Salom alikdan so‘ng o‘zini ishlari haqida so‘zlashlik, shoshilayotganligidan darak beradi ;

- Qoshlarini ko‘tarish jahl, nafrat;

- Qoshlarni o‘rtaga yig’ib eshitish, achinish, dardkashlik;

- Qo‘llaringizni ushlab gapirish, sizga judayam yaqinlik, do‘stlik;

- Qo‘llarini iyagiga qo‘yib, ko‘zlaringizga qarash muammolaringiz yechimida yordam berish:

Ushbu hissiyotlar so‘z bilan nutqda to‘liq ifodalanmasligi mumkin, lekin shunday ko‘rinishlardan anglashingiz mumkin. Buning uchun,albatta, kuzatuvchanligingiz va bilimingiz sizga to‘g’ri yo‘l ko‘rsata oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, psixolingvistikani o‘rganish nutqimizning chiroyli ifodalarini, hayotning yozilmagan qonuniyatlaridan uni sifatlarini ko‘plarini anglab, mag’zini chaqa olishimizda muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Filichyeva T.B. Logopediya

2. Nosirov Po‘lat. O‘zbek nutq madaniyati.Toshkent.2004

3. Muydinov K.A.,Vahobova K.U. Nutq madaniyati ma’ruzalar matni.Toshkent .2001

4. Ziyonet. uz

CRITICAL PERIOD HYPOTHESIS OF LANGUAGE DEVELOPMENT

Qutbiddinova Gulhumor

Master's student of NamSU

Abstract: this article defines that about critical period hypothesis of language development. Moreover, there are given much information based on Critical hypothesis of language improvement.

Key words: hypothesis, language acquisition, language learning, critical period.

What is the critical period hypothesis? This hypothesis is an important element of the study of language acquisition, or the ability of humans to learn languages. The critical period hypothesis states that there is a relatively short space of time in an individual's early life during which it is possible to learn a second language with native-like fluency. People learning a new language after this point, the hypothesis states, will always make certain predictable errors and will likely speak their second language with an accent. The exact critical period definition (the number of years during which people can successfully learn a new language) is up for debate. The original researchers suggested that nine years of age was the upper limit for native-like language learning, while newer research suggests that the critical period might extend to the age of seventeen or eighteen.

According to Penfield, Roberts, and later researchers, the critical period of language development exists for a specific reason. Young children are better at learning new languages because they have a lot of **neuroplasticity**, which means that the brain is more adaptable and more open to learning new information. After the critical period, older language learners tend to struggle in particular with grammatical systems, never quite absorbing all of nuance of a new language's grammar.

Besides neuroplasticity, there are two major factors in the critical period. The first is opening: a child must have the right environment and stimuli to begin learning a first or second language. This means that they need consistent exposure to the target

language and a supportive learning structure. The second major factor is closure, which is the time when the critical period ends. There are several theories that seek to explain why and exactly when the critical period ends. Some researchers have suggested that the myelination of neurons impacts the brain's ability to learn, effectively locking in the elements of language that have already been learned.

Wilder Penfield and fellow researcher Lamar Roberts published research in 1959 that first proposed the critical period hypothesis. Their research suggested that in order to learn a second language fluently, children must begin learning it before the age of nine. Penfield and Roberts also discussed the critical period in relation to learning a first language. They argued that a child who did not learn a first language by age nine would not only fail to learn a new language with native-like fluency, but would in fact never be able to acquire more than a basic linguistic understanding, regardless of future study.

Critical Factors of Language Development

According to Penfield, Roberts, and later researchers, the critical period of language development exists for a specific reason. Young children are better at learning new languages because they have a lot of **neuroplasticity**, which means that the brain is more adaptable and more open to learning new information. After the critical period, older language learners tend to struggle in particular with grammatical systems, never quite absorbing all of the nuance of a new language's grammar.

Besides neuroplasticity, there are two major factors in the critical period. The first is opening: a child must have the right environment and stimuli to begin learning a first or second language. This means that they need consistent exposure to the target language and a supportive learning structure. The second major factor is closure, which is the time when the critical period ends. There are several theories that seek to explain why and exactly when the critical period ends. Some researchers have suggested that the myelination of neurons impacts the brain's ability to learn, effectively locking in the elements of language that have already been learned.

Criticisms of the Critical Period for Language Acquisition

The critical period for language acquisition is a significant theory that has been supported by further research. However, some researchers have criticized some or all of the theory based on their own studies. David Singleton, a researcher from Trinity College, Dublin, studied bilingual adults who learned a second language after the age of nine and found that some of them had managed to learn the language without encountering the problems Penfield and Roberts initially posed.

All in all, other studies have noted that adults actually do learn new languages with similar fluency to children, particularly if they are able to do so in a sufficiently immersive environment. They may even be better language students in some ways because of their metacognition abilities and understanding of linguistic structures. Ultimately, language learning is a complex topic influenced by many factors, including environment, social factors, and personal motivation. The critical period hypothesis is one important part of this field of study.

References:

1. Abulkhanova-Slavskaya K.A. Activity and personality psychology. / K.A. Abulkhanova-Slavskaya. – M.: Nauka, 1980. – 335 p.

2. Bezmozdin, L.N. Artistic design activity of a person. / L.N. Bezmozdin. - Tashkent, 1990. - 311s.

3. Bruno Munari. Art as a craft. / Per. with it. M. Wiesel. - M.: Publisher: D-Aronov, 2014. - 228 p.

4. Glazychev V.L. Design as it is. / V.L. Glazychev. - M.: Europe, 2006. - 320s.

5. Kagan M.S. A new word in design theory. / M.S. Kagan // Technical aesthetics. - M., 1991. - No. 4. - P. 3-5.

6. Koskov M.A. Subject creativity. / M.A. Koskov. - St. Petersburg: St. Petersburg State University, 2004. - 344 p.

7. Brief shorthand of the seminar in Bruges. M., VNIITE, 1964. - 14 p.

ERGASH GAPLI QO’SHMA GAPLARNI TAHLIL QILISH USULLARI

Jo’rayeva Dilfuza Raxmatullayevna
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani
39-maktab o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limda o’quvchi yoshlarga ergash gapli qo’shma gaplarni erkin tahlil qilib, gaplar tarkibidagi bosh va ergash gapni aniqlab, tushuna olish ko’nikmasini shakllantirish usullari izohlangan.

Kalit so’zlar: o’qituvchi, o’quvchi, ona tili, sintaksis, qo’shma gaplar,ergashtiruvchi bog’lovchilar.

O’qituvchi o’sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim –tarbiya beruvchidir. Ta’lim –tarbiya berish, odatdagi tarzda darsni o’tish bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Agarda o’qituvchi o’z kasbini yetuk mutaxassisi, kasb fidoyisi bo’lsa, hech qachon dars samarasiz bo’lmaydi. Bugungi kun davr talabi ham har bir pedagogdan izlanuvchanlikni, o’z fanining bilimdoni bo’lishni talab etmoqda. Kelajak yoshlarining yetuk, barkamol avlod bo’lib ulg’ayishi, biz pedagoglar zimmasida. O’qituvchi zimmasidagi mas’uliyatni anglab yetsa, ta’lim taraqqiy etadi. Ta’lim taraqqiyotini esa,ona tili fanisiz tasavvur etib bo’lmaydi.

Ona tili- millat ko’zgusi! Har bir millatning jamiyatda mavjudligini ko’rsatuvchi vosita ham bu tildir. Yoshlarimizning ona tiliga mehr-muhabbatli,hurmat-e’tiborli qilib tarbiyalash, o’z tilini mukammal darajada bilishi, bu kabi ko’nikmalarni shakllantirish, biz ona tili fani o’qituvchilardan jonkuyarlikni talab etadi.

Avvalo, har bir fanni o’rganishdagi muammolarni hal qilib olinmasa, o’quvchilar o’rtasida fanga bo’lgan qiziqishlar so’nib boraveradi. Qaysi o’quvchi bilan suhbatda bo’lmaylik, ona tili fani juda murakkab,degan javobni olamiz. Nega, ular bunday fikrlaydi? Sababi oddiy. O’qituvchilarning darslarda mavzularni tushuntirish jarayonida sodda usullardan foydalanmasliklari oqibatida,o’quvchi mavzu haqida kerakli bilimni o’zlashtira olmaydi. Men pedagoglarni ayblamoqchi

emasman, faqat bizning aybimiz, o’z dunyoqarashimizdan kelib chiqib, mavzularni darslik bilan cheklangan holda tushuntirib beramiz. O’quvchilarning yoshi, ularning bilim saviyasi, qabul qilish darajasiga e’tibor bermaymiz. Biz barchamiz 4 yil universitetda ta’lim olib, o’z faninimizning mutaxassisi bo’lganmiz. Yoshlarimiz bizdan ko’ra, zukko, bilimli, mustaqil fikriga ega, hozirjavob bo’lishi mumkin, ammo bizning fanimizni mutaxassis sifatida bilmaydi-ku!

Ona tili fanini o’qitish jarayonida, Sintaksis bo’limi mavjud.Bu bo’lim asosida, o’quvchilar ongida so’z birikmalari, gap va uning tuzilishi va mazmuniy turlari haqida bilim va ko’nikma hosil qilinadi. Mazkur bo’limni o’qitishda,asosan, o’qituvchilar uchun “Ergash gapli qo’shma gaplar” mavzusi murakkab mavzu. Pedagogik faoliyatim davomida, o’quvchilarning darslikdagi mashqlarni tahlil qilishda, hamda abituriyentlarning testlarni ishlash jarayonida, ergash gapli qo’shma gapni turini aniqlashda, bosh va ergash gapni o’rnini topishda qiyinchiliklarga dush kelishmoqda. Ergash gapli qo’shma gaplarni tahlil qilish, o’quvchilar ongida yetarli darajada bilim va ko’nikma hosil qilish uchun quyidagi holatda mavzuni tushuntirilsa, albatta, samarali bo’ladi.

Birinchi o’rinda, o’quvchilarga gaplarning tuzilishiga ko’ra turini aniqlashni o’rgatish lozim. Bunda, gapning kesimi asosiy vazifani bajarishini tushuntiramiz. Kesimsiz gap shakllanmasligini aytamiz.Gaplardan kesimni topib olamiz. Kesim topish uchun, gapdagi qaysi so’z fe’llarning zamon, mayl, shaxs-son qo’shimchasini olganini aniqlaymiz. Bu shakl kesim bo’lib kelgan har qanday fe’lga va boshqa so’z turkumlarida bo’ladi. Gapdagi kesimni sonini topib olamiz. Agar shu holatda shakllangan kesimlar soni miqdori ikki va undan ortiq bo’lsa, qo’shma gap bo’lishini tushuntiramiz.Masalan: Eshik sekin ochildi (sodda gap),bir kesimlik shakliga ega. Eshik sekin ochildi va Qalandarovning yuzi ko’rindi(qo’shma gap),chunki kesim soni ikkita.

Ikkinchi o’rinda, qo’shma gap turlarni aniqlash, juda oson. Bu jarayonda qo’shma gapni bog’lovchi vositalarga e’tibor qaratamiz. Ayrim darsliklarda qo’shma gap bog’lovchi vositasiga ko’ra:

1.Bog’lovchilar: a) teng bog’lovchilar ; b) ergashtiruvchi bog’lovchilar 2. Bog’lovchi vazifasidagi vositalar ; 3. Ohang kabi turlarga ajratiladi.

Uchinchi o’rinda, qaysi bog’lovchilar bog’langan qo’shma gapni, qaysi vositalar ergashgan qo’shma gapni hosil qilishini o’quvchiga tushuntiriladi. Masalan: teng, zidlov, ayiruv bog’lovchilari, bo’lsa,esa so’zlari, -u,-yu,-da yuklamalari bog’langan qo’shma gapni bog’lash uchun xizmat qiladi.Ergashtiruvchi bog’lovchilar, deb so’zi, ko’makchili qurilmalar, nisbiy so’zlar, shart mayli qo’shimchasi kabilar ergash gapli qo’shma gapni bog’lash uchun foydalaniladi.

To’rtinchi o’rinda, bog’langan qo’shma gap bilan ergash gapli qo’shma gapning farqi, asosan, ikki sodda gapning qanday munosabatda birikayotgani aniqlanadi. Masalan: bog’langan qo’shma gapni teng, bir- biriga zidlab, bir biridan ayirib, inkor etib, qiyoslab bog’laymiz. Go’yoki, ikki arqonni teng qo’yib bog’lagan misoli… Ergash gapli qo’shma gapda esa, gaplar bir –biri bilan hokim va tobelik munosabatida bo’ladi. Gaplarning biri,ikkinchisini doimo izohlab keladi. Solishtiramiz: Vatanimizni jon- dilimizdan sevamiz va ko’z- qorachig’imizdek asraymiz. (bog’langan qo’shma gap). Vatanimizni jon- dilimizdan sevamiz, shuning uchun ko’z –qorachig’imizdek asraymiz.(ergash gapli qo’shma gap). (Ko’z – qorachig’imizdek asraymiz -bosh gap, nima uchun asraysiz? Vatanimizni jon-dilimizdan sevganimiz uchun –ergash gap)

Beshinchi o’rinda, ergash gapning tarkibidagi bosh va ergash gapning asosiy vazifasini tushuntiramiz.(Aniqlanayotgan, izohlanayotgan gap- bosh gap, aniqlaydigan,izohlaydigan,bosh gapni to’ldirib keladigan gap-ergash gap).

Oltinchi o’rinda, o’quvchi uchun murakkab bo’lgan jarayon, bosh gap va ergash gapning o’rnini aniqlay olmasligi. Bunda biz qaysi vositalar bosh gapning tarkibida, qaysi vositalar ergash gapning tarkibida kelishini o’rgatamiz. Shundan so’ng, o’quvchilar hech qiynalmay, bosh va ergash gapning o’rnini topa olishadi. –ki yuklamasi va ko’makchili qurilmalar doimo bosh gap tarkibida keladi. Ergashtiruvchi bog’lovchilar, deb so’zi, nisbiy so’zlarning so’roq qismi hamisha ergash gap tarkibida keladi. Bosh gap va ergash gapning tarkibidagi vositaga qarab, gaplarning

o’rnini hech qiynalmay topa olish mumkin. Masalan: Siz shuni unutmangki(bosh gap), kurashchilar yolg’iz emas(ergash gap).

Bosh gap	Ergash gap
Shunisi……..ki,	Kimda,nimada,qanday?
…… shuki,	deb
…….sinki……	Go’yo,go’yoki,xuddi
……shunday…….ki	Chunki,negaki
Ko’makchili qurilmalar	toki
……shuning uchun…ki	Agar,agarda, basharti, mabodo

Ergash gapli qo’shma gaplarni turini aniqlayotganda ham maxsus shakllarga e’tibor qaratilsa, o’quvchi bu mavzu haqida bilim va ko’nikmani hosil qila oladi.

Darslarda turli interfaol “Zanjir”, “Issiq kartoshka”,Charxpalak” metodlaridan foydalanilsa, mavzuni o’quvchi ongida singdirish o’qituvchiga qulaylik yaratadi. Bunda sinf o’quvchilari guruhlarga bo’linadi. Birinchi guruh biror gap misol keltiradi, ikkinchi guruh bu gapni izohlab, davom ettirib, ergash gapli qo’shma gapga aylantiradi, uchinchi guruh esa bu gap tarkibidagi bosh va ergash gap, bog’lovchi vositani va turini aytadi. Bugungi kunda AKT va turli interfaol metodlardan foydalanib,darslar tashkil etilmasa, o’quvchidan kutilgan natija olish mushkul. Bugun texnika asri.

O’qituvchi go’yoki bog’bon, ko’chatni qanday o’tqazib, parvarishlasa, hosil ham mehnatga loyiq bo’ladi. Biz ustozlar, yoshlar qalbida o’z ona tiliga mehr-muhabbatli, qiziquvchan, qiyinchilikka qaramasdan tilimizni o’rganishga intiluvchi kadr bo’lib yetishishiga birgalikda harakat qilaylik!!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mengliyev .B. O’zbek tilidan universal qo’llanma .Toshkent.”Akademnashr” -2015

2. A.Nurmonov, A Sobirov,N.Mahmudov,N.Qosimova,Sh.Yusupova. Hozirgi o’zbek adabiy tili.(Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I,II,III bosqich talabalari uchun darslik) .Toshkent.”Ilm ziyo”- 2013

TRANSPORT VOSITALARI VA ATROF MUHIT

Mamajonov Mirkamol
Farg'ona politexnika instituti
Murodov Mirshohid
Farg'ona politexnika instituti
mmirkamol107@gmail.com

Annotatsiya: Bu mavzu yuzasidan qisqacha hulosam shuki transport vositalaridan kundalik hamda boshqa ilojisi bor bo’lgan kasiplarda iloji bo’lsa velosepedlardan foydalanishimiz lozim. Aqalli shu yo’l bilan atrof muhidni ifloslanishini qisman bo’lsa ham oidini olishga hissamizni qo’shgan bo’lamiz.

Kalit so’zlar: transport, atrof muhit, transport vositalarini atmosferaga tasiri, atrof muhitni ifloslanishini oldini olish, ekologik toza transport vositalar.

Transport vositalari va atrof muhit - hozirgi kunda turli hil transport vositalari mavjud bo'lib turli markalari ham mavjud va ular soni kundan kunga ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda atrof muhitga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmayapti. Transportlardan chiqayotgan gazlar atrof muhitga jiddiy zarar keltirmoqda.

Xozirgi davrda inson salomatligi uchun eng xavfli manbalardan yana biri avtotransport vositalaridan chiqadigan zaxarli gazlardir. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, AQSH va Yaponiyada atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalar ichida avtotransport vositalari oldingi o'rinda turadi. Xorijiy mamlakatlar atmosfera havosini ifloslantiruvchi gazlar ichida is gazi, uglevodorodlar, shuningdek, azot oksidlari barcha tajovuzkor gazlarning 60-70 % ini tashkil qilsa, bizda 14 % ini tashkil qiladi. Umuman, ichki yonuv vositalari atmosfera xavosini ifloslantirish borasida salmoqli o'rinni egallaydi. MDXda avtotransport vositalari 1988-yilning o'zida 35,8 mln.tonna zararli moddalarni havoga chiqarib tashlagan. Moskva, Sankt-Peterburg, Toshkent, Erevan va boshqa shaharlar havosida is gazi ruxsat etilgan mikdoridan 3-10 barobar ziyod ekanligi qayd etilgan.

Qizig'i shundaki, sulfat angidridi atmosfera xavosida turli reaksiyalarga kirishib, atmosfera xavosi namligida erib, qataliz hamda fotokimyoviy jarayonlar vositasida oqsidlanadi va pirovardida, sulfat kislotasini hosil qiladi. Bunday kimyoviy birikmalar 750-1500 metr balandlikka ko'tarilib, hatto 3000-4000 metr masofaga yetadi. Shuning uchun sanoat korxonalari joylashgan markazlar atrofidagi turar joylarda sulfat kislotasi yomg'ir bo'lib yog'adi va tabiatga shu jumladan, tirik organizmlarga katta zarar etkazadi.

Agar 1950-yili atmosferaga 70 mln.tonna, 1975-yili 120 mln.tonna, 1980- yili 181 mln.tonna zaxarli moddalar chiqarib tashlangan bo'lsa, 2000-yilda 280 mln.tonna tajavvuzkor moddalar atmosferani bulg'ashi taxmin qilinmoqda. Atmosfera havosining kundan-kunga, yildan-yilga bunchalik ifloslanib borishiga avtotransportning "aybi" borligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shuni ham qayd qilish kerakki, avtomabillar purkagan gazlar tarkibidagi is gazlari (SO), azot kush oksidi(NO2), uglevodorodlar bilan bir qatorda juda zaxarli modda qurg'oshin ham mavjud.Avtotransport vositalari tomonidan atmosfera havosining ifloslanishi dudbo'ronlardan chiqadigan gazlarning tarkibi va mikdoriga, transport xarakati tezligiga, mashinalar soniga, ko'chalarning katta-kichikligiga ularning loyixasiga, relefiga, turar joylarning topografik xolatiga, joylarning xolatiga, iqlim sharoitiga va meteorologik omillariga bog'lik bo'ladi. Avtotransportlarning atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy moddalari is gazi, uglevodorodlar, azot oksidlari, aldegidlar, ketonlar, akrolein, qo'rg'oshin va boshqalar aksariyat xollarda gigienik nuktai nazardan juda zararli hisoblanib, belgilangan me'yordan ortgan xolda bo'ladiAvtomobil transporti -yuk va yo‘lovchilarni relssiz yo‘llarda tashishga mo‘ljallangan transport turi. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida keng foydalaniladi. Bajaradigan ishiga qarab umumiy foydalanilmaydigan (ayrim korxonalar, tashkilotlar uchun xizmat qiladigan) Avtomobil transporti hamda qaysi tashkilotga mansubligidan qat’i nazar yo‘lovchi va yuk tashuvchi umumiy foyda-lanishdagi Avtomobil transporti ga bo‘linadi. Shuningdek shaxsiy foydalanishdagi yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ham mavjud (qarang Avtomobil). Avtomobillarning har qanday yo‘llarda yura olishi, yo‘lni tez o‘zgartira olishi, yuk

ortish va tushi-rish joylariga bevosita bora olishi, yuk hamda yo‘lovchilarni bir transport turidan ikkinchisiga o‘tkazmay tashishga imkon beradi. Natijada yo‘lovchi va yuk tashish tezlashadi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo‘jaligi, markazlashgan tartibda xalqaro, shaharlararo va mahalliy yo‘llarda ta-shishda qo‘llaniladi. Avtomobil transporti aviatsiya, dengiz va daryo transporti, shuningdek temir yo‘l transporti bilan uzviy bog‘langan. Avtomobil transporti uncha uzoq bo‘lmagan masofalar uchun foydalanishda eng qulay transport turi hisoblanadi. Shu bilan birga boshqa transport turlarida tashish noqulay bo‘lgan yuklar, xususan, tez buziladigan mahsulotlarni uzoq, masofalarga tez va qulay yetkazib berishda ham ko‘p foydala-niladi.Avtomobil transporti 19-asr oxirida paydo bo‘ldi, 20-asrning 20-yillaridan qisqa masofalarga yuk va yo‘lovchi tashishda temir yo‘l va daryo trans-porti bilan raqobat qila boshladi. Avto-mobil sanoatining rivojiga qarab, tez sur’atlarda taraqqiy etdi. Mamlakatlar avtomobil parkining asosiy qismi yi-rik ixtisoslashtirilgan yuk va yo‘lovchi tashish korxonalari va birlashmalari tarkibiga kiradi. Bu esa mehnat unum-dorligini yuqori sur’atlarda o‘stirish va Avtomobil transporti vositalaridan samarali foydala-nishni ta’minlaydi.Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mam-lakatlarda tashilgan yuklarning umumiy hajmida Avtomobil transporti hissasi katta salmoqqa ega. Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Yaponiya, Kanada, Rossiyada Avtomobil transporti taraqiy etgan. AQShda yuk avtomobil parki turli sa-noat va savdo kompaniyalari, korxonalar va ayrim shaxlarga tegishli bo‘lib, jami avtotransport vositalarining 10% umu-miy foydalanishdagi yuk tashish kompa-niyalariga to‘g‘ri keladi.O‘zbekistonda A.T. 20-asr boshlarida paydo bo‘ldi, unga qadar ot-ulov asosiy transport vositasi bo‘lgan. Dastlabki avtobus katnovi 1906 yilda Farg‘ona – Marg‘ilon marshrutida yo‘lga qo‘yilgan. Toshkentda birinchi avtobus 1909 yildekabrda qatnay boshladi, 1910 yil chet ellarda ishlab chiqarilgan 8 ta kichik va 1 ta 40 o‘rinli avtobus ishladi.1921 yilda Avtomobil transporti ixtiyorida 40 yengil va 15 yuk avtomobili hamda Toshkent avto-mobil ta’mirlash ustaxonasi bo‘lgan. 30-yillarda Avtomobil transporti rivojlanishi bilan qattiq qoplamali yo‘llar qurilishi boshlandi, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish korxonalari, kadrlar tayyorlaydigan o‘quv yurtlari ochildi. 1939 yil 25 iyulda O‘zbekiston Avtomobil transporti xalq

komissarligi tashkil etildi. 50-yillarda avtotransportda yuk va yo‘lovchilar tashish o‘sdi. 60–80-yillarda respubli-kada avtotransport vositalarining tur tarkibi ko‘paydi. 1991 yilga qadar O‘zbekiston xalq xo‘jaligida asosan Rossiya ("ZIL", "Moskvich" – Moskva shahri; "GAZ" yuk va "Volga" yengil avtomo-billari – Nijniy Novgorod shahri; "Ka-mAZ" – Naberejniye Chelni shahri; "Jigu-li" – Tolyatti shahri; "UAZ" kabi mashina rusumlari ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda esa mashinalarni soni kundan kunga oshib bormoqda va bu o'z navbatida atrof muhitni yomonlashishiga olib keladi. Biz atrof muhitni ifloslanishini oldini olish maqsadida ko'proq piyoda yurishimiz va uzog'imizni yaqin qilish maqsadida velosipedlarda foydalansag atrof muhitni iflaslanishini qandaydir ma’noda oldini olishga o'z xissamizni qo'shgan hisoblanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Jabbarov "Ximiya va atrof-muxit", Toshkent "O'qituvchi", 1992 yil 13-27 betlar.

2. M.Nabiev "Inson va biosfera", Toshkent "O'qituvchi", 1995 y. 2435 bet.

3. Yu.SHodimetov "Ijtimoiy ekologiyaga kirish", Toshkent "O'qituvchi", 1994 yil, 169- 171 betlar.

ASSESSMENT OF THE WEARING PROCESS IN THE DETAILS OF THE GAS DISTRIBUTION MECHANISM

Qurbonov B.B

Doctoral student of Tashkent State Technical University


Abstract: In this article, a final conclusion is made by studying the factors that affect the elasticity of the parts that are subject to bending in the negative change of the optimal performance of the gas distribution mechanism. Factors influencing bending resistance are evaluated based on the state of coupling of pairs subjected to bending, i.e. mechanical, chemical and geometrical parameters.

Key words: Camshaft, cam, wear resistance, valve, bushing, pressure angle, cam profile, contact area, roughness, wear rate.

As a result of the wearing of the parts of the gas distribution mechanism, the wearing on their surface, wearing on the inner surface of the guide bushing, wearing of the distribution shaft chain, wearing of the gear pulley wearing of the bearings, wearing of the oil deflector covers, wearing of the valves and guide bushings and the gear wheel driving the distribution shaft as a result of the contact of the cam - follower pair.

An external sign of these parts wearing is knocking, loss of compression in the cylinders, a decrease in engine power, difficulty in starting it, and an increase in fuel consumption. Analyzing defects in parts from the point of view of ductility is a very complex process, and to do this, the factors affecting ductility are studied separately, analyzing the process in pairs of each bend.

The main reason for the wearing of the parts of the gas distribution mechanism is the roughness on the surface of the parts, the abrasive environment, the load, the component of the oil, and the temperature exceeding the standard value in a short period of time.



1-Figure.Schematic diagram of joints of the gas distribution mechanism. 1 – seat – valve face; 2 – valve stem – guide bush; 3 - cylinder bed surface - valve side; 4 - bushing - axle; 5 - adjustment screw - bar; 6 - hammer - block; 7 - barbell - hammer; 8 - thumb - pusher; 9 - spring

When analyzing the deflection of the camshaft wearing in contact with the pusher, we study the bearing surface symmetrically, three on each side, for a total of six parts. The greatest amount of wearing occurs in the upper part of the shoulder profile. We can see the graphic representation of this wearing in the section of the profile areas, in figure 2. Such uneven wearing is caused by uneven loading on the wearing surface, and this has a negative effect on the wear resistance.[1, p. 84].




Figure 2. Graph of dependence of wearing speed on pressure angle (tension) in the profile of the cam.


In addition, the bending that occurs as a result of sliding (being in contact) on the inner surface of the guide bush on the stem of the cams, which is one of the main

details of the gas distribution mechanism, also has negative consequences. If the intake cam is periodically cooled by the air-fuel mixture entering the cylinder when the intake cam is opened, the exhaust valve will work under more severe conditions. Opening during the exhaust stroke, it is further heated by the hot exhaust gases, and the temperature of its plate reaches 850-900 °C. This accelerates the wearing process [2, p.4].

A special hard material, stellite, is often placed on top of the chamfer to reduce warping at high operating temperatures. Sodium valve cooling is less commonly used: the sodium moving through the valve's internal cavity when it opens and closes transfers heat from the hot plate to the cooler stem.

Thus, a good connection of the plate with the seat provides two advantages at the same time: it reduces the temperature of the valve to an acceptable level, which is necessary for the operation of the valve, and ensures hermeticity, which does not adversely affect the overall engine power. Otherwise, the expansion of the thermal gaps in the valve (Fig. 3) will increase the load, and as a result, the release of gases will cause the valve to become unusable.

3-Figure. A view of the gap (A) between the guide bushing and the steering column.



Irregular and high acceleration of the valve stem can cause an increase in the rate of bending of the valve stem, breakage of the mechanism parts or shocks that adversely affect their elasticity. Especially important is the speed of the valve during

the descent to the seat - the smaller it is, the less the deflection in the chamfer and the valve seat [3,p.27].

References:

1. Mirzayev N.N., Qurbonov B.B., Hamroyev R.K. Estimation of the rotation speed of gears in oil depending on the load // Technical science and innovation. – Tashkent, 2020. – № 4 (06). – P. 198–204.

2. Kh Ishmuratov, Qurbonov.B.B. R K Hamroev, N N Mirzaev *Method for modeling the process of wear of gear teeth//* Journal of Physics: Conference Series- Tashkent, 06.05.2022 й 2176 (2022) 012096

Nutuq o’stirish bolalarning bilish qobiliyati rejali, aniq maqsadni ko’zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarini va tegishli lug’atni o’zlashtirish, nutqiy malaka va ko’nikma, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o’stirishning asosiy shakli – mashg’ulotdir.

Bolalar har doim ham sog’lom bo’lib tug’ulmaydi. Ayrim bolalar kuchli, harakatchan, muskullari to’g’ri rivojlangan bo’ladi. Ammo ayrim bolalar turli sabablarga ko’ra nerv tolalarining shikastlanishi bilan dunyoga keladi va bu bolalarda nutq muskullarining rivojlanishi ortda qolishi holatlari kuzatiladi. Mayda qo’l motorikalari yirik motorikani rivojlanishini kechiktirishi ham mumkin. Bu bolalarning fikrlashi boshqa bolalarga nisbatan biroz kechikadi, nutq va ba’zi muskullar tormozlanishi ham mumkin.

Tormozlanish ikki xil ko’rinishda bo’ladi: tashqi va ichki.

Tashqi tormozlanishda genetic holat va markaziy asab tizimiga hech qanday holat va markaziy asab tizimiga hech qanday holat ta’siri bo’lmasada tormozlanadi.

Ichki yoki shartli tormozlanish individual xarakterga ega bo’lib, asab tizimini kuchli bosim o’tkazib ichki tormozlanishni shakllantirib boradi yani “qiziqish o’chib qoladi”. Asab tolalarining zo’riqishi yuzaga keladi.

Ushbu tashqi va ichki tormozlanish natijasida bolaning psixik jarayonlari me’yoridan past, darajada rivojlanadi. Mayda qo’l motorikasi meyoridan past bo’lsa nutq ham kech, ham nuqsonli rivojlanadi.

Demak bolaning nutq, tana muskullarini rivojlantirishda psixolog, logoped, pedagog va ota onalar hamkorlikda ish olib borishi zarur.

MTTda qo’l motorikasini rivojlantirish va mustahkamlash uchun quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin.

1. Masalan, koptok bilan o’ynash, grender kubigi bilan ishlash, bolaningtafakkurini rivojlantirish mashqlar, yuzuvga tayyorlov va disfagiyaning oldini olish.
2. Logopedik massaj, o’z-o’zini massaj qilish.
3. Nafas mashqi va unli tovushlar bilan o’yinlar.
4. Artikulyatsion mashqlar.

Qo’l motorikalari yaxshi rivojlansa, nutq, ongli fikrlash, harakat kordinasiyalari ham rivojlana boshlaydi. Quyidagi mayda qo’l motorikasi hamda nutqqa javobgar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Hasanboeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim redagogikasi. T.: ‘Ilm ziyo’. 2006.

2. Amirova. G.A., Sulaymonov A.R., Djuraeva B .R. Maktabgacha ta’lim muassasalarda arrlikaцiya mashg’ulotlari. T., 2014. 608

CHO'LLANISHNI OLDINI OLISH OROL DENGIZI MISOLIDA

Abdulloyeva Go`zal Xidirboy qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tobora cho`llashib borayotgan Orol dengizi hududlariga tarixiy nazar,cho`llashishga zamin bo`luvchi geografik sabablar hamda unga qarshi kurashish choralari to`grisida ayrim malumotlar keltirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Cho`llashish,Orol gengizi, Xorazmiy, Arang, BMT, Trast fondi, Amu 1, Amu 2, saksovulzorlar.

Yer quruqligining 40 mln km.kv maydoni qurg'oqchilik mintaqasi bo`lib, dunyo aholisining 15% dan ortig'i ushbu hududga mos ravishda qishloq xo'jaligining tezkor rivojlanishi, sug'oriladigan yerlar va yaylovlardan noto`g`ri foydalanish oqibatida, o'rmonlarning betartib kesilishi natijasida cho'llanish darajasi yil sayin ortmoqda. Inson ta'siri natijasi vujudga kelgan cho'llar 9,1 mln. km. kv.ga yetdi. Dunto miqyosida ekologik muammolarga baho berishning mezoni havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, yaylovlarning ishdan chiqishi, o'rmonlarda daraxtlarning kesilishihamda ularning belgilangan miqdordan oshib ketishi va boshqalar hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy ekologik muammolardan eng muhimi Orol va Orol bo'yi ekologik muammosidir.

Orolning yoshi haqida tarixiy manbalarda aniq ma’lumot bo‘lmasa-da, juda qadim zamonlarda dengizning sharqiy bo‘ylarida massaget va saklar, janubiy tomonida esa ugar qabilalari yashab, chorvachilik, baliqchilik, dehqonchilik bilan kun kechirganliklari uning tarixi ming yillarga borib taqalishidan dalolat beradi.

Miloddan oldin yashab o‘tgan antik davr tarixchilari Strabon va Varron, xitoylik sayyoh va olim Jon Syan Orol haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirishgan. Abu Rayhon Beruniy "Geodeziya" asarida Orol dengizining uzoq tarixiga oid batafsil ilmiy ma’lumotlar keltirgan. Al-Xorazmiy Orol chekka nuqtalari koordinatalarini quyidagicha bergan: uzunligi $86^0 30^0$-90^0, kengligi $30^0 10^0$-42^0. Bu ko‘rsatkichlar IX

asrda Orol uchun birinchi kartografik ma’lumot edi. Orolning kattaligi haqida qadimda yashab o‘tgan olimlarda turlicha fikrlar mavjud. Agar Al-Istaxriy dengizning aylanasi 103 farsax (bir farsax 6-7 km) deb yozgan bo‘lsa, Muhammad ibn Najib Bakron 100 farsax, Ibn Rusta esa 80 farsax deb hisoblagan.

Dengiz uning atroflarida yashovchi odamlarga bosqinchilar hujumidan saqlanish uchun mustahkam qal’a bo‘lgan. Rivoyat qilishlaricha, Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) Xorazmga bostirib kirishi oldidan u yerga o‘z ayg‘oqchilarini yuborgan. Ayg‘oqchilar qaytib kelishgach, buyuk fotihga shunday deyishgan: "Xorazmni fath qilib bo‘lmaydi, sababi uni himoya qiladigan, balo-qazolardan saqlaydigan ulkan dengizi bor ekan". Bu gapni eshitgan Iskandar Xorazmga hujum qilish niyatidan qaytgan.

Yana bir rivoyatga ko‘ra, Chingizxonning o‘g‘illari Chig‘atoy va Jo‘ji Urganchni egallagach, Orol bo‘yida yozgi qarorgoh qurishni rejalashtirishadi. Ammo dengiz atrofida yashovchi qabilalar mo‘g‘ullarga tez-tez hujum qilib, ularni bezovta qilishgan. Shu vajdan ular yozgi qarorgoh qurishdan voz kechgan ekanlar.

Orol shuncha yillardan buyon barhayot bo‘lib, atrofida yashovchi xalqlarga rizqu nasiba berib kelganligi ikki azim daryo - Amudaryo va Sirdaryo bilan chambarchas bog‘liq. Chunki bu daryolar dengiz uchun asosiy suv manbai bo‘lgan. Orol eng ko‘p suvni Amudaryodan olgan. "Avesto"da daryo "Arang" deb tilga olingan.

"Osiyoda chor atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan vodiy bor, - deb yozadi tarixchilar otasi Gerodot... Atrofidan ka\tta daryo oqib o‘tadi. Uni Araks deb ataydilar. Uning 40 ta tarmog‘i bo‘lgan, ulardan biri Xasar (Kaspiy dengizi)ga qo‘yilgan. Bunday fikrni Strabon va Polibey kabi qadim dunyo olimlari ham bildirishgan.

Aleksandr Makedonskiyning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlari ishtirokchisi Aristobul shunday yozadi: "Men ko‘rgan daryolarning eng kattasi Oks (Amudaryo) edi. Bu daryoda kemalar qatnab turardi, hind savdogarlari Kaspiy dengiziga shu daryo orqali kemalarda suzib borishgan".

Abu Rayhon Beruniy qadimgi geologik davrda Amudaryo Zaim (Kerki, Turkmaniston) yonidan Qoraqum orqali Kaspiy dengiziga oqqan deb hisoblaydi.

Keyinchalik u shimolga burilgan va bu yerdan bir qismi Qiz dengizi (Sariqamish) tomonga, yana bir qismi Xorazm (Orol) dengiziga oqqan.

XV asrda yashagan tarixchi olim Hofizi Abru "Jug‘rofiya" va "Zubat ut-tavorix" asarlarida Amudaryo va Sirdaryo o‘z suvini Kaspiy dengiziga eltganligi sababli Orolning suvi qurib qolganligini yozadi. Bu Amudaryoning o‘z uzanini o‘zgartirib, O‘zboy orqali oqqanligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Ispaniya qiroli nomidan Sohibqiron Amir Temur huzuriga elchi bo‘lib kelgan Klavixo, shuningdek, arab muarrixi Ibn Arabshoh ham Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilganligini qayd etganlar. 1558 yilda Antoniy Jenkinson Angliyadan sayyoh va elchi sifatida Xorazmga keladi. U bu vaqtda Amudaryoning Kaspiyga emas, Orol dengiziga oqqanligiga guvohlik beradi.

Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zi tug‘ilishidan (1603 yil) o‘ttiz yil oldin Amudaryo Qoraayg‘ir to‘qayidan suv olib, Orol dengiziga oqa boshlaganini yozadi. Shu sababli Urganch atroflari deyarli cho‘lga aylangan. Bu Jenkinson Xorazmga kelib ketganidan o‘n besh yil o‘tib yuz bergan. 1625 yilda Urganch o‘zbeklari suv yo‘qligidan Buxoro, shuningdek, qozoqlar, mang‘itlar yashaydigan o‘lkalarga ko‘chib ketishga majbur bo‘lishgan.

Demak, Orol daryo uzani o‘zgarganligi bois qurib qolgan, ammo yillar, zamonlar o‘tishi bilan Amu va Sirdaryodan suv olib, yana dengizga aylangan, o‘z holiga qaytgan.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishgach, Orol muammolariga ham jiddiy e’tibor berildi. Istiqlol yillarida dengiz qurishi bilan bog‘liq zararli oqibatlarni kamaytirish, Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi odamlarning sihat-salomatligini saqlash, turmush sharoitlarini yaxshilash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Uning qurigan joylariga saksovulzorlar, yashil o‘rmonlar yaratishga qaratilgan tadbirlar ko‘rildi. Ayniqsa keyingi ikki yilda bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi, shiddatli, keng qamrovli tus oldi. 2018 yil 27 noyabrda BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi Trast fondi tashkil etildi. Aynan ushbu tashabbusni Prezidentimiz taklif qilgan edi, uni xalqaro tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrish qo‘llab-quvvatladi. 2018 yil 5 iyunda Orol muammolariga bag‘ishlangan Toshkent xalqaro konferensiyasida ishtirok etgan

butunjahon suv kengashi prezidenti Benedito Braga (Fransiya) "Orol muammosi faqat O‘zbekistonga yoki Markaziy Osiyo mintaqasiga tegishli emasligini barchamiz yaxshi anglaymiz", dedi. Bu esa Orol fojiasi yaqin va uzoq mintaqalarga tegishli global muammo ekanligining e’tirof etilishidir.

Hozir Orolbo‘yi qayta uyg‘onib, poyonsiz, ko‘z ilg‘amas sahroga yangidan hayot baxsh etish uchun misli ko‘rilmagan ishlar olib borilmoqda. Qish oylarida 500 ming gektar maydonda saksovulzorlar tashkil etildi. Nihoyatda sho‘rxok yerlarning 100 ming gektariga tamarind o‘simligi ekildi. Uning gulidan nektar olishni asalarilar juda xush ko‘radi, binobarin bu yerda asalarichilikni rivojlantirish imkoniyatlari tug‘iladi.

Orol fojiasi natijasida birinchi navbatda xalqimiz, so‘ngra butun dunyo jabrlanayotgani bot-bot takrorlanib kelinmoqda. Uning oqibatlarini yengillashtirish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar olib borildi. Xo‘sh, ahvol o‘zgardimi?

– Birinchidan, Orol dengizining suvi tortilib, qurigan qismida yangi tuproq qatlamining paydo bo‘lish jarayoni ketmoqda. Tabiiy tarzda o‘t-o‘lanlar o‘sib chiqmoqda. Demak, qurib qolgan maydonlar zaharli chang-to‘zonlardan tozalanib, bu yerdagi tuproq hosildorligi ortmoqda. Ikkinchidan, hozirgi paytda suvsizlanib qolgan maydonlarda yuz minglab gektar yerlarga o‘rmon xo‘jaliklari tomonidan o‘simliklar (saksovul, qandim va hokazo) ekilib, o‘rmonlar barpo etilmoqda. Orol dengizining 5,5 million gektar maydonidagi qurib qolgan yerlarning kamida 3,5 million gektar yerida tabiatning kuchi bilan o‘t-o‘lanlar o‘sib ketsa, bu yerlarda ulkan yaylov maydonlari paydo bo‘lishi mumkin.

Hozirgi paytda ekologik vaziyatlar sababli Qizilqum va Ustyurt yaylovlarining tabiiy hosildorligi kamayib bormoqda. Shu sababli dengizning suvsiz maydonlarini chorvachilik uchun yaylov sifatida foydalanish kelajakda dolzarb muammoga yechim bo‘la olar edi. Bu choralar uzluksiz amalga oshirilsa, hududdagi ekologik ahvol ham yaxshilanishi kutilmoqda.

O‘t-o‘lan o‘smaydigan yerlarda chang-to‘zon ko‘tarilishda davom etishining ham chorasi topildi. Yaqinda Qoraqalpoq davlat universitetining Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasi doktoranti Maxmud Allamuratov ilmiy yangilik –

dengizning o‘simlik o‘smaydigan qumli yerlarida qumlarning ko‘chishini to‘xtatish uchun sepiladigan (purkaladigan) kimyoviy birikmani ixtiro qildi. «Amu 1», «Amu 2» nomi berilgan ushbu birikmalar qumning yuzasini 8 millimetr qalinlikda qotirib tashlaydi. Har yomg‘ir yog‘ishi birikmaning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Ba`zi professor olimlarning ta`kidlashicha, Orol dengiziga suv olib kelishning imkoni bor. Jizzaxda katta ko‘llar tizimi bor. 1969-yili Sirdaryo suvining to‘lib, 21 kub kilometr suvning qirg‘oqlaridan chiqib ketishi natijasida paydo bo‘lgan ushbu Aydar-Arnasay ko‘llar tizimi hozir Qizilqumni botqoqlikka aylantirmoqda. Chunki, 1993-yildan buyon bir necha bor Sirdaryoning ortiqcha suvi shu ko‘llarga quyilib, ko‘llar tizimining maydoni yildan-yilga kattalashib bormoqda. Uning suvini bekorga cho‘lga oqizib yuborilgandan ko‘ra, Orol dengiziga quyishning chorasi ko‘rilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bundan, albatta, dengiz to‘lib qolmaydi, lekin uning minerallashuv (tuz ko‘lamining ortishi) darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Gerasimov I P ekalogicheskie problem’ v prrshloy nostoyashiy ibudushey geografii mir M Nauka 1985

2. Izrael’ Yu A ekalogiya ikontrol sostoyaniya prirodnoy sred’ M Gidrameteozdat 1984

3. Manitoring prirodnoy Srediu v basseyne Aral’kogo morya L Gidrometedizdat 1991

4. Berg L. S, Aralskoye more, SPB,1908;

5. Shuls V. L., Mashrapov R., O‘rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;

6.Rafikov A. A.,Tetyu yan G. F., Snijeniye urovnya Aralskogo morya i izmeneniye prirodnix usloviy nizovyev Amudari, T., 1981;

7. Glazove kiy A. F., Aralskiy krizis, M., 1990; Akramov 3., Rafikov A. A., Proshloye, nastoyasheye i budusheye Aralskogo morya, T., 1990;

8.Xikmatov B. F., Izucheniye dinamiki elementov vodnogo balansa i mineralizatsii Aralskogomorya, Dissertatsiya na soiskaniye akademicheskoy stepeni magistra gidrologii, T., 2003.

THE ROLE OF HOTEL BUSINESS IN DEVELOPMENT OF TOURISM INDUSTRY

Mardonova Dilrabo Shirinboyevna
PhD student, "Silk Road" International
University of Tourism and Cultural Heritage

Abstract. This article discusses the role and advantages of hotel industry in the sphere of tourism. In current conditions, there is a competitive environment in the field of tourism, the market despite the complexity of their relations, a number of tourism companies in Uzbekistan and hotels are being established, but most of them are from a certain time then, unable to cope with the competition, it leaves the tourism market. Hotels are not only an important type of economic activity enterprises, but also a complex organizational structure characterized by the distribution of management goals and tasks between departments and specific employees. All about these are discussed in this article.

Keywords: tourism industry, hotel management, economy, infrastructure, restaurants, tour operator service, tourist

TURIZM INDUSTURASINI RIVOJLANISHDA MEHMONXONA BIZNESINING O'RNI.

Mardonova Dilrabo Shirinboyevna
PhD talabasi, “Ipak yo‘li” xalqaro
Turizm va madaniy meros universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehmonxona industriyasining turizm sohasidagi o'rni va afzalliklari muhokama qilinadi. Hozirgi sharoitda turizm sohasida raqobat muhiti mavjud bo’lib, bozor munosabatlari murakkab bo‘lishiga qaramay, O‘zbekistonda bir qator sayyohlik kompaniyalari va mehmonxonalar tashkil

etilmoqda, biroq ularning aksariyati ma’lum bir davridan buyon faoliyat yurita olmayapti. Raqobatga dosh bera olsa ham, k’opgina joylashtirish korxonalari turizm bozorini tark etadi. Mehmonxonalar nafaqat korxonalarning iqtisodiy faoliyatining muhim turi, balki boshqaruv maqsadlari va vazifalarini bo'limlar va aniq xodimlar o'rtasida taqsimlash bilan tavsiflangan murakkab tashkiliy tuzilmadir. Bularning barchasi haqida ushbu maqolada muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: turizm sanoati, mehmonxona boshqaruvi, iqtisodiyot, infratuzilma, restoranlar, turoperator xizmati, turist.

РОЛЬ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНДУСТРИИ

Мардонова Дильрабо Ширинбоевна

Аспирант Международной организации "Шелковый путь"

Университет туризма и культурного наследия

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и преимущества гостиничного хозяйства в сфере туризма. В нынешних условиях в сфере туризма сложилась конкурентная среда, на рынке, несмотря на сложность их взаимоотношений, создается ряд туристических компаний Узбекистана и гостиниц, но большинство из них с определенного времени не в состоянии справиться с конкуренцией, уходит с туристического рынка. Гостиницы представляют собой не только важный вид хозяйственной деятельности предприятий, но и сложную организационную структуру, характеризующуюся распределением целей и задач управления между подразделениями и конкретными работниками. Обо всем этом и пойдет речь в этой статье.

Ключевые слова: индустрия туризма, гостиничный менеджмент, экономика, инфраструктура, рестораны, туроператорские услуги, турист.

Entrance. Tourism is one of the most promising and rapidly developing sectors of the economy. Tourism is the main type of activity that has a significant impact on economic growth and employment in the country, as it affects transport, hotel and restaurant services, trade, construction, consumer goods and several sectors of the economy.

Providing services in our country since the first days of independence tourism services as a priority direction of economic development was interpreted, and attention to it was raised to the level of state policy. For the development of the industry the necessary organizational and legal mechanisms have been created by the government relevant regulatory documents have been adopted and work in this direction is still ongoing continues.

In the current conditions, there is a competitive environment in the field of tourism, the market despite the complexity of their relations, a number of tourism companies in Uzbekistan and hotels are being established, but most of them are from a certain time then, unable to cope with the competition, it leaves the tourism market. Statistics according to data, in 2022, 959 hotels were operating in the republic if comparing with 2011 their number was 254 and 3139 guest houses catered to internal and international tourists in 2022.[2]

Tourism and the hotel industry are always side by side, and the adequacy of hotels also contributes greatly to the economy of the region and brings many facts. The existence of a hotel alone is not enough to develop regional tourism.

There some important aspects of the hotel industry are as:

- It generates Income
- It generates employment
- It is a source of foreign exchange earnings
- Developing Infrastructure
- It promotes peace & stability
- Increases government revenue

[2] Speech of the Ministry of Tourism and Cultural Heritage of the Republic of Uzbekistan, Deputy Minister of Tourism and Cultural Heritage - B. Shakhriyorov. investment@uzbektourism.uz www.uzbektourism.uz

- It improves the quality of life of locals
- It provides recreational facilities

Hotels are not only an important type of economic activity enterprises, but also a complex organizational structure characterized by the distribution of management goals and tasks between departments and specific employees. The organizational structure of management means a set of management links that are located in a subordinate manner and provide communication between the managing and managed systems.[3] The organizational structure of management is the composition, interrelationship, location and is formed from their interactions. The establishment of such a structure first of all implies the distribution of rights and responsibilities between certain departments of the organization. The following components are distinguished in the hotel management structure: management links (departments), management levels (steps) and management relationships - horizontal and vertical relationships. Management links include structural departments of the hotel, as well as certain specialists who perform the relevant management functions or some of them (for example, managers who regulate and coordinate the activities of several structural departments).

An example of a hotel's strategic goal, which is determined by the owner of each hotel, can be the orientation of the enterprise to a certain segment of the market, for example: group tourists or individual travelers, tourists trying to relax and restore health, or congresses and service to conference participants. To develop a strategic goal, a hotel owner can determine that the restaurant in the hotel complex serves only its guests.

Also, in accordance with the main purpose of the enterprise, a certain level of prices can be set for accommodation in the hotel. Such decisions and tasks fall into enterprise, the choice of a place for its construction, its architecture and interior, furniture, equipment, Personnel Selection will depend on these decisions and tasks. In international experience, a standard description of tourist accommodation facilities

[3] Ch. Medoy. Tourism of management. 2013.

developed by the World Tourism Organization (WTO) has been adopted. According to him, placement tools are divided into collective and individual categories (Table 1)

According to WTO experts, collective placement tools are an object that provides the traveler with a place to rest. In this case, the living space must reach at least one family and be in a single commercial management.

The hotel industry is a unique economic complex, it has its own production culture, which can affect the good or bad side of the culture, for example, on production, workers on their personnel, legal staff, personal affairs . When complaints about service are received, the reasonable remedy remains to investigate the culprit, not the cause. The knowledge and skills of the manager of the hotel organization should be perfect in all respects, and should be wider than the scope of knowledge about some of his activities.

Table 1

Standard Classification of tourist accommodation facilities [4]

categories	types	groups
1. Collective placement tools	1.1.Hotels	1.1.1.Hotels. 1.1.2.Similar business
	1.2.Cpecial enterprises	1.2.1.Healthcare facilities 1.2.2.Holiday camps 1.2.3.Public transport 1.2.4.Congress halls
	1.3. Other community enterprises	1.3.1.Vocation homes 1.3.2.Camping 1.3.3.Others
2.Indual placement tools	2.1. Individual placement tools	2.1.1.Private homes 2.1.2.Rented 2.1.3.Rented house 2.1.4.Living with relatives free 2.1.5.Others

[4] WTO World Tourism Barometer. Madrid. WTO.2017

Currently, this model has been in depression for the last 25 years from the global hotel services market for 2 million dollars in the style of "pales" rooms in love from finished. The second model is associated with the name of the American entrepreneur Kemons Wilson (Hotel system "Holiday Inn") in which, along with a high level of Service, great importance is attached to satisfying the wishes of the client. The hotel system, established on the basis of this model, has the following basic requirements:

1. Style unit (architecture, interior). 2. The unity of indicators and external information. 3. Spacious and functional case. 4. Speed of customer registration. 5. Availability of rooms designed for regular customers. 6. Breakfast "Swedish table". 7. Conference-availability of HAL. 8. Flexible system of tariffs. 9. Unified management, marketing and communication service. Currently, 50% of hotel rooms in the world belong to the second model.

Table 2.

World leading hotel systems

Name of company	The country where the headquartes are located	Number of rooms
Hospitality Franchise system Blanstone Part	USA	490000
Holiday Inn World Wide	England	386323
Best Western International	USA	295305
Accor	France	279145
Choice Hotel International	USA	271812
Mariott International	USA	251425
Itt Sheraton Corp.	USA	130528
Promus Corp.	USA	105930
Hilton Hotel Corp.	USA	101000
Carlson Hospitality World Wide	USA	91177

As for the hotel business of our country, today there are 97 requirements for establishing a hotel in our country, and 138 requirements for receiving a "star".

As a result, out of 1,165 hotels in our country, there are only 40 "star" hotels, of which only 4 are "five" and 15 are "four-star".

There are no "star" hotels in Karakalpakstan, Jizzakh, Kashkadarya and Fergana, and only 1 in Andijan, Navoi, Syrdarya and Tashkent regions. Or, the price of staying in a hotel for one night is on average 35-40 dollars in our country, which is 20-25% more expensive than in developed countries. [5]

The fact that the accommodation has good conditions, the environment is peaceful, and the services provided to customers are at a high level have a great influence on the customers' use of hotel services. This puts them on a level playing field with larger enterprises, as foreign tourists often have soft feelings towards local products and familiar services offered by start-ups and micro-entrepreneurs.

One of the most significant and vital things about the hospitality industry is that it gives a unique service that is important to the tourism sector. Hospitality educates you on how to properly supervise and manage guests, and how to go the extra mile to satisfy guests.

Our country has a good infrastructure for the development of the hospitality industry. Our people usually study by highlighting the existing shortcomings in the field, but the tourism infrastructure in our territory of Uzbekistan is well established. Due to the growth of the industry, it is allowed for the governments to see the necessary products to improve the roads and transport services, which paves the way for the safety and security of the economic capital.

Based on the analyzed data, it is felt that there is a demand and supply gap between hotels and tourism industry in Uzbekistan and an urgent need for more hotels over time. Tourists naturally experience a shortage of available hotels, which is especially evident in the area where festivals, conventions, international conferences are organized, and the need for standard budget hotels is very high. Currently, there is

[5] Speech of the Ministry of Tourism and Cultural Heritage of the Republic of Uzbekistan, Deputy Minister of Tourism and Cultural Heritage - B. Shakhriyorov. investment@uzbektourism.uz www.uzbektourism.uz

an urgent need for budget and mid-market hotels in Uzbekistan, which will add more budget options for all types of tourists and also add value to the tourism sector. It is very important to solve the existing problem taking into account the above points.

Conclusion and suggestions

- We need to increase additional services in our hotels.
- The main of them is the currency exchange service, which is always encountered by tourists. They should have the opportunity to exchange their currency for Uzbek soums at any time.
- The most attentive treatment of a guest has a great impact on his morale. The more quickly and qualitatively the service requested by the client is performed, the more the client will want to visit the hotel again and the hotel will have its regular client.

In most cases, there are no serious requirements for service staff, but this does not mean that everyone can find a job in a hotel or hotel. For example, knowledge of a foreign language is often required, which is already a feature of working in the hotel business. Here, education plays a very important role, because building or organizing a successful hotel requires training. At the same time, the presence of a hotel business diploma does not guarantee successful work for a graduate, because the employer has not only the "shell", but also the practical skills, knowledge and skills of a potential employee. Many hotel courses are offered for this purpose.

References:

1. Bozarov, E., & Babayeva, L. (2021). TURIZM SOHASIDA KLASTERLARNING SAMARASI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 2(6), 208-212.

2. Omanov Rustam Farmonovich, G., & ErgashevTohir, B. (2021). Socio-Economic Aspects of the Development of Small Enterprises in the Kashkadarya Region of Uzbekistan. Design Engineering, 6523-6531.

3. Bozarov, E. B. (2021). ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN. Scientific progress, 2(6), 213-216.

4. Shukhratovna, Y. S. (2021). Innovative Approaches for Modeling the Impact of Monetary Policy on Economic Development. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 311-318.

5. Ikramovich, R. Z. Z., Shukhratovna, Y. S., To‘lqinovich, S. B., & Ibragimovna, B. L. (2021). Monetary Policy Of The Uzbekistan And Its Improvement Ways In Implementing. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 27(1), 1551-1557.

6. G’Ulomxasanov, E., Ruziyev, B., Lazizova, M., & Ochildiyev, B. (2022). TURIZM—MAMLAKAT IQTISODIYOTINING STRATEGIK TARMOG ‘I. Scientific progress, 3(1), 458-464.

7. Gulomkhasanov, E., & Rakhmatova, N. (2022). THE ROLE OF TASHKENT IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM. Scientific progress, 3(1), 183-188.

8. G’ulomxasanov, E., Abdullayev, N., & Madina, L. (2021). Turizm Va Ta’lim: Holati Va Istiqboli. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 343-348.

9. Gulomxasanov, E., Amirova, F. S. Q., & Amirov, A. S. O. G. L. (2021). IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI TURIZIMNING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 2(6), 171-174 10. Makhmudov, S. S., & Raimova, M. (2017). Comparative analysis of the Germany and Uzbekistan corporate governance codes. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, (5-6), 60-65.

10. Speech of the Ministry of Tourism and Cultural Heritage of the Republic of Uzbekistan, Deputy Minister of Tourism and Cultural Heritage - B. Shakhriyorov. investment@uzbektourism.uz www.uzbektourism.uz

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ZAMANOVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI SHAROITIDA PEDOGIGIK LOYHALASHTIRISH

Allamuratova Venera Ziuatdinovna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi

Respublika ta’lim markazi metodisti

Annotatsiya. Loyiha usuli - muammoni batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish usuli bo‘lib, u yoki bu tarzda ishlab chiqilgan juda real, aniq amaliy natija bilan yakunlanishi kerak.

Tayanch so’zlar: loyihasi, tadqiqot, kontseptual, Mono-loyihalar, intellect.

Аннотация. Метод проектов – это метод достижения дидактической цели путем детальной разработки проблемы, которая должна заканчиваться вполне реальным, конкретным практическим результатом, разработанным тем или иным способом.

Ключевые слова: Проект, исследование, концептуальность, монопроекты, интеллект.

Annotation. The project method is a method of achieving didactic goals through detailed development of problems, which must begin with fully real, concrete practical results developed in this or other ways.

Key words: Project, issledovanie, konceptualnost, monoproekty, intellect.

Kirish. Loyha usulida raqamli texnologiyalarning o‘rni va vazifazi katta ahamiyatga ega. Bunda o‘quvchilar o‘z bilimlarni mustaqil fikrlashga va muammolarni topish, hal qilishi mumkin. Shunday qilib, maktabdagi loyihalar usuli bir vaqtning o‘zida muammoli va kreativ yondashuvlardan foydalanishga imkon beradi. Bu o‘quvchining har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Loyiha faoliyati faqat iqtidorli bolalar bilan shug‘ullanish mumkin degani noto‘g‘ri talqin. Iqtidorli o‘quvchilar uchun loyihalarda ishlash ularning bo‘sh vaqtlarini qiziqish faoliyati bilan to‘ldiradi, ularga o‘zini va qobiliyatlarini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini

o‘qitishni tashkil etishga va ko‘proq bilim olish ehtiyojini qondirishga imkon beradi. Hatto zaif o‘quvchilar bilan ham, agar o‘qituvchi o‘quvchini loyiha mavzusiga qiziqtira olsa, loyiha ustida ishlashning barcha bosqichlarini tushunsalar, loyihalar ustida ishlash o‘zining ijobiy natijalarini berishi mumkin. Loyiha ustida ishlash jarayonida nafaqat faoliyat usullari, balki axborotni mustaqil egallash va rivojlantirish jarayonida olingan yangi bilimlar ham belgilanadi.

Maktab loyihasi- tadqiqot ishining bir shakli bo’lib, unda o‘quvchi mustaqil ravishda ish mavzusi bo‘yicha ma‘lumot topadi, uni o‘rganadi, xulosalar chiqaradi va materialni jamoatchilikka taqdim etadi. O‘quvchilar nafaqat ishning asosiy mavzusini o‘rganishlari, balki tadqiqot qilishlari kerak. Professor E.S. Polat Loyiha usuli bo‘yicha muammoni (texnologiyani) batafsil o‘rganish orqali kognitiv maqsadga erishish yo‘lini ko‘rib chiqadi, buning yakunda haqiqiy, amaliy, mos ravishda ishlab chiqilgan natijaga ega bo‘ladi. Uning fikriga ko‘ra, qo‘yilgan vazifaga - jarayonning barcha ishtirokchilari uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan va ma’lum bir mahsulot shaklida ifodalanishi kerak bo‘lgan muammoni hal qilish uchun oziga xos ketma-ketlikdagi uslublar, dizaynerlarning harakatlaridir. [5] **Loyiha faoliyati** - muayyan natijaga, maqsadga erishish yoki muammoni hal qilishga qaratilgan mustaqil faoliyat (ilmiy, shaxsiy yoki ijtimoiy).

Loyiha - bu yangi mahsulot/natija yoki muammoni hal etishni yaratish va ishlab chiqarish uchun amalga oshiriladi.

loyiha ustida ishlash - bu o‘quvchining qiziqishini hisobga olgan holda, uning erkin tanlashiga asoslangan aniq ishi jarayonida o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim amaliyotidir. 1990-yillarda Amerikada paydo bo‘lgan. Jon Dyuining (1859-1952) pedagogik g‘oyalari va tadqiqotlari bilan boshlandi. Olim birinchi marta pedagogik jarayonga “loyiha usuli” atamasini kiritdi, uning aniq formulasi va mazmunini asoslab berdi. J.Dyui loyihaning asosiy kontseptual xususiyatlarini ajratib ko‘rsatdi:

- dizayner amaliy faoliyat orqali kundalik masalalarda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi;
- loyiha ishtirokchisi ijodiy qobiliyatlarni jamoaviy faoliyat orqali rivojlantiradi;

- har bir ishtirokchining ish natijasiga shaxsiy qiziqishi paydo bo‘ladi.

Maktab loyihalari turlari

- Tadqiqot
- Axborot
- Ijodiy
- Amaliy

Tadqiqot. O‘quvchilar nafaqat ishning asosiy mavzusini o‘rganishlari, balki tadqiqot qilishlari kerak. Bu ma’lum bir muammo ustida ishlaydigan olimlarning tajribalarini takrorlash yoki nazariyani tasdiqlash uchun yangilarini o‘rnatish bo‘lishi mumkin.

Axborot. Loyihalarni bajarishda o‘quvchilar faqat ma’lumotlarni qidirish va tahlil qilish bilan cheklanib, mustaqil xulosalar chiqaradilar.

Ijodiy. Tadqiqot ishi ijodkorlik bilan loyiha modellashtirish (masalan, "Birinchi mashinaning paydo bo‘lishi" mavzusidagi avtomobillar va yo‘llarning modellari), kostyumlar tayyorlashni (masalan, "XVIII asrda Frantsiyadagi to‘plar" mavzusida) o‘z ichiga olishi mumkin.

Amaliy. Agar mavzu kundalik hayot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa (masalan, "Kompyuterlar insoniyatga qanday yordam beradi"), o‘quvchilar asosiy e’tiborni ishning amaliy qismiga qaratishlari kerak bo‘ladi. [3]

Ishtirokchilar soni bo‘yicha maktab loyihalarini tasniflash

- individual

- juft

- guruh

Bilimlar profiliga ko‘ra maktab loyihalarini tasniflash

Mono-loyihalar. Bir mavzu loyihasi. Bunda dasturning eng qiyin bo‘limlari yoki mavzulari tanlanadi. Mono-loyihalar ustida ishlash ba’zan muayyan muammoni hal qilish uchun boshqa sohalardagi bilimlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Fanlararo loyihalar. Qoida tariqasida, ular maktabdan tashqarida amalga oshiriladi. Bular ikki yoki uchta mavzuga ta’sir qiladigan kichik loyihalar bo‘lishi mumkin yoki ular juda katta hajmli, uzoq muddatli, maktab miqyosida bo‘lishi

mumkin, loyihaning barcha ishtirokchilari uchun muhim bo‘lgan u yoki bu juda murakkab muammolarni hal qilishni rejalashtiradi.[4]

Loyihalarning davomiyligi bo‘yicha tasnifi

- qisqa muddatga
- o‘rtacha davomiylik (bir-ikki oy)
- uzoq muddatli (bir yilgacha)

Loyiha pasporti

Loyihani bajarish uchun sizga uning pasporti kerak bo‘ladi, bu ishning sarlavha sahifasiga o‘xshash narsa. Unga yozilishi kerak:

- Loyiha nomi
- Loyihalar bo‘yicha menejer
- dizayn jamoasining tarkibi
- loyiha turi
- loyihaning maqsadi
- zarur jihozlar
- loyihaning qisqacha tavsifi
- maktab loyihasi rejasi

Maktab loyiha bosqichlari

Muammoni tahlil qilish. O‘qituvchidan (yoki o‘z-o‘zini tanlashdan keyin) ish mavzusini olgandan so‘ng, savol nima ekanligini, qanchalik muhimligini tasvirlab berishi kerak.

Maqsadni belgilash. Loyiha ishining maqsadi odatda asosiy mavzu bo‘yicha ma‘lumotlarni o‘rganishdir. Ammo nazariyani tajriba orqali tasdiqlash, muammo bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni izlash, nazariyani rad etish va boshqalar kabi qo‘shimcha maqsadlar bo‘lishi mumkin.

Muvaffaqiyatga erishish vositalarini tanlash. Odatda maqsadga bog‘liq. Agar bu faqat ma’lumotni o‘rganish bo‘lsa, unda manbalar tanlanadi, gazeta va jurnallarni, tarmoqda nashr etilmagan kitoblarni qo‘shib, faqat Internet bilan cheklanib qolmaslik yaxshi bo‘lardi. Agar qo‘shimcha maqsad tajriba (vizual tasdiqlash) bo‘lsa, siz uni

amalga oshirish rejasini ishlab chiqishingiz, ish uchun asbob-uskunalar va materiallarni tanlashingiz kerak.

Axborotni qidirish va qayta ishlash. Eng qiziqarli bosqich. Asosiy mavzu bo‘yicha materiallarni birlashtirish, faktlar va fotosuratlar bilan tasdiqlash kerak. Agar munozarali masala yuzaga kelsa, mutaxassislar va tadqiqotchilarning barcha mumkin bo‘lgan fikrlari taqdim etilishi kerak.

Olingan natijalar va xulosalarni baholash. Bajarilgan barcha ishlardan so‘ng, o‘zingizga tanqidiy qarash va ishingizni baholashga arziydi. Bu qanchalik foydali bo‘ladi? o‘quvchi undan qancha saboq oladi? Ish jarayonida qanday yangi va qiziqarli narsalarni o’rgandingiz? [5]

Loyihani himoya qilishning mumkin bo‘lgan shakllari

-sinfda taqdimot

- maktab miqyosidagi konferentsiyadagi nutq

- ixtiyoriy kursda ishlash

Xulosa

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarda loyha usulini zamanoviy raqamli texnologiyalardan foydalanib takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish mumkin. loyha usulida ₀‘quvchilar o‘z bilimlarni mustaqil ravishda raqamli mediya resurslardan olishi va olgan bilimlardan yangi kognitiv va amaliy muammolarni hal qilishda foydalanadi. loyha usulida raqamli texnologiyalar ₀‘quvchining har tomonlama rivojlanishiga hissa qo‘shadi, ularni axborot-kommunikatsiya bilan mustaqil ishlashga, asosiy narsani to‘g‘ri tanlay olishga, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Bularning barchasini bilish va hayotda qo‘llash juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari:

1. Polivanova K. N. Maktab o‘quvchilarining loyiha faoliyati: o‘qituvchi uchun qo‘llanma. – 2-nashr. - M .: Ma’rifat,

2. Abramova S.V. Rus tili. O‘rta maktab o‘quvchilari sinflarining loyiha ishi: umumiy ta’lim o‘qituvchilari uchun qo‘llanma – 2-nashr. - M .: Ma’rifat,)

3. https://gramopod.ru/kak-sdelat-shkolnyj-proekt/

4. https://vyuchit.work/samorazvitie/sekretyi/chto-takoe-proekt-v-shkole.html
5. http://gymnasium4.ru/new/uchebnaya-i-vospitatelnaya-deyatelnost/304-shkolnyj-proekt#:~:text=Школьный%20проект%20–

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KO'RGAZMALI O‘YIN MASHG'ULOTLARIDAN NAMUNALAR

Tog'ayeva Fariza Fayzullo qizi
Qahqadaryo viloyati Kasbi tumani 42- umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi


Annotatsiya: Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur va aniqroq tasawur qilish maqsadida bu maqolada ta'lim, o'yin, didaktik topshiriq, o'yin topshiriqlari singari tushunchalarning ta'rifiga va ularning ma'nosini ochib berilgan

Kalit so'zi: O'yin, ob'yektiv voqelik, Didaktik o'yin, Teatr, Doiraviy misollar.

Ta'im — o'quvchilarga ko'nikma va malakalar berishning, bu bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilar uqib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir. O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyatdir, ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, ob'yektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir. Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan, «Teatr» o'yiniga qo'yiladigan didaktik topshiriq bolalarning oldingi darslarda tanishgan 5 soni haqidagi tushunchalarini mustahkamlashdan iborat. «Doiraviy misollar» o'yinida esa ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. O'yin topshirig'i — o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. «Ikkini qo'shish va ayirish» Didaktik o'yin: «Jimjitlik» Didaktik topshiriq: o'ngacha og'zaki sanash. O'yin topshirig'i: o'qituvchi ko'rsatgan narsalarning «hayolda» sanash, doskaning oldiga borib, son natijasini topib, uni o'chirib tashlash.

Bu o'yin turli usullarda o'tkaziladi. O'qituvchi doskaga oldinroq doira chizib, uning atrofiga 1 dan 10 gacha bo'Igan raqamlarni yozib, doiraning o'rtasiga 2 raqamini amal belgisi (qo'shish yoki ayirish) bilan yozib qo'ygan bo'ladi. O'yin uyga berilgan topshiriq tekshirilgandan keyin o'tkaziladi. O'qituvchi bolalarga o'yin qoidalarini tushuntiradi: — O'yin mutlaqo jimjitlik vaziyatida o'tkaziladi, — deydi o'qituvchi.- Avval men doira ichidagi raqamni, keyin qo'shish yoki ayirish ishorasini va doira atrofidagi raqamlardan birini ko'rsataman.

Sizlar qaysi raqamni ko'rsatishimni yaxshilab kuzatinglar, u raqam bilan nima qilinishi kerakligini o,'ylab ko'ringlar. Mana deb tayyorlab kelgan ko’rgazmali quroli





Jadaldagi katakchalar ichiga javoblar yoziladi:

3	4	5	6	7
□	□	□	□	□

orqali bajarib ko’rsatadi. Kimda-kim topshiriqni bajargan bo'lsa, ovoz chiqarmay, qo'l ko'tarsin. Men chaqirishim bilan u kataklar ichiga javobni yozadi deb o’rgatadi . Shundan keyin o'yin boshlanadi. O'qituvchi ikkiga to'rt qo'shilishi kerakligini ko'rsatadi. U 5 sekund davomida kerakli son va belgilarni ko'rsatkich bilan ko'rsatib turadi. Uning chaqirig'i bilan o'quvchilar topshiriqni ovoz chiqarmasdan bajarishadi. So'ngra o'qituvchi sur'atni tezlashtiradi (2 sekunddan). Sinfda jimjitlik. Bolalar butun diqqatlarini bir yerga to'plab ish qiladilar. 10 nafar bolaning bergan javobi aniqlanadi va ulardan kim g'olib chiqqanligi e'lon qilinadi. O'yin 5-6 rninut davom etadi. Xulosa: o'yin juda sodda bo'lib, undan keng miqyosda foydalanish mumkin. Bu o'yin bolada iroda, tirishqoqlikni tarbiyalashga va ularda sanoqqa bo'lgan qiziqishni oshirishga ko'p jihatdan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дилова Н.ГБошлангич таълимда укувчиларда шахслараро муносабатларга киришиш куникмаларини шакллантириш имкониятлар. 524-533 бетлар.

2. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 515-523 betlar.

EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Toyirova Shohista Bobobekovna
“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
doktorantura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik turizmning jamiyat va tabiatning o’zaro munosabatlaridagi ahamiyati va ekoturizmning barqarorlik talablariga qay darajada javob berishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ekologik turizmni qanday usullar bilan tashkillashtirilganda ijobiy natijaga erishish mumkinligi to’g’risida ekologik turizmni samarali yo’lga qo’yib, bu sohada yutuqlarga ega bo’lgan hududlar misolida yoritib berilgan. Maqolada aynan bir hudud bilan cheklanmasdan, bir qator manzillar keltirilib, bu sohada sohaning rivojlanishda turlicha yondashish mumkinligi ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Ekologik turizm, mahalliy aholi, tabiatni muhofaza qilish fondi, Jahon yovvoyi tabiat fondi, ekoturistik loyihalar

Ekologik turizm tabiiy hududlarga tashrif buyurish, shaxsiy rivojlanish, mahalliy aholining turmush darajasining rivojlanishi, tub aholi huquqlari va madaniyatini hurmat qilish ko’rinishidagi turizm turidir. Ekologik turlarning tashkil etilishida barqarorlik talablariga rioya etish talab etiladi. Turizmning bu turida qimmatbaho restoranlar va mehmonxonalar o’rniga mahalliy aholi tomonidan taqdim etiladigan uylarda yashash taklif etiladi. Atrof-muhitga zaharli gazlar chiqaruvchi transport vositalari o’rniga velosiped, otlar, fillar kabilardan foydalanish ma’qul ko’riladi. Ko’p hollarda tabiatga zararni kamaytirish uchun piyoda yurish qo’llab-quvvatlanadi [1,B4] Mintaqada istiqomat qiluvchi aholining doimiy ish bilan ta’minlanishida ekologik turizmning o’rni beqiyos. Ekologik turizm bugungi kunda ko’plab insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan muammolarga eng maqbul yechimlardan biri sifatida qaralmoqda. Dunyo bo’ylab sut emizuvchilarning, qushlar va boshqa noyob turlarning yer yuzidan yo’qolib ketishini oldini olishda ekoturizm muhim ahamiyatga

kasb etadi. Ekologik turizm-bu inson faoliyatinig salbiy ta’siri sezilmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishdir. Odatda ekoturistlar ma’lum bir maqsadlarga asoslanib, ushbu turizm turidan foydalanishadi. Ularning tabiiy hududlarga tashrifdan maqsadlari quyidagicha bo’lishi mumkin:

*tabiat go’zalligidan bahra olish

*ko’pchilik ko’rishga ulgurmagan hududlarni o’zi uchun kashf qilish

*noyob o’simlik va hayvon turlarini izlab topish

*fanga noma’lum hayvon va o’simlik turlarini o’rganib, ular haqida ma’lumot top’lash

*turli ilmiy tadqiqotlar olib borish

Ekologik turizm inson va tabiat munosabatlarini rag’batlantiruvchi vositadir. Ekologik turizm turizmning boshqa turlaridan farqli ravishda olingan foydaning katta qismi asosan hudud tabiatining asl holatini saqlab qolishga va tub aholining turmush tarzini yaxshilashga qaratiladi. Ekologik turizmning to’g’ri boshqarilishi mahalliy aholining sohaga maksimal darajada jalb qilinishiga bog’liq[2, B.5] Ekoturizmning to’g’ri tashkillashtirishda aholining ekoturizm haqidagi tushunchaga va yetarlicha bilimga ega bo’lishlarini ta’minlash zarur. Tashkiliy ishlarning yana bir muhim jihati o’zaro fikrlar, g’oyalar almashishga imkoniyat yaratilishi sohaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi.

Turizm sohasi boshqa ko’plab iqtisodiy sohalar kabi tabiiy resurslarga tayanadi. Tabiiy resurslar turist ehtiyojlarini qondirish va sohani rivojlantirishda o’ta muhim ahamiyatga ega. Slovakiyaning Koshits viloyatida EkoVeloTour loyihasi ishlab chiqilib, barqaror turizmga o’zining ijobiy hissasini qo’shdi [3, B.5] Ushbu strategiya ekoturizm va yashil harakatchanlik tadqiqotlariga asoslangan. Bu harakat viloyatda ekoturizmni sezilarli darajada jonlantirishga sabab bo’ldi. Ushbu loyiha boshqa bir qator loyihalarda keltirilgan bilimlarni o’zaro almashish asnosida tashkil etildi. Loyiha asosan tabiatni kuzatishda velosipeddan foydalanishni targ’ib qildi.

Ekologik turizm tabiatga yetkaziladigan zarar miqdorini kamaytirishga va barqaror turizmni rivojlantirishga yordam beradi. Hudud aholisi o’zning asrlar davomida asrab kelayotgan madaniayti va urf-odatini, o’ziga xos turmush tarzini

turistlarga bor holicha ko’rsatish imkoniyatini beradi. Olingan daromad mintaqada maktablar, sog’liqni saqlash xizmatlarining yaxshilanishiga, ichimlik suvi bilan bog’liq bi’lgan muammolarning bartaraf etilishi va aholining turli loyihalarini qo’llab-quvvatlashga qaratiladi. Bunday ijobiy o’zgarishlar ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlat iqtisodiyotida juda muhimdir.

Aynan biologik xilma-xillikni asrab qolish uchun dunyo mamlakatlari turli ekologik turizm loyihalariga maxsus grantlar taqdim etilib, tabiatni asrash fondlari tashkil etilmoqda. Ekologik turizmning beqiyos ahamiyati sabab barcha mamlakatlar o’zinining ekologik turizmni rivojlantirish bo’yicha strategiyalarini ishlab chiqqan. Amerika qit’asi mamlakatlari bu borada yetakchilikni bermay kelmoqda.

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. //Xalq so‘zi, 2016 y. 8 - dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev, Toshkent sh., 2019-yil 27-iyun, PQ-4366-son qarori O'zbekiston Respublikasi PF-5618-sonli. 09.01.2019 yil.
3. Lex.uz sayti.
4. Rabota press-sekretarya i press-slujbы administrasii sub’yekta
5. Rossiyskoy Federasii, Nikolayev A.Yu., Geraskin S.V, Borisov I.V., Kretinin A.Ye., Sыsoyev K.A Novosibirsk 1997

OKKAZIONALIZM VA NEOLOGIZM HODISASI

Qurbonova Moxinur Abdusoli qizi
FarDu o‘qituvchisi
Samadov Odiljon Botiraliyevich
Bannobjonova Guljahon Odiljonovna
Rishton tumanidagi 10-umumta’lim maktabi o‘qituvchilari

Annotatsiya: maqolada okkazionalizm va neologizm hodisalarining o‘xshash hamda farqli jihatlari ochib berilgan. Olimlarning nazariy fikrlari asosida umumlashma xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: okkazionalizm, neologizm, potensializm, til, nutq, lug‘at qatlam, semantic neolgizm, okkazional ma’no.

Okkazionalizm va neologizm hodisalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ikkalasida ham yangilik bo‘yog‘i mavjuddir. Bu hodisalarga o‘zbek tilshunosligida quyidagicha ta’riflar berilgan. Prof. S.Mo‘minov neologizm va okkazionalizm hodisalarini quyidagicha farqlaydi:

1.Neolgizm til birligi, okkazionalizm esa tilning lug‘at qatlamidan o‘rin olmagan yoki o‘rin olib ulgurmagan mutlaqo yangi nutq birligidir.

2.Ilgari mavjud bo‘lgan ayrim til birliklari individ tomonidan mutlaqo yangi, o‘ziga xos ma’noda qo‘llanishi ham mumkin.Bunday holda okkazional ma’no yoki so‘zning okkazional ma’nosi yuzaga keladi. Semantik neologizm esa til birligining yangi ma’noda ko‘pchilik tomonidan qo‘llanishidir.

3.Okkazionalizmlar – konkret nutq jarayonida individ tomonidan faqat bir martagina qo ‘llanadigan, ko‘pincha emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan nutq birligi ekanligi bilan ham keyinchalik turg‘un til birligiga aylanib ketadigan neologizmlardan farqlanadi.

4.Istalgan til birligi, jumladan, neologizmlar motivlangan bo‘lmasligi mumkin. Ammo istalgan okkazional so‘z motivlangan bo‘ladi.[1]

Albatta, biz ham ustozning fikrlariga qo‘shilamiz. Okkazionalizm bu nutq hodisasi, ma’lum bir muallif o‘z maqsadini ifoda etishda okkazional birliklardan qurol sifatida foydalanadi.

S.Toshaliyeva tadqiqotida okkazionallik va neologizm hodisalarini farqlash zarurligini aytadi. Neologizm va okkazionalizm tushunchalari odatda yangi so‘z maqomidagi birliklardir. Mazkur tushunchalarni farqlashda ikki xil yo‘nalishdagi munosabatning mavjudligini ta’kidlaydi. “Birinchi yo‘nalish uzuallik va okkazionallik, ikkinchi yo‘nalish esa eskilik va yangilik o‘rtasidagi oppozitsiya asosida fikr yuritishni taqozo etadi. “Yangi so‘z” tushunchasi uzuallik // okkazionallik munosabatiga bevosita daxldor; “uzual so‘z” va “okkazional so‘z” tushunchalarini quyidagicha tavsiflash mumkin: hozirgi o‘zbek tili lug‘at mulkiga mansub so‘zlar uzual so‘zlardir. Uzual so‘zlar til lug‘atining barqaror, turg‘un qismini tashkil etadi; umumxalq tili yoki adabiy til lug‘atiga mansub bo‘ladi. Adabiy uzual so‘zlar tarixiy, an’anaviy tanlash, saralash samarasi, maromli qo‘llanishlar majmui bo‘lib, barcha uchun umumiy va doimiy, takroriy qo‘llanish xususiyatiga ega. Okkazional so‘zlar umumxalq tili va adabiy til lug‘atida mavjud bo‘lmagan, nutq jarayonida muayyan shaxs tomonidan ayni shu vaziyat, mazmun ehtiyojidan kelib chiqib yasalgan va ishlatilgan g‘ayriodatiy-maromsiz yasalmadir.“[2] Biz ham olimning fikrlariga qo‘shilamiz. Uzual so‘zlarda ham, okkazional so‘zlarda ham yangilik bo‘yog‘i mavjuddir. Ikkalasi ham ma’lum muallif tomonidan ishlab chiqilgan. Asosiy farqi shundaki, okkazionallarni tilning lug‘at tarkibiga kirishi ma’lum darajada chegaralangan. Bizningcha, bunga butunlay chegara quyib bo‘lmaydi. Ular ham tilning lug‘at tarkibiga kirishi mumkin. Qachonki xalq uni qabul qilsagina. Shu bilan birga olima bu hodisalarni yuzaga kelish, nomlash, qo‘llanish, g‘ayriodatiy kabi belgilariga ko‘ra ham farqli hodisalar ekanligini ta’kidlaydi.[2]

O‘zbek tilshunosligida leksik okkazionalizmlar bo‘yicha ish olib borgan O.To‘xtasinova tadqiqotlarida neologizm va okkazionalizm hodisalarining o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadi. “Okkazional so‘zlarning muhim belgilaridan biri uning biror muallifga taalluqligidir. Bunday so‘zlarning aksariyati xotirada qayta tiklanmaydi. Yangi so ‘zlar ham faqat ijtimoiy jihatdangina, ya’ni mazkur til egalari

bo‘lgan barcha kishilar jamoasiga qarashli mutloq egasiz birlik sifatida ahamiyatlidir. Tildagi barcha so‘zlar singari, keyinchalik egasi unutilgach, yangi so‘zlar umumlashtirilgan va ularning muayyan mualliflarga tegishli ekanligi esdan chiqarilgan.”[4] Biz ham olimaning fikrlariga qo‘shilamiz, muallifning bor yoki yo‘qligi asosiy belgilaridan biridir. Ikkala hodisa ham dastlab bitta muallif tomonidan yaratiladi.

Biz olimlarning ishlarini o‘rganish natijasida okkazionalizm va neologizm hodisalarini o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagi jadval asosida yoritishga harakat qildik.

Neologizm	**Okkazionalizm**
Yangilik bo‘yog‘ining mavjudligi	
Til birligi	Nutq birligi
Ikkalasi ham ma’lum bir muallif tomonidan yaratiladi	
Tilning lug‘at tarkibida mavjud	Tilning lug‘at tarkibida mavjud emas
Bora-bora yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotib, umumlashma so‘zlar qatoriga o‘tib ketadi	Nutq jarayonida individ tomonidan faqat bir martagina qo‘llanadi
Vaqat mezoni zarur	Emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega
Ma’lum darajada so‘z yasash maromlariga amal qiladi.	So‘z yasash qoidalariga amal qilmaydi
Alohida olingan holatida ham uning ma’nosi anglashilib turadi.	O‘z matn konteksiga ega bo‘ladi

Shu o‘rinda oraliq maqomda turuvchi potensial so‘zlaga ham to‘xtalmoqchimiz. Bu hodisaga nisbatan olimlar quyidagicha ta’rif berishadi: “ Nutq jarayonida yuzaga keluvchi yangi yasalmalar mohiyat e’tibori bilan neologizmlardan farqlanib turuvchi o‘zaro zid bo‘lgan ikki xil nutqiy hodisadan iborat.Bular okkazionalizmlar va potensializmlardir. Potensial so‘zlar til qonuniyatlari va mezonlariga muvofiq tarda mahsuldor so‘z yasalish andozalari asosida yaratilgan, binobarin, ehtiyoj tug‘ilganda til lug‘atiga o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lgan yangi yasalmalardir: zanjirqulf,

tunko‘ylak, oromkursi (kreslio), tagxona (podval), issiqxona (teplitsa), taomtaxta.”[2] Olima maqolasining keying o‘rinlarida potensial so‘zlar atamasini imkoniyatdor so‘zlar deb artaydi.” Bu xil yasalmalar tabiatan til qonuniyatlari tiomonidan “rejalashtirilgan” va neologizmlar sirasiga o‘tish imkoniyatiga ega, g‘ayriodatiylik, tasodifiylikdan holiroq. Shu bois, fikrimizcha, potensial yasamalarni imkoniyatdor so‘zlar deb atash mumkin.” [3]

Yuqoridagi ta’riflaridan ham ko‘rish mumkinki, neologizmlar til birli, potensializmlar va okkazionalizmlar esa nutq birligi, ularning hammasi ham ma’lum maqsad sabab yaratiladi. Uchala hodisada ham yangilik bo‘yog‘i mavjud. Keltirilgan misollardan ko‘rish mumkinki, g‘ayritabiiylik, maromsizlik belgilari okkazionalizmlarda kuchliroq. Potensializmlar va neologizmlarning yasalish jarayonida belgilangan qoida va normalarga amal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мўминов С. Окказионал нутқий номинацияда мотивациянинг роли: Филол. фанлари номзоди ....дис. ─Т., 1990.

2. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т.,1998.

3. С.Тошалиева. Маромсиз ясамалар хақида. //Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.1993.

4. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т.,2007.

THE IMPACT OF THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TECHNOLOGY SERVICE INDUSTRY ON ECONOMIC GROWTH

Peng Xinge

Researcher, Samarkand State university

Abstract: With the development of science and technology, the science and technology service industry has gradually become an important part of the modern service industry. It is an important support for promoting scientific and technological innovation and accelerating the transformation of achievements. We found that the technology service industry can promote economic growth by exerting the effect of technological innovation and industrial transformation and upgrading.

Keywords: science and technology service industry, innovation, industrial upgrading, economic growth.

With the continuous deepening and reshaping of the globalization pattern, the world economy is accelerating from the globalization of products and services to the globalization of innovation, and international competition is more prominently manifested in the competition of comprehensive national strength centered on scientific and technological innovation.

The science and technology service industry is a new engine that promotes technological innovation and the transformation and upgrading of the industrial structure of the times, and is crucial to achieving high-quality economic development. Since the financial crisis in 2008, the economic growth of all countries in the world has generally faced downward pressure, but the integration of technology into the service industry and the innovation and entrepreneurship activities it supports have been very active. Many scholars believe that the technology service industry has gradually become the driving force of economic development.

The promoting effect of science and technology service industry on economic growth is not only reflected in the direct promotion of investment and employment to

economic growth, but more importantly, through the roundabout process of production, it serves technological innovation and efficiency changes in other industrial sectors of the national economy, thereby indirectly promote economic growth.

The reason why the technology service industry can become a key industry that affects technological innovation and economic growth is closely related to the new characteristics of technological innovation. Different from traditional innovation, the new features of innovation activities are the complexity of the innovation environment, the synergy of innovation behavior, the socialization of innovation subjects and the platformization of innovation carriers.

As far as the industry level is concerned, the development level of the technology service industry on both sides of the international technology trade is the specific industry carrier of knowledge spillover and technology absorptive capacity. Therefore, the science and technology service industry is conducive to accelerating the accumulation of R&D human capital, enhancing technology spillovers and “learning by doing” in technological innovation activities, and then promoting original innovation, integrated innovation, and introduction, digestion, absorption, and re-innovation. Based on this, this paper proposes the following assumptions:

Accelerating the transformation of economic growth mode and promoting industrial transformation and upgrading has always been an important goal of macroeconomic policies. However, one of the important reasons for the slow industrial transformation and upgrading for a long time is that science and technology have not played a sufficient role in promoting the upgrading of industrial structure, especially as technology and knowledge are important. The supporting role of the carrier's science and technology service industry on the industry and the economy is not obvious. Under the trend of integrating science and technology into the service economy, the technology service industry is an important link for the transformation of traditional industries to advanced manufacturing and modern service industries (Zhong Xiaoping, 2014). The driving force for the transformation and upgrading of the main body of the enterprise, and the promotion of rationalization and upgrading

of the industrial structure will be the necessary conditions for promoting the transformation and upgrading of the industry in the future.

The role of the technology service industry in promoting industrial transformation and upgrading is to introduce technology into agriculture and traditional manufacturing through technology transfer services, realize the integrated development of traditional industries and modern technology, sharing economy, and service economy, and promote the transformation and development of traditional industries; 2 It is to promote advanced manufacturing and service industries to advance to higher-end fields through R&D services, continuously optimize the factor endowment structure of the middle market, and stimulate the vitality of innovation and entrepreneurship in the whole society, thereby continuously promoting the quality and upgrading of emerging industries. Based on the above analysis, this paper proposes the following assumptions:

According to our research results we offer following future policy formulation:

First, change the traditional industrialization development thinking and develop a new technology service ecosystem. In the face of changes in the competitive scenario of the new generation of technology and industrial revolution, forward-looking layout of new infrastructure represented by 5G, artificial intelligence, industrial Internet, and Internet of Things should also focus on the development of soft infrastructure centered on technological services. important meaning. Innovate and develop technology intermediary service agencies, build a closer production-university-research model, promote the effective connection between the innovation chain and the industrial chain, break through the "no-man's land" of basic research in the field of core technologies, make up for the shortcomings of core technologies, and grasp the core technologies as a whole In our own hands, we will open up the entire chain and process of the industrialization of science and technology.

Second, build a multi-level scientific and technological service system and develop a new innovative organizational model. Build a multi-level technology service industry system, focus on strengthening the four core service formats of research and development services, technology transfer services, business incubation

services and technology financial services, and form an organic soil to support innovation and entrepreneurship. Strengthen the leading role of research and development services in technological innovation, provide support for private capital to enter the research and development field, encourage the whole society to invest in research and development, especially support private capital in the field of basic research.

Third, strengthen the international technology introduction model of science and technology service interaction, and integrate it into the global unified science and technology innovation service system. Change the traditional international technology import model based solely on the introduction of hardware technology and technology contracts, and turn to the interactive technology import model with the intervention of domestic third-party scientific and technological service agencies, and continuously increase the investment in the digestion and absorption of imported technologies. It is not only conducive to improving the efficiency and success rate of international technology introduction, but also conducive to the establishment of a long-term mechanism for international technical cooperation, and to promote the real transformation of international technical knowledge into the accumulation of domestic technical knowledge. Relying on the global technology transfer market system, promote the integration of scientific and technological service institutions into the global unified scientific and technological innovation service system as soon as possible, and build a symbiotic and win-win industrial community with a shared future.

Fourth, to innovate the system and mechanism for the development of science and technology services, we should focus on strengthening the construction of the talent echelon for science and technology services. Focus on strengthening the echelon construction of various types of talents in science and technology, gather high-end R&D talents with innovation and service highlands, cultivate scientific and technological talents with standardized teachers, and standardize scientific and technological market management talents with vocational education, forming a multi-level scientific and technological service talent echelon. Relax the introduction of

R&D and innovative talents, reduce restrictions on the regional flow of scientific and technological talents, strengthen the incentive mechanism for scientific and technological R&D talents, encourage R&D personnel within the system to participate in enterprise R&D work, and promote the orderly flow of scientific and technological R&D talents between regions and inside and outside the system.

References:

1. Asikainen, A.Innovation modes and strategies in knowledge intensive business services [J]. Service Business, Vol. 9, No. 1, 2015.

2. Brenner T. Capasso, M., Duschl, M. Frenken, K. and Treibich T. Causal relations between knowledge －intensive business services and regional employment growth [J]. Regional Studies, Vol. 52, No. 2, 2017.

3. D’Antone, S. and Santos, J. B, When purchasing professional services supports innovation [J]. Industrial Marketing Management, Vol. 58, N. 5, 2016

.

4. Pina K. and Tether B.S. Towards understanding variety in knowledge intensive business services by distinguis- hing their knowledge bases [J]. Industrial Marketing Management, Vol. 58, No. 5, 2016

ИЖТИМОИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ «АРҒИМЧОҚ» МОДЕЛИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Kim Sun Suk

УзМУ мустақил изланувчиси


Жаҳон амалиётида XX асрнинг 80 йилларидан бошлаб ижтимоий тадбиркорлик соҳаси мамлакат миллий иқтисодиётининг янги, яъни тўртинчи соҳасида ривожланиб келаяпти. Сўнгги йилларда нафақат мамлакатлар миқёсида, балки глобал даражада ижтимоий муаммоларнинг кенг тарқалиб бораётганлиги сабабли ижтимоий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга ҳар қандай мамлакат амалиётида зарурият кучайди. Натижада иқтисодий адабиётда ижтимоий тадбиркорликни ривожлантиришнинг жаҳон амалиётини қиёсий таққослаш асосида уни ривожлантиришнинг турли моделларини аниқлашга қаратилган илмий тадқиқотларга устуворлик қаратилди.

Жумладан, Бирмингем, Кембридж, Делфт технологиялар университетлари каби жаҳондаги етакчи олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари ҳам айнан ижтимоий тадбиркорлик соҳасида кўп сони илмий изланишлар олиб бормоқдалар. Ушбу олий таълим муассасалари базасида ижтимоий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш моделллари ва уни амалиётга жорий этишга қаратилган тадқиқотлар М. Ниссенс, П. Трейси, Дж. Мейра, Дж. Дефорни, Б.Р. Смит, Р. Спир, Т. Куни, Д. Уестли, Дж. Фергюссон, Ч. Триведи каби олимлар томонидан амалга оширилмоқда[1;2].

Ижтимоий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг назарий асослари бевосита тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ бўлганлигини инобатга олган ҳолда, биринчи галда «тадбиркорлик» иқтисодий категориясининг мазмунига эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Иқтисодий адабиётга илк бор «тадбиркорлик» атамаси XVII асрда британ иқтисодчи олими Р. Кантильон томонидан киритилган бўлиб, унинг фикрича «тадбиркорлик – бу маълум бир рискли ҳолатлар амал қилиши

шароитида мустақил қарорлар қабул қилиш орқали ўз даромадини кўпайтиришга қаратилган хўжалик юритиш шакли ҳисобланади». Олим тадбиркорлик фаолиятининг моҳиятини тушунтиришда турли рискли ҳолатлар сабабли тадбиркорларнинг даромад олиш ёки тегишли бўлган миқдордаги зарар кўришлари мумкинлигига эътиборни қаратади.

Иқтисодий адабиётда ижтимоий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг Джеффри Тиммонс томонидан ишлаб чиқилган «Арғимчоқ» модели ўзига хос аҳамият касб этади. Ушбу модел ижтимоий тадбиркорлик субъектлари имкониятлари билан уларнинг мавжуд ресурслари, жумладан, ҳамкорлари ўртасидаги ўзаро мутаносибликка асосланганлиги билан характерланади[3]. Бунда ижтимоий тадбиркорлик субъектлари фаолияти уларнинг мавжуд ресурслари ва ҳамкорлари имкониятлари билан ўзаро мос ҳолда таъминланиши асосида ушбу соҳани ривожлантириш самарадорлиги ортиб бориши илмий жиҳатдан исботланган. Бунда ҳар уччала кўрсаткичнинг бири бошқасига нисбатан мос бўлмаса, у ҳолда ижтимоий тадбиркорлик субъектлари фаолияти омадсизликка юз тутиши мумкинлиги таъкидлаб ўтилган.



1-расм. Ижтимоий тадбиркорликни ривожлантириш бўйича Дж. Тиммоснинг «Арғимчоқ» модели[4]

Дж. Тиммоснинг «арғимчоқ» моделининг таркибий тузилиши ижтимоий тадбиркорлик субъектларининг ички ва ташқи ривожланиш имкониятларини ўзаро мувозанатини таъминлашга асосланилганлиги 1-расмда келтирилган

чизма орқали яққол намоён бўлиб турибди. Ушбу моделнинг ижлюий тарафлари билан биргаликда, ўзига хос камчиликлари ҳам мавжуд ҳисобланади. Ушбу моделнинг катта камчилиги бозор иқтисодиёти шароитида ижтимоий тадбиркорлик субъектларининг бизнес соҳасидаги фаолияти натижалари умуман инобатга олинмаганлиги сабабли рақобат курашларида бу турдаги корхоналар фаолияти узоқ муддат самарали ҳисобланмайди. Бунда ижтимоий тадбиркорлик субъектларининг бошқа тадбиркорлик субъектлари сингари ўз давромдлари ҳажмини оширишга бўлган интилишлари эътиборга олинмаган.

«Арғимчоқ» модели асосида ижтимоий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини ривожлантиришда давлат томонидан мазкур соҳада фаолият юритаётган тадбиркорлик субъектларига субсидия ва дотациялар ажратиш ҳажми ортиб, давлатнинг аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш харажатлари сезиларли даражада камаймайди. Шу билан биргаликда, ушбу модел асосида мамлакатда ижтимоий тадбиркорлик ривожлантириладиган бўлса, ижтимоий тадбиркорлик субъектларининг бюджет субсидиялари ва длтацияларидан фойдаланиш ҳолатларида турли бюрократик тўсиқлар пайдо бўлиши эътимоли юқори ҳисобланади. Бу эса ўз навбатида Ўзбекистон сингари бозор иқтисодиёти шаклланаётган ва ривожланаётган мамлакатлар амалиётида кутилган натижаларга эришиш имкониятларини буткул чеклаб қўйиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Беспалый С.В. Развитие социального предпринимательства в Казахстане: Анализ и факторы. Business and Administration: Problems and Solutions. Vol. 5, № 140. pp. 44-53;

2. Pierre, A., von Friedrichs, J. and Vincent, J. (2014). Review of Social Entrepreneurship Research: Book chapter. Social Entrepreneurship. International Entrepreneurship Studies, 29. pp. 43-69

3. Жохова В.В. Социальное предпринимательство: сущность и понятие // Известия ДВГУ. Экономика и управление. 2015. № 1. С. 87-88

4. Timmons, J. Spinelli, S. New Venture Creations: Entrepreneurship fir the 21st Century. N.Y.: McGray-Hill / Irwin, 2007. 588 p.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ТАСВИРИЙ ФАОЛИЯТ МАШҒУЛОТЛАРИГА ҚИЗИҚИШЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Сулайманова Камола Шосаид қизи

Боёвут тумани Навбаҳор маҳалласи 32- боғчанинг тайёрлов гуруҳи тарбиячиси

Аннотатция : Мақолада ҳозирги замон педагогик ва психологик тадқиқотларида мактабгача таълим ёшидаги болаларни эстетик, ақлий ривожланиши учун тасвирий фаолият машғулотлари зарурлиги ёритилган.

Калит сўзи: бадиий-эстетик, эмоционал-эстетик, Тасвирий фаолият, Аппликация, синтез.

Мактабгача таълимнинг мақсади болаларни мактаб таълимига тайёрлаш, болани соғлом, ривожланган, мустақил шахс сифатида шакллантириш, ижодий қобилиятларини очиб бериш, ўқишга, тизимли таълимга тайёргарлигини таъминлаш ва бу жараёнга бўлган иштиёқни тарбиялашдан иборат. Мактабгача таълим муассасаларининг бирламчи йўналиши мактабгача ёшдаги болаларни бадиий-эстетик тарбиялаш ҳисобланади. Бу йўналишнинг самараси эстетик йўналишнинг барча воситаларини (театр, мусиқа, бадиий адабиёт, расм чизиш, аппликация) комплекс тарзда қўлланилгандагина аниқ бўлади. Мактабгача таълим масканларида ўтиладиган Тасвирий фаолият машғулотлари болаларга бериладиган эстетик тарбия масалаларини ечишда катта аҳамиятга эга. Чунки тасвирий фаолият ўз хусусиятига кўра бадиий фаолият ҳисобланади. Бадиий фаолият машғулотларининг барча турлари қатори аппликация тури ҳам болаларда гўзалликни билиш учун, борлиққа эмоционал-эстетик муносабатни ривожлантириш учун кенг имкониятларни очиб беради. Мактабгача ёшдаги болалар шуғулланадиган бадиий фаолиятнинг ҳар бир тури ҳам умумий эстетик таъсирдан ташқари ўзининг махсус таъсир кучига эга. Мактабгача таълим муассасаларида ўтиладиган «Тасвирий фаолият» ўз таркибига кўра қуйидаги

машғулот турларидан иборат: «Расм чизиш», «Пластилин(лой) билан ишлаш», «Аппликация» 607 ҳамда «Қуриш-ясаш» машғулотлари. Буларнинг ҳар бири болалар тасаввурларида атроф-оламнинг акс эттириш имконини беради. Асосий мақсадлардан яна бири замонавий тасвирий фаолият орқали болалардаги қобилият ҳамда имкониятларни аниқлаб, уларни тўғри шакллантириш ва юзага чиқаришдир. Тасвирий фаолиятнинг ўзига хос мураккабликларини тушуниб, унинг нозик қирраларини мактабгача ёшдаги болаларга улашиш маҳоратига эга бўла оладиган тарбиячиларни етиштириб чиқариш вазифаси турибди. Мактабгача таълим муассасаларида тасвирий фаолият воситасида болаларнинг эстетик қобилиятларини шакллантиришда тарбиячининг ўрни беқиёс. У чуқур билим ва юқори малакага эга бўлиши, бунинг учун мунтаззам равишда ўз устида ишлаши, ўзининг илмий назарий савиясини тинимсиз кўтариши, илғор тажрибаларга таяниши керак. Тасвирий фаолият бўйича мактабгача таълим муассасаси дастури ва мактабда тасвирий санъат дастури болаларда теварак-атрофга нисбатан эстетик муносабатни тарбиялаш, ижодий қобилият ва бадиий тасвирларни ривожлантиришни кўзда тутади. Мактабгача таълим муассасаси машғулотларида, мактабда муваффақиятли ўқиб кетишлари учун зарур бўлган вазифалар ҳал этилади. Расм, аппликация, лой ишлари жараёнида болаларда фикр юритишнинг таҳлил, синтез, такрорлаш, аниқлаштириш каби жиҳатлари шаклланади. Шунингдек, бу жараёнларда болалар жамоада ишлашга, ўз ҳаракатини ўртоқларининг ҳаракатига бўйсиндиришга ўрганадилар. Болалар боғчасида тасвирий фаолият машғулотлари болаларда, ўқув фаолиятида зарур бўлган қизиқишлар, малака ва кўникмаларни шакллантиради. Қизиқишнинг шаклланиши нафақат тасвирий фаолиятнинг хусусиятига, балки болалар ўртасидаги ижобий муносабатларнинг ривожланишига ҳам таъсир қилади. Қизиқарли, маълумот берувчи иш, жамоавий композицияларни яратиш уларни умумий ёркин тажрибалар билан бирлаштиради, натижада болалар янада тартибли, дўстона, бир-бирига эътиборли бўлиб қолишади, тенгдошларининг ютуқларидан хурсанд бўлишади ва уларга ўз ташаббуси билан ёрдам беришади. Тасвирий фаолият болаларда

ривожланаётган ижобий муносабатлар унга қизиқишни ривожлантириш учун муҳим рағбатдир. Ўз навбатида, юқори мактабгача ёшдаги болаларда ушбу фаолиятга қизиқишни шакллантириш болалар ўртасида ўзаро тушунишни, ижобий муносабатларни ўрнатишга ёрдам беради, чунки болалар уларнинг ҳар бирининг натижаларини кўришади. Ҳозирги замон педагогик ва психологик тадқиқотларида мактабгача таълим ёшидаги болаларни эстетик, ақлий ривожланиши учун тасвирий фаолият машғулотлари зарурлиги исботланмоқда. Нафақат тасвирий фаолият машғулотлари, балки тасвирий санъатнинг аппликация турлари ҳам зарур. Чунки тасвирий фаолият машғулотларида бажариладиган аппликация ишлари бугунги кунда ўта долзарб машғулотлардан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ҳасанбоева О.У. ва бошқалар. Мактабгача таълим педагогикаси. Т.: «Илм зиё». 2006.

2. Блащук Любовь Антоновна Формирование интереса к изобразительной деятельности у детей 5-7 лет на занятиях в детском саду. Автореферат Москва – 1985 г

3. Амирова. Г.А., Сулаймонов А.П., Джураева Б .Р. Мактабгача таълим муассасаларда аппликация машғулотлари. Т., 2014.

XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISHDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Xudoyarov Lochinbek Baxramovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, tadqiqotchi

Annotatsiya: Fan-texnika inqilobi ishlab chiqarish kuchlarining sifat tarkibining o‘zgarishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning moddiy-texnika bazasini tubdan yangilanib, takomillashishiga olib keldi. Shu sababli, ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishda resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlari tahlil etilgan hamda tegishli xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, resurs, fan texnika taraqqiyoti, axborot texnologiyalari, ishchi kuchi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ko‘p jihatdan belgilab beradi, yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi bo‘yicha sanoat va qishloq xo‘jaligini ortda qoldiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ish bilan bandlarning ulushi bo‘yicha yetakchilik qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasini respublikamiz iqtisodiyotida yetakchi o‘rin egallayotganligini e’tiborga olib, bugungi kunda ushbu sohani rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi “2022−2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 34-maqsadi hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish” belgilangan [1].

Zamonaviy sharoitlarda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu elektron xizmatlarning yangi bozorlarini shakllantirishga va an’anaviylarini modernizatsiya qilishga hamda jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida axborot texnologiyalarini integratsiyalanishiga olib keldi.

Axborot, ma’lumot va bilimlarni yaratish va tarqatish bilan bog‘liq elektron xizmatlar, bu axborotning iste’mol xususiyatlarini va xizmat sifati tushunchasini integratsiya qilish zarurligiga olib keladi. Shu bilan birga, an’anaviy xizmat turlarini raqamlashtirish, funksionallik va xavfsizlik xususiyatlarini yaxshilashga ta’sir qiladi.

Mahsulot va xizmatlarning an’anaviy xususiyatlari va yangi "raqamli" iste’mol xususiyatlari o‘rtasidagi aloqalarning murakkab tuzilishi shakllanmoqda.

Bu esa mavjud yondashuvlarni sifatni boshqarish va elektron xizmat ko‘rsatuvchilarning sifati uchun javobgarlikni davlat tomonidan tartibga solishga moslashtirishni murakkablashtiradi.

Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyasi va bosqichlari asosan xom ashyo va industrial iqtisodiyotdan zamonaviy xizmat ko‘rsatish sohalari va tarmoqlari iqtisodiyotiga o‘tishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda muhim e’tibor intellektual resurslar va inson kapitalidan foydalanishda fan-texnika va axborotlar texnologiyalari sig‘imi yuqori bo‘lgan sohalar va tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgandir. Ijtimoiy taraqqiyotdagi bu holat iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan xizmat ko‘rsatish sohasini keng ko‘lamda rivojlanishini zarurat etmoqda.

Bugungi kunda respublikada xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarini muntazam ravishda barqaror rivojlanishi, ularning xo‘jalik faoliyati intensivligini ta’minlashning muhim omili hisoblangan iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining kengayib borishi bilan mehnat jarayonida amalga oshadigan faoliyat samaradorligini baholash masalalari tadqiqotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bizning tadqiqotimizda ham ushbu muammoga e’tibormizni qaratamiz. Shuning uchun dastlabki tadqiqot jarayonda «samaradorlik», «iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi» kategoriyalariga va ularning mohiyatiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Xizmat ko‘rsatish faoliyati turli xil ko‘rinish va yunalishlarda xizmat ko‘rsatish natijasida iste’molchilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini kondirishga

yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu faoliyat pirovard natijalarga erishishda iste’molchilarning bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyatining turli sohalarida resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish usullari bir-biridan farq qilib, ko‘p hollarda xizmat ko‘rsatish korxonalarining katta-kichikligiga hamda qanday darajadagi makroiqtisodiy shart-sharoitlar mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qodirligiga bog‘liqdir.

Ko‘pincha iqtisodiy adabiyotlarda yirik xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurslardan samarali foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu vaqtda sohada faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarga yetarlicha ahamiyat berilmagan.

Ko‘pchilik iqtisodchi olimlar tasdiqlaydilarki, biznes-strategiyaga muvofiq holda mehnatni tashkil etishning o‘zaro bog‘liq amaliyoti turli xil va noyob aloqalarining rivojlanishiga xizmat ko‘rsatish korxonalarining qodirligi uning barqaror raqobat ustunligini ta’minlovchi manba hisoblanadi [3].

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida resurslardan samarali foydalanish strategik rivojlanishning hozirgi bosqichida barcha korxonalarning muvoffaqiyati uchun muhim hayotiy zarurat hisoblanadi. Ayniqsa, bu mamlakat iqtisodiyotida jiddiy ulushga ega bo‘lgan kichik tadbirkorlik faoliyatiga tegishlidir.

Resurslarni jalb qilish, motivatsiyalash va ushlab turishi uchun kichik firmalar korxonaning unumdorligi bilan bog‘liq raqobatbardosh ish haqi va muvofiq mukofotlash tizimini taklif etadi va odatda ular personalni boshqarishning norasmiy amaliyotidan foydalanishni tanlaydi. Shuning uchun tadbirkorlik subyektlari faoliyatini samarali shakllanishini ta’minlash uchun ikki asosiy shart-sharoitga, ya’ni mehnatni tashkil etishning tashkiliy tarkibini optimal shakllantirish va personalni boshqarish tizimini takomillashtirishga rioya qilishi zarur. Jahon amaliyotida xizmat ko‘rsatish korxonalari shakllanishi uchun turli xil yondashuvlardan foydalanilmoqda[4].

Resurslarni boshqarish samaradorligiga korxonada mavjud bo‘lgan resurslar, resurslar bilan ishlash usullari va tartiblarini tashqi muhit talablariga to‘liq muvofiqlashtirilgan holda erishiladi. Resurslarni boshqarish tizimining ishlash

samaradorligiga qarab, uni yangilash (qayta tashkil etish) yoki takomillashtirish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Biznesni samarali rivojlantirish uchun resurslarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarur, bu esa boshqaruv tizimining maqsadga muvofiq holda o‘zgarishi va uning yangi sifatga o‘tishi bilan erishiladi. Resurslarni boshqarish tizimining rivojlanishi – bu resurslarni boshqarish texnologiyalari, usullari va tamoyillarining sifat jihatidan o‘zgarishi bo‘lib, tashkilotning boshqaruv tizimining tashqi va ichki muhitining hozirgi muammolariga javobidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar PF-60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz.

2. Пардаев М.Қ., Исроилов Ж.И., Ғаппаров А.Қ. Хизмат кўрсатиш соҳасида иқтисодий таҳлилни такомиллаштириш муаммолари. Рисола. Самарқанд. «Зарафшон», 2009. - 66 б.- 4,1 б.т.

3. Бухалков М.И. Управление персоналом, Москва, ИНФРА-М, 2005 г.; Валова Т.Д. Обучение - универсальная технология управления персоналом // Справочник по управлению персоналом. - 2011. - №11. - С. 85-90; Гончаров В.В. В поисках совершенства управления: руководство для высшего управленческого персонала. – М.:МНИИПУ, 2007. – 126 с.

4. Синявец Т. Д. Теоретико-методологические основы контроллинга системы управления персоналом // Дисс. на соиск. ученой степени доктора экон. наук. – 08.00.05. – Екатеринбург, 2012. – 368 с.

MAKTABGACHA TA’LIMDA SIFATLI TA’LIM VA TARBIYA

Shodiyorova Sevara

Qashqadaryo viloyati Koson tumani 32-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muasssasida sifatli ta’lim va tarbiyaning ahamiyati misollar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Qolaversa, sifatli ta’lim va tarbiyaning yoshlar hayoti hamda kelajagiga ta’siri xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim muasssasi, ta’lim, tarbiya, yosh davri, barkamol avlod, komil inson, ijtimoiy muhit

Yurtimizda bugungi kunda ta’lim tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarni yangi hayot pog‘onasiga tayyorlashdek muhim vazifani bajaradi. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishining dastlabki bosqichi, tabiiyki, oson kechmaydi. Chunki bola faqatgina ota-onadan iborat bo‘lgan tor doiradan tashqariga chiqadi va jamoa hayotiga kirib boradi. Abdulla Avloniyning fikricha, odam tug‘ilishidan yomon xulq bilan tug‘ilmaydi. Muayyan bir sharoitda yomon tarbiya natijasida ularda yomon xulq paydo bo‘ladi va shakllanib boradi. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan amalga oshadi. Agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlansa, go‘zal xulqlarga odatlanib, voyaga yetsa, u barchaning hurmati va e’tiboriga sazovor bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, har qanday buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil, yovuz bir odam bo‘lib yetishadi. Shu bois ham bolaning ilk davridan boshlab, uni qamrab olgan muhitga e’tiborli bo‘lish darkordir. Ayniqsa, bolaning tarbiyasida maktabgacha ta’limning o‘rni nihoyatda kattadir.

Tadqiqotchi N.Abdullayevaning maktabgacha ta’limni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishga bag‘ishlangan dissertatsiyasida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish uchun o‘quv dasturlarda bolaning yoshi, psixologik va intellectual jihatlarni inobatga olish, ta’limni individuallashtirish va differensiyalashga

asoslangan texnalogiyalardan ta’lim-tarbiya jarayonida yetarli darajada foydalanish, bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodik ta’limotini ishlab chiqish va amalda joriy etish zaruriyatini asoslab bergan.

Maktabgacha davr – bu bolaning o‘sib, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir.

Bugungi kunda bizning 32-DMTTda sifatli ta’lim va tarbiyani kengroq va samaraliroq tashkil etish maqsadida oila, mahalla va yondosh maktablar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari har haftada mahoratli tarbiyachilarimiz tomonidan ochiq mashg‘ulotlar tashkil etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad bolajonlarni yangillikka intilishga va yangilik yaratishga bo‘lgan iqtidorlarini shakllantirishdir. Mazkur yilning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” deb nomlanishi bejiz emas. Sifatli ta’lim va tarbiya birinchi bo‘lib shakllanadigan maskan maktabgacha ta’lim tashkiloti hisoblangani bois hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotiga bola qamrovini oshirish bo‘yicha juda ko‘p amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotida qamrab olingan bolalarga, ya’ni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan o‘gil-qizlarga puxta bilim berish va komil inson sifatida tarbiyalashni maqsad qilingan. Chunki, bir tomondan, bola 7 yoshida boshlang‘ich sinfga borganda 3 yoshdan 7 yoshgacha egallashi kerak bo‘lgan bilimni egallamagan bo‘lsa, tengdoshlariga yetib olishi qiyinlashadi. Ikkinchi tomondan esa bolalarning eng zo‘r qabul qilish xotirasi mana shu davrga to‘g‘ri kelgani bois, ushbu davrni zoye qilgan bo‘lishadi hamda ta’lim olishda tengqurlariga qaraganda anchayin ortda qolib ketishadi.

Shuning uchun ham barcha hududlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilib, qamrab olinmagan bolajonlar qamravi ko‘paytirilmoqda. Shundan kelib chiqib, bizning ushbu maskanimizda ham hozirgi kunda 186 nafar bolalarga malakali tarbiyachilar tomonidan sifatli ta’lim va tarbiya berib kelishyapti.




Ta’lim va tarbiyaga ozgina kechikish, ertaga ko‘plab muammolarni keltirib chiqarishi aniq. Shuning uchun ham bolalarni yoshligidan tarbiyalash barkamol avlodni yetishtirishda asosiy omillardan biri bo‘lishi, shubhasiz. Zero, vatanimiz kelajagi yoshlar qo‘lidadir. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotida sifatli ta’lim va tarbiya muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: SHarq, 1997.

2. R.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. -T.: O‘qituvchi, 2001.

3. P.Yusupova. Maktabgacha pedagogika. -T.: O‘qituvchi, 1993

MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI O‘QITUVCHILARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY TAYYORLASH TIZIMI

Xasanova Gulnoza Ilxom qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi.

Annotatsiya: oliy ta’lim tizimi doirasida barkamol shaxs va malakali mutaxasislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyat taraqqiyotini taminlovchi strategik maqsad sifatida belgilangan.Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarini integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash tizimi xaqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya , pedagog, kadrlarni tayyorlash, zamonaviy talab, strategik maqsad, mutaxasis, tiklash, to‘ldirish, ta’lim mazmunining yaxlitligi, fanlararo aloqalarni, ta’lim dasturlari.

Abstract: within the framework of the higher education system, educating competent individuals and qualified specialists is a strategic goal that ensures the development of society. This article talks about the system of professional training of preschool teachers based on an integrative approach.

Key words: Integration, pedagogue, personnel training, modern demand, strategic goal, specialist, restoration, filling, integrity of educational content, interdisciplinary relations, educational programs.

Аннотация: в рамках системы высшего образования подготовка компетентных личностей и квалифицированных специалистов является стратегической целью, обеспечивающей развитие общества В данной статье говорится о системе профессиональной подготовки педагогов дошкольного образования на основе интегративного подхода.

Ключевые слова: интеграция, педагог, подготовка кадров, современный спрос, стратегическая цель, специалист, восстановление, наполнение, целостность содержания образования, межпредметные связи, образовательные программы.

Bugungi kunda oliy ta’lim sifatini oshirishda yangi zamonaviy talablarga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim hisoblanmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish, oliy ta’lim tizimi doirasida barkamol shaxs va malakali mutaxasislarni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyat taraqqiyotini taminlovchi strategik maqsad sifatida belgilangan. Shu boisdan ham oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi zimmasiga bir qator muhim vazifalarni ijobiy xal etish, zamon talablariga to‘liq javob bera oladigan mutaxasislarni tayyorlab berish kabi ma’suliyati yuklanmoqda.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtayi nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko‘rib chiqaylik. “Integratsiya” lotincha integratio- tiklash, to‘ldirish, integer-butun so‘zlaridan kelib chiqqan. Integratsiya fanlararo va fanlararo aloqalarni, turli ta’lim dasturlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rnatish orqali ta’lim mazmunining yaxlitligiga erishish jarayoni va natijasidir. Bu so‘z mohiyatidan kelib chiqqan holda integratsiyani ikki xil jarayon sifatida anglashimiz mumkin.

-tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

-tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Fanlararo aloqadorlik asosida tanlangan muayyan o‘quv fanining mazmuni u yoki bu fanga aloqador bo‘lgan ba’zi umumiy ifodalardan iborat. Bizning davrimiz uchun fanlar integratsiyasi olamning umumiy holati haqida yanada izchilroq tasavvurga ega bo‘lish odatiy hol. Bu muammoni bir fan doirasida hal etish mumkin emas. Shuning uchun ta’lim tizimida o‘quv fanlarining birlashtirish va umumiy mazmunini yaxlit modellarda ifodalash jarayoni davom etmoqda.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarni integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash ta’lim tizimi oldiga birqancha muammolarni qo‘ymoqda. Mazkur vazifalarni yechish uchun o‘quv fanlararo aloqadorlikni taminlashning ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o‘quv fanining fanlararo aloqadorlikda mazmunini tanlash ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan so‘nggi pedagogik texnologiyalardan foydalangan

holda o‘quv fanlarining bir biri bilan o‘zaro bog‘langan tizimini shakllantirish lozim. O‘quv fanlarining o‘zaro bog‘lab o‘rganish talabalarga olamni bir butunlikda anglashga imkon beradi. Bunday kompetentga ega bo‘lgan o‘qituvchi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini integrativ holatda tashkil eta oladi va maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini tizimlarning o‘zaro bog‘langanligi haqidagi bilimlar bilan boyitadi.

Shun ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarni integrativ tarzda fikrlash imkoniyatlarini vujudga keltirish zarur. Bunday yondashish talabalar tomonidan bilimlarni izchil o‘zlashtirishga yordam beradi, ya’ni bir holatdan ikkinchi holatga ko‘chirib qo‘llash ko‘nikmasini tarkib toptiradi. O‘qituvchilarga fanlar bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini hozir o‘rganilayotgan bilimlar bilan birlashtirish fanlararo aloqadorlikni ta’minlashga yordam beradi. Integratsiya ta’limdagi muhim innovatsion hodisalardan biridir. Ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan yondashuv rivojlangan mamlakatlarda ta’lim sifatini oshiruvchi muhim vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori 2018 yil 5 iyun.

2. Erkaboeva N. Pedagogik mahorat / O‘quv qo‘llanma. – Qo‘qon: Qo‘qon DPI nashriyoti, 2020. – 143 bet.(12-bet)

3. R.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.- T ., ≪Fan va texnologiya≫, 2009, 176 bet. 43,35b

DARSLARNI TASHKIL QILISHDA QO`LLANADIGAN USULLAR

Ozoda Hasanova Alijonovna
Namangan viloyati To`raqo`rg`on tumanidagi 46-maktabning
ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi

Annotatsiya- Ushbu maqola o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kengaytiradi. Ularda ijodiy tafakkurini oshiradi. Og'zaki nutq madaniyati shakllanadi. Darslarda faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Kalit so‘zlar: DTS, guruh, ot, sifat, interfaol, "Tanishuv usuli", "Qora quti" usuli, ta‘lim,grammatik va hakazo

Yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg`usini shakllantirishda, ularda milliy iftixor tuyg`usini tarkib toptirishda ona tilining o`rni beqiyos.Ona tili fani o`qituvchilari ilg`or tajriba , fan yutuqlari bilan qurollangan bo`lishi kerak. Ona tili darslarida o`quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo`naltirish , ularning ongiga ma`naviy-ma`rifiy inqilob hosil qilishga urinish DTS da belgilaganidek davom etmoqda. DTS i belgilanganidan buyon dastur va darsliklarda Grammatik qoidalarini yodlatishdan voz kechilib, asosiy e`tiborni ijodiy tafakkurni shakllantirish, o`quvchilarning nutqiy malakasini o`stirishga qaratish maqsad qilib olindi. Ta`lim usuli , asosan, induktivdir.Shuning uchun mashg`ulotda faol ishlovchi o`quvchining o`zidir. Induktiv usulda o`quvchilarga til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish kabi talablar qo`yiladi. Bu hodisalarni bajarishda o`quvchilarning aqliy faoliyati charxlanadi va o`quv materiallarini tushunishi osonlashadi.

Shu o`rinda darslarda qo`llanadigan interfaol usullarga to`xtalib o`tmoqchimiz. Interfaol usullar o`quvchilarning mustaqil fikrlashida , darsda faol bo`lishlarida , o`tilgan mavzular bo`yicha bilimlarni chuqur va mukammal o`zlashtirib olishlarida katta samara beradi.

1.“Guruhlarga bo`lish” usuli.

Til ta`limida o`quvchilarni guruhlarga bo`lib ish olib borishning samarali ekanligi o`z isbotini topgan. Guruhlarga bo`lishni turli shakllarda amalga oshirish mumkin.

Jumladan; bir xildagi kichik qog`ozlarga mustaqil so`z turkumlarining nomlari yoziladi. So`z turkumlari o`quvchilar soniga qarab 4 yoki 5 tadan bo`lishi lozim. Bu qog`ozlar, albatta, stolga teskari holda aralashtirib qo`yiladi. O`quvchilar birin-ketin qog`ozlardan bittadan oladilar. Hamma o`quvchilar qog`ozlarni olib bo`lgandan so`ng qog`ozlardagi so`z turkumlariga qarab guruhlarga birlashadilar.

MASALAN:

“OT” guruhi “Sifat” guruhi

Lobar Javlon

Yulduz Durjamol

Avaz Azamat

Ozoda Nafisa

O`quvchilarni guruhlarga bo`lishda “Rasmni tiklash”, “Sanash ohangi”, “Ranglarni ajratish” usullaridan ham foydalanish mumkin.

2. “Tanishuv ” usuli

Bu usulni sinfga kirgan paytingizda amalga oshirishingiz samarali bo`ladi. O`quvchilarning xotirasi mustahkamlanadi, siz esa o`quvchini tez tanib olasiz, o`rganasiz.

O`qituvchi o`z ismini aytib, ismining birinchi harfi bilan boshlanadigan bitta sifatni aytadi. 1-o`quvchi o`qituvchining aytganlarini takrorlab, shu tarzda o`zining ismi va o`ziga xos xarakterini qo`shib aytadi. Usul shu tarzda davom etib, sinfda 20 nafar o`quvchi bo`lsa, 20 nafar o`quvchi o`qituvchining aytgani bilan qo`shib, 21 ta ism va sifatni birin-ketin tartibi bilan aytadi.

Bu usuldan “Sifat-so`z turkumi” mavzusini o`tishda foydalanilsa ham yaxshi natija beradi.

MASALAN:

Iroda ilmli.

Iroda ilmli, Zamira zukko.

Iroda ilmli, Zamira zukko, Xakimjon xushyor.

Madina maftunkor, Surayyo sirli, Ikrom ishchan, Akmal aqlli,

Gavhar go`zal, Bahodir botir, Kamola kamtar, Ergash epchil.

3. “Qora quti ” usuli

Bu usuldan ko`proq adabiyot va ona tili darslarida qo`llash mumkin.

“Qora quti ” usulida bir o`quvchi chiqib, o`tilayotgan mavzuga doir biror atamani yozuv taxtasiga yozadi. Ikkinchi o`quvchidan mana shu atamaga doir ma`lumot so`raladi. 2-o`quvchi yozilgan atamani to`g`ri izohlay olsa, 1-o`quvchi joyiga o`tiradi., 2-o`quvchi yuqoridagi tartibda ishni davom ettiradi.Shu tariqa barcha ma`lumotlar “Qora quti” ga yig`iladi.

MASALAN:

1-o`quvchi: Atoqli ot.

2-o`quvchi: Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo`yilgan nomlar.

2-o`quvchi: Mavhum ot

3-o`quvchi: Sezgi a`zolarimiz orqali idrok qilinadigan narsalarni bildiradigan otlar.

Bu usullar o`quvchilarning fikrlashga, izlanishga va maqsad sari olg`a qadam tashlashga o`rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nargiza Erkaboyeva Ona tili 1 - qism. Toshkent. 2021

2. Ona tili darsligi 5 sinf. Toshkent 2022

BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA QO‘SHIQLARNING AHAMIYATI

Shahlo Jumayeva

Qashqadaryo viloyati Koson tumani 32-DMTTning Ingliz tili o‘qituvchisi

Barchaga ayonki, bugungi sifatli ta’lim davrida xorijiy tillarni o‘rganishga va o‘rgatishga bo‘lgan sa’y - harakatlar jadallashib bormoqda. “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori va ushbu qaror ijrosini taminlash borasidagi ishlar sifatida umum ta‘lim maktablarining birinchi sinflarida, qolaversa, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ham ingliz tili mashg‘ulotlarining uzluksiz o‘qitilishi bunga isbotdir. Tilni o‘rganish, o‘zlashtirish insonning yosh davrlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham bolaning yoshligidan unga chet tillarini, xususan, ingliz tilini o‘rgatish yaxshi samara beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ingliz tiliga o‘rgatishning asosiy maqsadlariga quyidagiularni keltirish o‘rinli:

1) bolalarda ingliz tilida boshlang‘ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;

2) o‘z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun ingliz tilidan foydalanish qobiliyati;

3) chet tillarini yanada o‘rganishga ijobiy munosabat yaratish;

4) boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni uyg‘otish.

Metodika to‘g‘ridan-tog‘ri ta’lim tadbirlarini o‘tkazish bolalarning til qobiliyatlari tuzilishining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi va ularning rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Chet tilida muloqot motivatsiya va yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli qo‘shiqdir. Qishloq joylardagi boshlang‘ich maktab yoshgacha bo‘lgan bolalar odatda ingliz tili muhitidan ancha uzoq bo‘lgan sharoitda o‘sishadi va bolalarning fikrlashi mavhum shaklda qolaveradi. Bolalarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni

doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi. Shuning uchun, bog‘cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o‘qituvchilari o‘qitishda qo‘shiqdan foydalanishadi. Buning uchun qo‘shiq va she’rlarni o‘rgatishda harakatlar bilan o‘rgatish maqsadga muvofiq. Qo‘shiq va she‘rlarni o‘rgatishda harakatlar jo‘rligida o‘rgatish bolalarning so‘zlarni harakatlar bilan mantiqiy bog‘lay olishiga yordam berib, yodlash qobiliyatlarini osonlashtiradi. Qo‘shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo‘lgan so‘zlarni musiqaga solib kuyash ham maroqli, ham zavqli bo‘ladi. Jumladan, quyidagi “Finger family” (Barmoq oila) qo‘shig‘ining matni juda sodda, takroriy so‘zlarga boy va bolalarning kuylashi uchun qulaydir:

Daddy finger, Daddy finger
Where are you?
Here I am, here I am
How do you do?

Daddy finger, Daddy finger
What do you do?
Play guitar, play guitar
That's what I do

Mommy finger, Mommy finger
Where are you?
Here I am, here I am
How do you do?

Mommy finger, Mommy finger
What do you do?
Exercise, exercise
That's what I do

Brother finger, brother finger
Where are you?
Here I am, here I am
How do you do?

Brother finger, brother finger
What do you do?
Building things, building things
That's what I do

Sister finger, sister finger
Where are you?
Here I am, here I am
How do you do?

Sister finger, sister finger
What do you do?
Draw and paint, draw and paint
That's what I do

Baby finger, baby finger	Baby finger, baby finger
Where are you?	What do you do?
Here I am, here I am	Play with friends, play with friends
How do you do?	That's what I do

Bunda yangi so‘zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Qo‘shiqlarning samarali usul ekanligini yana bir misol orqali dalillash mumkin. Xususan, bolalarning ingliz tili alifbosini qo‘shiq qilib o‘rganishlari shunchaki yodlashdan ko‘ra samaralidir. Qolaversa, mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning charchog‘ini yozish uchun turli jismoniy daqiqalardan foydalanganda, chet tilidagi so‘zlarni ishlatish ham tilni o‘rganishda ijobiy natija beradi. Mutafakkirlarni ta’kidlashicha: “Odam nechta tilni bilsa, shuncha olamni taniydi”. Shunday ekan bolalarga ona tili bilan bir qatorda chet tillarini qulay usullar orqali o‘rgatish ularning tilni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uni tezda o‘rganib oladi. Hazrat Navoiy ham o‘z asarlarida “Til bilgan el bilar” deb xalqni til o‘rganishga, dunyoqarashini boyitishga da’vat etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi ―2017-2021 yilllarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2707-sonli Qarori.

2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan Davlat talablari. T., 2018 yil

THE KINDS OF TABOOS AND EUPHEMISM CONTROLLING OR RULING OVER THEM

Xolbayev Xushbek Ashirbekovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Tillarni o‘qitish kafedrasi” ingliz tili fani o‘qituvchisi
xolboyevxushbek@mail.ru

Annotation: This article pays great attention to the methods of teaching as well as learning how to speak the English language politely and some kinds of taboo words as dirty expressions Several dirty words and some euphemistic terms are described widely and exactly in this article and also the teacher tries to give samples from his experience which are considered to be very important for both teachers and learners.

Key words: taboo words, dirty words, cultural, religious, food, euphemistic term, sweet words, polite, rude, cultural shock, isolated, community, relations, politeness.

The links of the communication development look like that society itself presupposes the existence of communication and the existence of the life of irreplaceable communications. People who do not want to be isolated or out of community relations try to be polite. Mostly educated persons represent as a symbol of politeness and other parents should teach their children to learn from them in every situation. In fact, people everywhere and usually tried to look for the word less negative, less awkward, to say, instead of them which were offensive, shocking and awkward. Since our early history parents have been respectful for substituting some taboos to other equivalents, the language study called it as euphemisms. Children’s skills to be able to avoid using dirty words or be able to change them to sweet ones considered as parents’ intelligence or artistic attitude towards their children’s care. As our wise ancestors cited “Qush inida ko‘rganini qiladi” The translation is “The bird

(child) can do whatever it (s/he) see at home" The child is the subject of teaching and education not only at home but also at schools, lyceums or institutions of higher education as well. While Uzbek children are showing one's intelligence or politeness in abroad, the above mentioned representers may also take into consideration. The ethnography of euphemisms are poorly explored in Uzbek and other languages therefore there is no clear idea of what area of linguistics it is, its level of language, its language unit, its speech phenomenon, its subject matter, its visual object. In this report I am going to describe kinds of taboos and euphemism. The vital problem is to understand or to be aware of taboos and then try not to use them not only in public places but also in one's speech. Students should know types of taboos to follow the direction given above. In this report taboos are divided into three main types such as: cultural taboos, religious taboos and food taboos. Every student must be aware of the examples of them and of course meaning or etymology of taboos.

The term taboo is of Polynesian origin (the words "tabu" or "tapu" in the Tongan language) and was introduced to the English language only in the eighteenth century. The original Polynesian term has a specific religious association—see also the famous book Totem and Taboo (Sigmund Freud 1955). 2 According to Encyclopedia Britannica, taboo is defined as "the prohibition of an action based on the belief that such behavior is either too sacred and consecrated or too dangerous and accursed for ordinary individuals to undertake." Mostly taboos are specific term for fulfilling high ranked people's wish. Time to time they serve as special way or direction for society to follow on. In the history of humanity while having no written rules some taboos can be changed or demand to be obeyed without hesitation.

A taboo is an implicit prohibition on something (usually against an utterance or behavior) based on a cultural sense that it is excessively repulsive or, perhaps, too sacred for ordinary people. Such prohibitions are present in virtually all societies. On a comparative basis, taboos, for example related to food items, to seem make no sense at all, as what may be declared unfit for one group by custom or religion may be perfectly acceptable to another.

According to the Polynesian : People may be born with one divine strength, but not slaves. It might affect others if they approached to it. The history of taboos is varied day by day and while serving on some rulers or chiefs disposal they classified into three groups: (According to the report by Nikita Calcutta University) Religious Taboo Cultural Taboo Food and Drink Taboo Religious taboos are one of the strict and basic samples of taboos. Nearly every religious representer has their own rules of activity. For example: According to Indian religious prohibitions, people must respect cows. Even eating their meat is also fiercely banned. Indian people walk with bare legs not to harm other living creatures on the earth. For Muslim people many activities are prohibited based on Koran. They are drinking alcohol, eating pig meat, staring at strange women. Respecting elderly is main aim and there are so many directions that Muslims must follow. Examples of Religious or Cultural Taboos. Many taboos are associated with religion or culture. Some of these tend to be specific to particular countries, including both developing countries and fully developed nations. Birth control — In some religions, such as Catholicism, it is considered taboo to use birth control medications or devices. Blood transfusions -Jehovah Witnesses are forbidden to undergo blood transfusions or use certain blood products. Eating beef Cows are recognized as sacred animals in India. The Hindu faith, which is the predominant religion in India, forbids consuming beef. Eating pork — Consuming pork is forbidden in some religions, including Judaism and Islam. Eating cold foods during pregnancy - Per traditional Chinese medicine, eating cold foods is off-limits for women who are pregnant.

Cultural Taboo from this term we are able to be aware of cultural differences among the society. To my mind of view the above mentioned idea is shaped from the smallest point of community as a family. All parents try to follow their children some directions that they made. Gathering and collaborating them continuously the cultural taboos are appeared in the world. Every country has their colorful unrepeated taboos , which lead to the term of "cultural shock" . Here is some examples : In New Zealand: Do not press the horn; In Japan: Do not give a tip; In France: Do not ask or talk about anything about money;

Food and Drink Taboo Many food taboos and other prohibitions forbid a specific animal's meat, including mammals, rodents, reptiles, amphibians, fish, mollusks, crustaceans and insects, which may be associated with a reaction to disgust. During certain religious occasions (e.g., Lent), at certain stages of life (e.g., pregnancy), or for certain groups of people (e.g., priests), certain food might be forbidden, even though food is otherwise allowed. On a comparative basis, within the same culture or through various cultures, what may be declared unfit for one category may be perfectly appropriate to another. Currently, food taboos usually appear to Food taboos generally seem to be meant, spiritually or physically, to protect the human being from harm, but there are several other explanations given for their presence within cultures. In several, including those who are seen as religious or spiritual in nature, an ecological or medical history is evident. Food taboos can help to make more productive use of a resource, but when applied to only a resource A food taboo accepted as part of their way by a specific community or tribe allows the group's solidarity, helps that particular group to stand out and preserve its identity in the face of others, and thus provides a sense of belonging. Teachers should teach them to be careful in using like these words in their speech while talking English and American speaking people in order not to come across to the inconvenient situations.

In UK Do not ask the income or salary of others; In fact, many intelligent or polite people try to avoid making conversation about one's salary or income. Sometimes questions like these can hear in the street as an ordinary way. For making a long and farewell communications with others never ask about their earning life status, if it is British people, it must be always out of topic. Especially, students targeting to become an interpreter want to have a nice conversation with foreigners. In this case being awareness of cultural rules may help them.

It considered bad luck for a building to have a 13th floor in the United States Education should not be limited only one network it must extend its branches to other areas of life. As our president cited "Our candidates should be competitive around the world with their opponents" Abovementioned idea is useful for builders or others specialists in this network. Even the best communication symbols of non –

verbal have some differences and not knowing them can lead to inconvenient situations as well.

For instance: America: Peace. It also used to mean “V for Victory.” China, Japan, South Korea, Taiwan, Thailand: Cute pose when being photographed. United Kingdom, South Africa, Australia, New Zealand, Ireland: It is an insult when the same gesture is made except with the back of the hand facing outward. For Arab people to say the names of their wives in front of a stranger. In this context, she (idem) explains: In addition, Edward and Guth further maintain that when they are linked to honor and honor, those neutral terms become taboo as we can see themselves. In order to further clarify this notion, they add that: the gaze of both women and sacred places is forbidden to outsiders and both are assumed to require strong male security, while they are a sign of collective and public identification in different places, women are more private property and are identified with the social identity of men.(3)

List of used literature:

1. A Comparative Study of English Taboos and Euphemisms YANG HUA* Department of Foreign Languages, Sichuan University of Science and Engineering, Zi Gong 643000, China no. 3, 2020,

2. A SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF TABOOS AND EUPHEMISMS IN AN ARAB COMMUNITY IN IRAN Seyyed Hatam TAMIMI SA’D Urmia University & Iran Language Institute (ILI), Iran*∗ Shtamimi90@gmail.com Received 1 January 2015. Accepted 16 March 2015.

3. A Sociolinguistic View of Taboo Language and Euphemisms in the Algerian Society: Attitudes and Beliefs in Tlemcen Speech Community

Presented by Under the Supervision of Mrs. Nadia GHOUNANE Dr. Ilhem MORTAD -SERIR Academic Year 2012-2013

TOPONEGIZLAR SHAKLLANISHINING LINGVISTIK OMILLARI

Gadayev Oybek Yaxshiboyevich
SamDU tadqiqotchisi
oybekgadayev76@gmail com

Annotatsiya: Maqolada Samarqand viloyatining Ishtixon va Payariq tumanlaridagi toponegizlar shakllanishining lingvistik omillari haqida qisqacha ma’lumot berildi. Inson gapirishni boshlagandan to bugungi kungacha o‘zini boshqalardan farqlab nomlagani kabi o‘zi yashayotgan joylarni o‘zga joylarga qiyoslab atagan, mavjud lingvistik hamda ekstralingvistik sharoitlardan kelib chiqqan holda nomlaganligi tabiiy holdir. “Kishilik jamiyatining ilk davrlaridanoq inson uchun o‘zi yashayotgan hududga nom qo‘yish ehtiyojini sezgan, shu davrdan boshlab shaxsning o‘zidan tortib, istalgan har qanday obyekt o‘z nomiga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Toponim, toponegiz, topoasos, onomastika, toponimlashuv, joy nomlari, topoformant, toponimik indikator.

Toponimlar, ya’ni geografik nomlarning paydo bo‘lishi o‘ta qadim zamonlar bilan bog‘lansa-da, ular o‘z kelib chiqish tarixini, ya’ni o‘ta qadimiyligini hozirgi davrgacha saqlab qolgan. Toponimlarni yaratishda, u obyektiv borliqning qaysi va qanday uzvi (daryomi, tog‘mi, ko‘lmi) bo‘lishidan qat’i nazar, inson bir joyni boshqasidan ajratish zaruratiga asoslanib, nomlagan”[1]. Bilamizki, nomlar ehtiyoju talablarsiz o‘z-o‘zidan shakllanavermaydi. Buning uchun nomlarga insonlar va ularning jamoalari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoj va talab kerak bo‘ladi. V.Nikonov ta’kidlaganidek: “shaharlar vayron qilinmoqda, davlatlar yemirilib bormoqda, tillar va hatto, xalqlarning o‘zi yo‘qolib ketmoqda, lekin ularning joy nomlari saqlanib qolmoqda. Nozik so‘zlar granitdan ham mustahkam bo‘lib chiqqan. ...O‘tmishning ma’nodor guvohlari bo‘lgan geografik nomlar qimmatli tarixiy yodgorliklar orasida alohida davrlarning tirik aks-sadosi sifatida eng faxrli o‘rinni egallaydi”[2]. Bugungi kunda joy nomlarini ishonchli dalillar bilan ilmiy-nazariy,

ilmiy-amaliy asoslarga tayanib ommaga talqin qila bilish lozim bo‘ladi. Odatda, narsani ikkinchi bir narsadan farqlovchi belgilarni topish bu – nomlash ehtiyoji sanaladi. Bir narsani ikkinchi bir narsadan ajratib turish esa ularning yashashi uchun hayotiy talab hisoblanadi. Har bir narsaning nomining so‘z(lar) qa’rida yashiringan qandaydir ma’no nozikliklariga egaligini asoslab ko‘rsatish esa talqinu tahlil etishdir. Fikrimizcha, lingvistik omillarning o‘zagi bo‘lgan quyidagilar: 1) fonetik omillar; 2) leksik omillar; 3) leksik-semantik omillar; 4) grammatik omillar. Ularni quyiroqda kuzatamiz: Toponimlarning fonetik xususiyatlarini o‘rganayotganda ularning tovush tarkibi, tovushlarning turi, bo‘g‘in tuzilishi, toponimik nom tarkibidagi undoshlarning jarangli-jarangsizligi hamda urg‘usiga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi A.Ishayev tomonidan aytib o‘tilgan[3]. Agar tahlil qilish uchun tanlangan toponimlar qanchalik tarixiy bo‘lsa, ularni tashkil qilib turgan so‘z, bo‘g‘in va nutq tovushlari ham ma’lum ma’noda miqdor hamda sifat o‘zgarishlariga uchragan bo‘ladi. Bunday holatlar toponimlarning aytilishida va yozib olinishi jarayonida ro‘y beradi. Shuningdek, so‘z bilan so‘zni semantik va sintaktik munosabatga kirituvchi ohang ham fonetik omillar majmui tegishli hisoblanadi. Ushbu fonetik o‘zgarishlarning jami fonetik omillar majmuiga aloqadorlik xususiyatiga egadir.

Har bir tilning nutq tovushlari kompleksida ma’no bo‘lgani kabi so‘zlarda, xususan, toponimlarda ham nutq tovushlarining majmuasi bilan bir butun holatda ma’no anglashiladi. Mana shu holat toponimlarning tahlili jarayonida qo‘llanadigan fonetik omillarda e’tiborga olinadi. Mazkur omillarda toponimni tashkil qilgan so‘zlarning qanday fonemalardan tuzilgani va ularning talaffuz jarayonida turli fonetik o‘zgarishlarga uchrashi kuzatiladi. Bunga misol qilib Ishtixon va Payariq tumanlari toponimlarining tahlilini ko‘rsatish mumkin. Demak, fonetik omil toponimlarning etimologik tadqiqida zarur bo‘ladigan omillar tarkibiga kiradi. Fonetik omillar ta’sirida yuzaga kelgan toponimlarga quyidagilarni misollar sifatida keltirib, ulardan ba’zilarini izohlashga intildik: Oxmonovul (I.t., Haqiqat MFY q.), Sortoqchi (I.t., Zarband MFY q.), So‘g‘at (I.t., Dagar Ochilov MFY q.), Soharji (I.t., Haqiqat), S’hog‘ol (I.t., Haqiqat), Janggat (I.t., Haqiqat MFY q.).

S’hog‘ol (I.t., Haqiqat MFY.q.) – toponimida ham fonetik omillardan biri bo‘lgan sh/ h undoshlarining og‘zaki nutqda almashinib qo‘llanishi o‘z ifodasini topgan.Toponim aslida Shog‘ol shaklida bo‘lishi kerak edi, ammo aholi vakillari toponimni S’hog‘ol tarzida talaffuz etib, undoshlarning o‘rin almashinishi fonetik omillarning biri ekanligini asoslamoqda. Undagi topoasosning o‘zi ham toponegizni, ham topoasosni anglatib turibdi.

Oxmonovul (I.t., Haqiqat MFY q.) – ushbu toponimdagi x undoshi kishining e’tiborini tortib turadi. Chunki x undoshi ikkinchi undosh sifatida toponimlar tarkibida ko‘p qo‘llanmaydi. Bu x undoshi sheva fonetikasiga xos xususiyatni, ya’ni ma’noni ifodalaydi. Shevashunoslikda bunday so‘zlar fonetik-leksik yoxud fonetik dialektizmlar sanaladi. X undoshining biron-bir undosh bilan almashtirib bo‘lmasligi fonetik omilning shu toponimda voqelanganini ifodalaydi. Toponimning ma’nosi, kishilarning aytishicha, Oxmon degan kishi bo‘lgan. U ulg‘ayib ovulga bosh bo‘lgan. Keyinchalik uning nomi ovuliga nom sifatida qo‘llanadigan bo‘lgan: Oxmon-ovul > Oxmon ovul > Oxmonovul. Bu yerda Oxmon nomi sheva vakillariga xos dialektal nomlardan biri deyish o‘rinliroq. Unda ikki o‘zakning birikishi natijasida qo‘shma so‘z paydo bo‘lgani (oxmon-ovul > oxmonovul) kabi ikki negizning birikishidan qo‘shma toponegiz (Oxmon-ovul > Oxmon ovul > Oxmonovul) hosil bo‘lgan.

Bizningcha, kishining ismi bo‘lgan Abdurahmonning qisqarib Axmon// Oxmon holiga kelishi sabab bo‘lgan. Bunda tarixan olib qaralganda qo‘shma so‘z negizida jiddiy qisqarish ro‘y bergan: Abdurahmon > Abduahmon > Abahmon > Ahmon > Oxmon. Bu qisqarish tovush tushish hodisasi hisoblanadi. Toponim Abdurahmonning ovuli ma’nosida nomlangan bo‘lib, hozirgi holati Oxmonovul hisoblanadi. Payariq toponimini yasalishiga e’tibor qaratsak. Tuman nomi fonetik o‘zgarish natijasida shu variantga kelgan. Payariq dastaval Samarqand viloyatidagi qadimiy ariq bo‘lgan. Qadimgi turkiy tilda boy/bay/poy/pay/moy/umay ariq - bosh ariq, ulkan anhor. Ariq nomi toponimlashuv natijasida tuman nomiga o‘tgan. Qadimiy shakli - Boyariq/Moyariq.[5] Payariq Somoniylar davrida viloyatning eng muhim ma’muriy markazlaridan biri sanalgan Ishtixon tumaniga yaqin joylashgan.

Hududdagi Chelak toponimi ham fonetik o‘zgarishlar natijasiga ko‘ra yuzaga kelgan. Ko‘pchilik toponimni chelak, ya’ni "paqir" deb tushunadi va Chelak shaklida talafuz qiladi. Aslida so‘zning chelakka hech qanday aloqasi yo‘q. Toponim forscha chalak, ya’ni "yuqori, baland" degan so‘z bilan bog‘liq bo‘lib, [6] fonetik o‘zgarish natijasida Chelak tarzida talaffuz qilinadi. Payariq tumanidagi Cho‘rash toponimi ham fonetik o‘zgarish natijasida yuzaga kelgan: Garchi Zarafshon vodiysidagi o‘zbek qipchoqlarning bir urug‘i cho‘rash deb atalgan bo‘lib, etnonim oykonimga o‘tgan bo‘lsada, qishloq axolisi Cho‘rash deb nomlanishi haqida boshqacha fikr bildirishadi. Qishloqqa 4-5 otliq mehmonlar kelganda, mahalliy aholi ularga osh tayyorlab ziyofat berishgan. «Pishirilgan osh sho‘r bo‘lgan ekan, mehmonlar ketishayotganida osh rosa sho‘r bo‘libdi, sho‘r osh yedik», - deb aytishgan ekan. Shu sababli, qishloq qariyalari yuqoridagi rivoyatga asoslanib, qishloq nomi Sho‘rosh yoki Cho‘rash bo‘lgan deyishadi. Ta’kidlash joizki, aksariyat toponimlar fonetik tuzilishi jihatidan tilimiz fonetik qurilishi qoidalariga mos kelsa-da, ammo atrofdagi yoki ta’sir doirasi kuchli bo‘lgan boshqa qardosh va noqardosh tillar ta’sir o‘tkazganligini ham ko‘rish mumkin. Lingvistik omillarning ikkinchi bir ko‘rinishi, turi bu leksik omillar sanaladi. Bu omillarga topoleksemalar, ya’ni o‘zak, qo‘shma so‘z, juft so‘zlar kiradi. Ularga yana o‘z, o‘zlashgan qatlam so‘zlari ham dahldordir. Mana shu omilda joy nomini yuzaga keltirgan lug‘aviy asoslar hamda ularning qaysi qatlamga oidligi masalasi e’tiborda turadi. Toponimlar amalda bir yoxud bir necha lug‘aviy asosdan, shu jumladan, topoformantlardan tashkil topadi. Ularning qaysi tilga oidligini asoslash leksik omilning vazifasi hisoblanadi.

Leksik omilda toponim(lar) tarkibidagi ma’nosi noma’lum ma’noli qism(lar) jiddiy tarzda e’tiborga olinadi. Toponimlar tarkibidagi ma’nosi noma’lum qismlarga: a) jiddiy o‘zgarishlarga uchragan tarixiy; b) arxaik; v) dialektal so‘zlar oiddir. Ularga quyidagilarni namuna sifatida keltirish mumkin: Payshanbiariq (I.t., Azamat MFY., ariq), Rasul kamar (I.t., Shexlar mfy uchastka), Rasulkamar (I.t., O‘rtaqishloq MFY Ulug‘qishloq hududida joylashgan dala), Qo‘lota (I.t., Zarband MFY q.),Qulchara (I.t., Chordara MFY, q.) va boshqalar.

Leksik-semantik omillar toponegizlar bilan birgalikda toponimlar etimologik tahlilining talqinlariga xos chalkashliklarning oldini ma’lum ma’noda oladi.

Misollar: Qo‘riq Bodoq (I.t., Xalqobod MFY q.), Eshmurodtepa(I.t., Xalqobod MFY q.), Yuzurug‘ (I.t., Azamat MFY q.), Olqortepa (I.t., Xazar bobo MFY q.), Oyjuvoz (I.t., Xazar bobo MFY q.).

Toponimlarning jamiyat ehtiyoju talablari asosida shakllanishini lingvistik jihatdan ishonchli dalillar bilan o‘rganish ularni ommaga talqin qilish imkoniyatini yaratadi. Bunda tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi voqea-hodisalarning yuzaga kelishi, oqibati, sababi va natijalari majmui sifatida umumlashadigan ekstralingvistik va lingvistik omillarning ta’sirini tadqiq qilish bugungi kun ilshunosligining dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турдибеков М.Т. Шимолий Тожикистон топонимларининг тарихий-лингвистик хусусиятлари: Филол фан д-ри дис. – Тошкент, 2022. -Б.31.

2. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С. 15.

3. Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 26.

4. Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati - Toshkent «Yangi asr avlodi» 2007.- B. 46.

5. Дусимов З., Егамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лугати. - Т. 1977.-Б.144.

6. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B.156.

JIZZAX VOHASI ETNIK GURUXLARI O‘RGANILISHI TARIXIDAN (QIRQLAR MISOLIDA)

Eshonqulov Umurzoq Absamat o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika instituti ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o‘zbek xalqi tarkibidagi eng katta etnik guruhlardan Qirq urug‘ining o‘rganilish tarixi, qirq atamasining kelib chiqishi, qirq urug‘ining shahobchalari, ularning geografik joylashuvi bo‘ycha mulohazlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Urug‘, qabila, aymoq, elat, el, xalq, millat, etnoganez, etnik tarix, qirqyuz, oq-qo‘yli, qora-qo‘yli, qorasirak, qoracha, olmasa-un, chaparashli, balki, jang‘g‘aa (yangi), chekli, ko‘chchekli, chuvulloq, boylar to‘pi, kavush to‘pi, Oyuv (ayiq) to‘pi, beklar to‘pi.

Annotation:This article describes the history of the study of the Qirq tribe, one of the largest ethnic groups of the Uzbek people, the origin of the term Qirq, the author's views on the origin of the Qirq tribe and its geographical location.

Keywords: Tribe, region, people, nation, ethnogenesis, ethnic history, Kirkyuz, Ok-ko‘yli, Kora-ko‘yli, Karasirak, Karacha, Olmasa-un, Chaparashli, Balki, Jangaa (new), Chekli, Kochchekli, Chuvullok, Boylar tupi, Kavush tupi, Oyuv (bear) to‘pi, Beklar tupi.

Аннотация: В данной статье описывается история изучения племени кырк, одного из крупнейших этносов узбекского народа, происхождение термина кырк, взгляды автора на происхождение племени кырк и его географическое положение.

Ключевые слова: Племя, регион, народ, нация, этногенез, этническая история, Киркюз, Ок-койли, Кора-койли, Карасирак, Карача, Олмаса-ун, Чапарашли, Балки, Джангаа (нов.), Чекли, Коччекли, Чувуллок, Бойлар тупи, Кавуш тупи, Оюв (медведь) то'пи, Беклар тупи.

O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hamdir. O‘zbekiston mustaqilligi va o‘zbek xalqining etnoma`daniy jihatdan tiklanishi sharoitida uning milliy o‘zligini anglashini kuchaytirish uchun teran tarixiy bilim va tarixiy jarayonning etnik rang-barangligida xalqning o‘z munosib o‘rnini aniq-ravshan idrok etishi katta ahamiyatga ega.[21] Mustaqilik yillarida vatanimiz tarixiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda ayniqsa xalqimizing etnik tarkibi, o‘zbek xalqi kelib chiqishi, etnoganezi, urug‘ va qabilalar tarixi, tarkibi, tuzulishi, o‘zbek urug‘lari geografik jolashuvi kabi masalalarni o‘rganishga intilish xalqimiz orasida tabora ortib bormoqda. Dunyoda hech bir millat yagona bir urug‘ yoki qabiladan tashkil topagandek o‘zbek xalqi ham bundan mustosno emas.Tarixiy manbalarda o‘zbeklar 92 yirik urug‘dan iborat ekanligi qayd etib o‘tilgan xususan XVII asrda ijod qilgan o‘zbek mumtoz adabiyoti yirik namoyondasi Turdi Farog‘iy ushbu urug‘larni birlika inoqlika chorlab shunday deydi:

Tor ko‘ngullik beklar, manman demang,
kenglik qiling,
To‘qson ikki bo‘li (qarindosh) o‘zbek yurtidur,
tenglik qiling.
Birni qipchoqu xitoyu birni yuz,
nayman demang,
Qirqu yuz, ming son bo‘lub, bir xon
oyinlik qiling[22]

Qirqlar o‘zbek xalqi tarkibidagi 92 urug‘ qabilalardan biri bo‘lib . Tarqoq holda Samarqand atrofida, Panjikent, hozirgi. G'allaorol, Jizzax, Zomin va O‘ratepa hududlarida yashaganlar. Ko‘pincha o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri — yuzlar bilan aralashgan holda yashaganlar. Shuning uchun ham ko‘pchilik manbalarda «qirqyuz» nomi bilan ham ma'lum. Qirq, yuz va ming qabilalari marqa

[21] Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 3.
[22] Elmurodov N. Zarafshon vohasi O’zbek xalqi etnik guruhlari - Smarqand 2008: B. 4.

degan umumiy nom bilan atalgan. Qirqlarning etnogenezi Dashti Qipchoq o‘zbeklari bilan bog'liq. Qirqlar o‘tmishda bir qancha urug'larga bo‘lingan. Shulardan eng yiriklari: oq-qo‘yli, qora-qo‘yli, qorasirak, qoracha, olmasa-un, chaparashli va boshqalar. Ular XX-asirning boshlariga qadar yarim o‘troq holda yashab, chorvachilik bilan, bir qismi tog' yon bag'rida, adirlarda yashab lalmikor va sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan[23]. Takidlash joyizki, ananaga ko‘ra, jangga otlangan turk-mog‘ul suvoriysi o‘z oila va urug‘ aymoqlarini birga olib yurgan. Shoyboniyxon Movarounnahrga qo‘shin tortib kelganda, uning lashkarida 92 qavm suvoriysi xizmat qilgan[24]. J Begimqulov o‘zning “O‘zbek urug‘lar o‘rganilish tarixidan (yuzlar misolida) maqolasida quydagicha ma`lumot keltiradi: “Yuz” atamasining kelib chiqishi to‘g‘risda xalq o‘rtasida keng tarqalgan rivoyatda keltirilishicha, Xitoy (Turk) podshosi G`arb tomonga qarab avval qirq nafar, keyin, yuz nafar otliq jangchilarni yuborgan ular esa bu yerga o‘troqlashib qolganlar va ularning avlodlar qirqlar va yuzlar dep atalgan[25] bugungi kunda Jizzax vohasida yashovchi yuz, qirq urug‘iga manusb odamlar orasida shunga o‘xshash rivoyatlar mavjud. Qirqlar 92 bovli o‘zbek elatiga kiruvchi urug‘ va qabilalar ichida ming va yuzdan keyingi uchinchi katta son bo‘lib, hisoblanadi. Qariyalar uni yuzning ukasi deb hisoblaydi laydilar. Aslida mingni ham, yuzni ham va qirqni ham siyosiy birlashmalar (uyushmalar) natijasida yuzaga kelgan etnik birlashmalar deb atash haqiqatga mos bo‘lsa kerak. Hozircha biz ularni «qabila» deb ataymiz. Qirq asosan Samarqand oblastining G‘allaorol va Bulung‘ur rayonlari hamda Sirdaryo oblastining Jizzax va Zomin rayonlarida, qisman Bekobod va O‘ratepa tomonlarida ham yashaydi.Qirq avvalo 6 ta katta bo‘lakka (urug‘ga) bulinadi. Bular: qoraqo‘yli, qoracha, moltop, mulkush, chaprashli va chortkesardir. Qirqning qoracha bo‘lagi G‘allaorol rayonining Uzun buloq qishlog‘ida yashovchi Xolbo‘ta boboning ma'lumotiga ko‘ra 4 ga b’linadi: balki, jang‘g‘aa (yangi), chekli, ko‘chchekli, chuvulloq. Qirqning moltop bo‘lagi ham G‘allaorol rayonining Moltop Qishlog‘ida yashovchi Sayfin boboning

[23] O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 155-b

[24] Asqarov A. O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarxi Toshkent 2007 229-b

[25] J.Begimqulovi J., Xushboqov J. O’zbek urug’larining o’rganilishi tarixidan ilmiy maqolalar toplami – Toshkent: 2016. B. 25

ma'lumotigako‘ra 4 ga bo‘linadi: boylar to‘pi, kavush to‘pi, Oyuv (ayiq) to‘pi va beklar to‘pi. Bulardan tashqari, G‘allaorol, Jizzax, Bulung‘ur rayonlarida yashovchi qirqlar orasida quya bosh, ko‘k gumboz qirq, Sug‘unboy, quyonquloqli, qoshiq buloq, to‘qcho‘ra, uch qiz, qo‘sh qavut qirq, qora chivar, uyuvli (bu qirqga kirmaydi), tangili singari etnonimlar ham uchrab turadi[26].

Vohada son jihatidan eng ko‘p bo‘lgan qabilalardan ikkinchi o‘rindagisi Qirq qabilasidir**.** Qirq qabilasi asosan Samarqand viloyatinnig Bulung‘ar, Jizzax viloyatining G‘allaorol, Jizzax, Baxmal, Zomin, Sirdaryo viloyatinnig Sardoba, Boyovut va Toshkent viloyatinnig Bekobod va Tojikiston respublikasining O‘ratepa tumanida yashaydilar[27]. M.Virskiy tadqiqotlarida qirqlar beshta bo‘g‘inga bo‘linib, ularning eng kattasi qoracha va eng kichigi kaltay bo‘g‘inlari bo‘lganligini keltiradi. Agarda qoracha bo‘g‘ini tarkibiga kiruvchi kishilar Balxi, YAngiqishloq, CHaulaq, Zambar, Zautash, Mulla Abdukarim, Zulfiqor, Uzunbuloq, SHatraqo‘tan, Avliyo qishloqlarida yashagan bo‘lsa, kaltaylar faqatgina o‘z bo‘g‘ini nomi bilan ataluvchi qishloqda istiqomat qilgan. Kaltay bo‘g‘inining umumiy soni 182 tani tashkil etgan bir vaqtda qoracha etnik guruhining jami miqdori 1799 ta bo‘lgan. SHuningdek, YAngi Qo‘rg‘on volostining Qoraqo‘yli, Gaday, Qoraqishloq, Udumali qishloqlarida yashagan qoraqo‘yli etnik guruhi tarkibiga kiruvchi kishilar ham ko‘pchilikni tashkil etib, ularning umumiy soni 1157 taga etgan. Aksincha, qirq urug‘ining lafak bo‘g‘ini aholisi miqdori boshqa bo‘g‘inlarga qaraganda kamchilikni tashkil etib, ular jami 191 kishidan iborat bo‘lgan. XX asr boshlarida ularni faqatgina Lafak qishlog‘ida uchratish mumkin bo‘lgan. Mazkur davrda 289 erkak va 216 ayoldan (jami 505 kishi) iborat bo‘lgan qirq urug‘ining chubar bo‘g‘ini CHubar va Toqli qishloqlarida istiqomat qilgan. SHu bilan birgalikda, N.Virskiy hech qanday bo‘g‘inga bo‘linmagan va Qirq urug‘i nomi bilan yuritilgan etnik guruh to‘g‘risida ham ma’lumot keltirib o‘tadi. Ushbu guruh YAngi Qo‘rg‘on volostining O‘ymaut,

[26] Doniyorov X, O‘zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent, 1968. – B. 86.

[27] Бобобеков А. Сангзор-Зомин минтақаси аҳолисиннинг этник таркибига доир // Ўзбекистон археологияси ва этнологиясининг долзарб муаммолари. 2012. 47 б.

Xo‘jabuloq, Baxmal, CHillimozor, Kuchum, Almasuvan, O‘rta, Gulqishloq, Sug‘unboy, YAvang va Obiz qishloqlarini o‘zlariga makon qilgan[28].

Arxiv materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, XX asr boshlarida Jizzax uezdida istiqomat qilgan qirq urug‘i asosan O‘zbek va Sauryuk volostlari hududida joylashgan bo‘lib, uning Olma-suvon va arishli, jizak-qirq, Ko‘za-bosh, Oq-tenga, bay-to‘bi va chajalak, Ko‘sa, Qora-qo‘yli, kalta, qora, mulla-to‘bi, o‘damalik, xisari, chibor, Qoracha, Balxi, jag‘achakli, ko‘sa, kutichakli, cho‘loq, o‘ta-sori, moltob, beglar-to‘bi, jarg‘oq, tangri-berdi, chalbor, chor-kundi kabi urug‘lari Qirqqishloq, Mo‘g‘ol, Sartyuz, Oyqor, Bog‘ishamol kabi qishloqlarda, yana Sangzor vodiysidagi G‘o‘bdun, Ko‘kbuloq, Mirzabuloq va boshqa qishloqlarda, G‘allaorol tekisligidagi G‘allakor, Gulshan, CHorvador, Omongeldi, Qizilqum, Qoraobod, Eshbuloq singari bir qancha qishloqlarda joylashgan. Voha aholisining tarkibida ko‘pchilikni tashkil etuvchi qirqlar yuqorida qayd etilgan hududlardan tashqari bugungi kunda Zomin tumanidagi Pishag‘or qishlog‘ining Morguzar tog‘iga tutash mintaqalarida va SHarof Rashidov tumanidagi bir qancha qishloqlarda yashab kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkunki qadimiy xalqlardan biri bo‘lgan o‘zbeklar juda ko‘p etnik guruhlardan tashkil topgan Bulung'ur tumanida xalqimizning o‘n ikki nomdagi etnik guruhi uchraydi. Tarixiy manbalarda o‘zbeklar 92 yirik urug‘dan iborat ekanligi qayd etib o‘tilgan bo‘lib bu urug‘lar o‘z navbatida yirik shaxobchalarga, shaxobchalar yana mayda bo‘laklarga, bo‘laklar to‘plarga, to‘plar ota va sulolalarga bo‘linib ketadi. Maqolamizning xotimasida shuni alohida ta'kidlab o‘tmoqchimizki , xalqimizning etnik guruhlarini aniqlash bilan bir qatorda, uning etnik tarixini o‘rganib, yoshlarimizni ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini bilan yoritib berish bugunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 3.

[28] Вирский М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакскаго уезда Самаркандской области. Справочная книжка Самаркандской области. Вып. X. Самарканд, 1912. – С. 11-12.

2. Elmurodov N. Zarafshon vohasi O‘zbek xalqi etnik guruhlari - Smarqand 2008: B. 4.

3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 155-b

4. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarxi Toshkent 2007 229-b

5. Doniyorov X, O‘zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent, 1968. – B. 86.

6. Bobobekov A. Sangzor-Zomin mintaqasi aholisinning etnik tarkibiga doir // O‘zbekiston arxeologiyasi va etnologiyasining dolzarb muammolari. 2012. 47 b.

7. Virskiy M. Ocherk Yani-Kurganskoy volosti Djizakskago uezda Samarkandskoy oblasti. Spravochnaya knijka Samarkandskoy oblasti. Vip. X. Samarkand, 1912. – S. 11-12.

ХИЗМАТ КЎРСАТИШДА ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ТИЗИМИ

Жураев Навруз Жураевич ўқитувчи

Бухоро Давлат Университети

Аннотация;Замонавий иқтисодиёт - бу у ёки бу тарзда ўзаро боғланган, бир-бири билан ўзаро алоқада бўлган ҳар хил турдаги ва даражадаги иқтисодий тизимлар тўплами. Иқтисодий тизимлар иқтисодий муҳитда ва асосан унинг асосий таркибий қисми - хизмат кўрсатиш соҳасида ишлайди. Хизмат кўпинча, бир томондан, жараён ёндашуви нуқтаи назаридан, айниқса менежмент ва маркетингда кўриб чиқилади. Ҳар қандай иқтисодий тизимда асосий, асосий ролни ишлаб чиқариш, тақсимлаш, айирбошлаш ва истеъмол қилиш бўйича иқтисодий субъектлар ўртасидаги ишлаб чиқариш муносабатлари ўйнайди. Барча иқтисодий тизимларда ишлаб чиқариш иқтисодий ресурслардан хизмат кўрсатиш шаклида фойдаланишни тақозо этади, хўжалик фаолияти натижалари эса пировард маҳсулот сифатида ишлаб чиқарилган хизматлар шаклида истеъмол қилинади.

Калит сўзлар: Хизмат кўрсатиш соҳалари, хизмат кўрсатиш турлари, инсон капитали.

Хизмат кўрсатиш иқтисодиётининг шаклланиши ва ривожланиб бориши ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган мамлакатларнинг ялпи ички маҳсулот таркибини ҳам ўзгаришига ўз таъсирини кўрсатмоқда. Ҳозирги вақтда муайян мамлакатни ривожланган мамлакатлар қаторига қўшиш учун яратилаётган ялпи ички маҳсулот таркибида хизмат кўрсатиш соҳаси ҳиссасининг 65 фоиздан юқори бўлиши асосий мезон ҳисобланади. Масалан, АҚШ иқтисодиётида яратилган ялпи ички маҳсулот таркибида хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши 78,0 фоизни ташкил этади ва унда ишлаб чиқариш фондларининг 40,0 фоизи мазкур соҳа ҳиссасига тўғри келади. Европа Иттифоқи мамлакатларида эса ялпи ички маҳсулотнинг 65,0-70,0 фоизи,

Японияда 62,0 фоизи хизмат кўрсатиш соҳаси ҳиссасига тўғри келади. Шунингдек дунё бўйича тўғридан-тўғри инвестициялар ҳажмининг 40,0 фоизи хизмат кўрсатиш соҳасига йўналтирилган[29].

Халқаро валюта фонди маълумотларига кўра, XXI асрнинг бошларида барча турдаги хизматлар ҳажми 1500,0 трлн. АҚШ долларини (бу кўрсаткич жаҳон ялпи ички маҳсулотининг 70,0 фоизини ташкил этади) ташкил этган. Халқаро савдо хизматлари эса, жаҳон хўжалигининг барқарор ривожланувчи секторини ташкил этади.

Бугунги кунда мамлакатимизда хизматлар соҳасини ривожлантиришга катта аҳамият берилмоқда. Мазкур соҳанинг мамлакатимиз иқтисодиётидаги улушини кўпайтириш учун жойларда хизматлар соҳасидаги мавжуд имкониятларни тўлиқ ишга солиш лозимлиги ҳам устувор вазифалардан биридир. Айниқса, замон талабидан келиб чиқиб, хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш, унинг самарадорлигини ошириш чора-тадбирларини изчил амалга ошириш ниҳоятда муҳимдир.

Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майда “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори қабул қилиниб, унга асосан “хизматлар соҳасининг мамлакатимиз иқтисодиётидаги улушини кўпайтириш, жойларда хизматлар соҳасидаги мавжуд имкониятларни тўлиқ ишга солиш, хизматлар турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш бўйича ўз ечимини кутаётган муаммоли масалаларни ҳал қилиш, мазкур йўналишда тадбиркорлик субъектларини янада қўллаб-қувватлаш, уларнинг ғоя ва ташаббусларини рағбатлантириш” масалалари қўйилган эди”[30].

Хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодиётнинг таркибий қисми сифатида иқтисодий муносабатлар тизимида ўз ўрнига эга бўлиб, жамиятдаги иқтисодий қонуният ва қонунларга бўйсунади. Тармоқларнинг халқаро таснифида уч секторни ажратиш қабул қилинган: бирламчи (қишлоқ хўжалиги, қазиб олиш

[29] О. Изряднова Раздел 4. Реальный сектор экономики // Российская экономика. Тенденции и перспективы. 2017. №39. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razdel-4-realnyy-sektor-ekonomiki-2 (дата обращения: 23.01.2023).
[30] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майида имзоланган “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори.// “Халқ сўзи” газетаси. 2021 йил 2 май. 1-2-бетлар.

саноати), иккиламчи (қайта ишлаш саноати), ва учламчи (хизмат кўрсатиш соҳаси ёки ижтимоий соҳа)[31].

Биринчидан, маҳсулотлар белгиланиши бирлиги нуқтаи назаридан хизмат соҳаси маҳсулоти қийин ва қарама-қарши тушунчадир. Истеъмол фондини кўпайтиришга йўналтирилган хизматлар ижтимоий соҳа маҳсулоти сифатида кўрилиши мумкин.

Иккинчидан, истеъмол қилинадиган ресурслар хилма-хиллиги нуқтаи назаридан ушбу ўхшашлик «номоддий маҳсулотлар» истеъмол қилинадиган ресурслардаги ўхшашлик харажатларнинг ўз структурасида ҳам намоён бўлади, улар бир биридан кескин фарқ қилади.

Учинчидан кадрлар таркибининг ўзига хос белгисига кўра хизмат кўрсатиш соҳасида бу биринчи навбатда шунда намоён бўладики, ундаги асосий ишловчилар ўрта ва олий маълумотли мутахассислар ҳисобланади.

Мамлакатимиз иқтисодиёти реал тармоқлари ва ижтимоий соҳаларининг барқарор ривожланиши уларга кўрсатилаётган хизматларнинг инновацион турларини жадал татбиқ қилиш ва самардорлигини оширишга чамбарчас боғлиқ бўлиб бораётганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз.

Шу туфайли хизматларнинг бугунги кунда мамлакат иқтисодиётидаги ўрнига баҳо бериш мақсадга мувофиқ. Бунинг учун қуйидаги жадвал тавсия қилинади (1- жадвал).

Xulosa, amirlikdagi barcha hududlari singari Surxon vohasi bekliklarida ham soliq yig‘ish ishlari va uni nazorat qilishda amirlikning deyarli barcha mulozim va amaldorlari bevosita ishtirok etgan. Soliq tizimini qonuniy va amaliy jihatdan mutanosibligini amir boshchiligida qo`shbegi va viloyat hokimlari va unga bo`ysunuvchi amaldorlari nazorat qilgan. Shu bilan birga qo`shbegi va viloyat hokimlari bevosita soliq yig‘ish amaliyotiga ham aralashgan. Bekliklarda soliq ijrosini amalga oshiruvchi amaldorlar amlokdor va zakotchilar hisoblangan. Ushbu amaldorlarga o`z sohalariga ko`ra soliq obyektlari biriktirilgan. Soliq miqdorini amirlikda belgilanib, aholiga e’lon qilishdan to xazinaga topshirilgungacha bo`ladigan amaliyot hujjatlarda qayd etilgan. Viloyatdagi soliq ma’murlarining ishlari nazorat organlarining arizalari asosida maxsus jo`natma xatlar orqali amirga yozma hisobot berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov I.SH. XIX asrning so`nggi choragi XX asr boshida Buxoro amirligida soliq tizimi.: Tarix fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2018.
2. Ashurovich A. S. Craft and trade relations in eastern beks of the bukhara emirate //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2.
3. Baljuvoniy M.A. Tarixi nofeiy (Foydali tarix). –Toshkent: Akademiya, 2001.
4. Логофет.Д.Н. Бухарское ханство подъ русскимъ протекторатомъ. Т.II.С.-Петербургъ, 1911.
5. Tursunov S., Turdiyev T. Denov. – Toshkent: Fan, 2009.
6. Qabulov E.A. Surxon vohasi xo‘jaligi. –Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. ازم آ,ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست , ۱۰۸۰- کار, ۲۷- ورق. O‘zMA. I-126-jamg‘arma. 1-ro‘yxat. 1080-ish. 27-varaq.
8. ازم آ,ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست , ۱۰۵۸- کار, ۲- ورق. O‘zMA. I-126-jamg‘arma. 1-ro‘yxat. 1058-ish. 2-varaq.
9. ازم آ,ا -۲- سرمایه, ۱- لیست , ۲۵۱- کار, ۱۰- ورق. O‘zMA. I- 2-jamg‘arma. 1-ro‘yxat. 251-ish. 10-varaq orqa tomoni.
10. Ochildiyevna, N. P. (2022). The Role of International Relations in Improving the Quality of Higher Education (On the Example of Activities of Surkhandarya Higher Education Institutions). Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 178-182.
11. Nazirov, B. S. (2021). The first horse clubs in surkhan oasis.

ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 1228-1231.

MANGULIKKA DAXLDOR SHAXS

Ahmedova Bekposhsha
UrDU huzuridagi fizika -matematika va informatika fanlariga
ixtisoslashtirilgan maktabning Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Qadamova Hayotxon
UrDU huzuridagi fizika -matematika va informatika fanlariga
ixtisoslashtirilgan maktabning 9-B sinf o‘quvchisi

Mashhur adabiyotshunos va jonkuyar olima Munavvara Salayeva hozirgi kunda dunyo bo‘yicha Oliy ta’lim sohasidagi nufuzli universitetlardan biriga aylanib borayotgan Urganch davlat universitetining filologiya bo‘yicha birinchi ayol fan nomzodi hisoblanadi. Bunday darajaga yetishish Munavvara Salayeva uchun umri davomida qilgan tinimsiz mehnati va izlanishlarining samarasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki u o‘z hayoti davomida ilm o‘rganish va harakat qilishdan hech ham to‘xtamagan. Munavvara Salayeva 1943-yilda Toshhovuzdagi ikki yillik O‘qituvchilar institutini bitkazib, shu institutda o‘qituvchi bo‘lib, 1949-yil oxirigacha shu yerda faoliyat ko‘rsatgan. O‘sha davrda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida sirtdan o‘qib, imtiyozli diplom bilan tugatgan. Keyinchalik esa Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida o‘qib, so‘ngra yo‘llanma bilan Xorazm davlat pedagogika institutiga ya’ni hozirgi Urganch davlat universitetiga ishga joylashgan. Umrining oxirigacha shu dargohda ta’lim bergan. Uning shu qadar bilimga chanqoq va tirishqoq ayol bo‘lganligini bilish biz yoshlarda bilimga bo‘lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Bundan tashqari Munavvara Salayeva o‘zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi adabiyotshunos olima hisoblanadi. Uning “Alisher Navoiy va Xorazm shoirlari” nomli monografiyasi hozirgi kungacha ham yosh olimlar uchun manbaa bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Taniqli ustozimiz bu faoliyatlari orqali, hayoti davomida Xorazm tarixida o‘chmas nom qoldirgan.

Bu xizmatlari uchun o‘z davrida ustozimiz “Ishdagi a’lo yutuqlari uchun“ ko‘krak nishoni, “Mehnatdagi alohida xizmatlari uchun“ medali, 1985-yilda Qori Niyoziy nomidagi ko‘krak nishoni va 1994-yilda “Shuhrat“ medali kabi bir qator unvonlar bilan taqdirlangan. Munavvara Salayeva bu ishlari orqali barcha o‘zbek ayollariga o‘rnak bo‘la oldi desak adashmagan bo‘lamiz.

Mustaqillik sharofati bilan 1993-yilda olimaning “ Navoiy va Xorazm shoirlari ” risolasi chop etilgan. Bu kitob o‘z ichiga ulug‘ ajdodlarimiz Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar kabi buyuk allomalarimizning ijodini maktablarda o‘rgatish masalalarini qamrab oladi. Bu esa Xorazm xalqining ko‘p yillik armoni bo‘lgan Xorazm maktablarida vohamiz qalam ahlining ijodini o‘rgatish orzusini amalga oshirgan. Bu ishlarining samarasi hali bugungacha bizdek shogirdlarga shuningdek, barcha ilim ahliga asqotib kelmoqda.

Biz bunday buyuk ustozning shogirdlari ekanligimizdan faxrlanamiz. Chunki undagi ilmga bo‘lgan muhabbat bizni juda ruhlantiradi. Olima nafaqat bilimli va aqlli ayol bundan tashqari, mehribon ona va sadoqatli umr yo‘ldosh ham bo‘la olgan. Munavvara Salayeva ikkita qiz va bitta o‘g‘ilning onasidir. O‘g‘li Qadamboy Salayev ham Urganch davlat universitetida tahsil olgan va shu yerda faoliyat yuritgan. Hozirgi kunda ustozimizning faoliyatini farzandlari, nevaralari va shogirdlari davom ettirmoqda .

Ustozimiz nafaqat ilm yo‘lidagi izlanishlari bilan balki, xushfelligi, shirin so‘zligi va oqko‘ngilligi bilan ham atrofidagi insonlar qalbidan abadiy joy egallagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, u har tomonlama mukammal va beqiyos ayol bo‘lgan. Adabiyotshunos olima nafaqat bizning balki, butun Xorazm ahlining qalbidan fidoiy olima, jonkuyar ustoz va mangulikka daxldor shaxs sifatida o‘chmas iz qoldirgan. Biz yoshlar Munavvara Salayevaning har bir ishidan ilhomlanib ustozimizning yo‘lini davom ettirishga bel bog‘laganmiz. Bu yo‘lda ustozimizga munosib shogird bo‘lish uchun qo‘limizdan kelganicha yuksak cho‘qqilarni egallashga harakat qilamiz va ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishni o‘z burchimiz deb bilamiz.

LINGUISTIC-CULTURAL PROBLEMS AND THE PROBLEM OF DEPICTING NATIONAL REALITIES IN LITERARY TRANSLATION

Qodiriy Mahzuna Shavkataliyevna
teacher of the integrated English course N3, UzSWLU

Abstract. In view of the rapid development of our civilization, an increasing number of people will meet in the field of intercultural contacts and ties. This fact helps to increase the relevance of issues, there is a translation, since translated literature is read as one of the main ways of obtaining information in other cultures.

Key words: culture, linguistics, phenomena, specificity.

Introduction. It is not uncommon for information about another culture to appear distorted in translation. The main reason for the appearance of this kind of distortion is the intercultural and linguistic differences that are distinguished by the contrast of the original text and the translation. The input of such a comparison is separated by non-matching elements, under the name "realities". Thus, the realities have a national and historical flavor.

The concept of "language picture of the world" was introduced by the scientific terminological system of Leo Weisgerber. According to L. Weisgerber, the linguistic picture of the world has the following characteristics:

1. It includes all possible contents: spiritual, which determine the specifics of the culture and mentality of the language community, and linguistic, which determine the functioning of the language.

2. On the one hand, the linguistic picture of the world is a consequence of the historical development of a certain nation and language, and on the other hand, it is the cause of a specific path for their further development [Weisgerber, 1993, p. 35].

Among the domestic researchers involved in the study of the linguistic picture of the world, there are such scientists as E.S. Yakovleva, V.A. Maslova, G.V. Kolshansky, D.Yu. Apresyan and others. According to G.D. Tomakhina: “Languages

articulate the world in their own way, that is, they have their own ways of conceptualizing it” [Tomahin, 1988, p.20]. From this we can conclude that each language has a special picture of the world, and the content of the statement should correspond to this picture. And this is the specific perception of the world by a person, encoded in language.

Language is the main mode of formation and existence of human knowledge in the world. As a result of the reflection of the objective world in the process of activity, the results of cognition are fixed in the word. The totality of this knowledge, according to G.D. Tomakhin receives several names, namely: "linguistic intermediate world", "linguistic representation of the world", "linguistic model of the world", or "linguistic picture of the world" [Tomahin, 1988, p. 33]. We will choose the latter term because it is more common.

The basis of the concept of the language picture of the world is the study of human ideas about the arrangement of the world. If we consider the world as an interaction between man and the environment, then the picture of the world is the result of processing information about the environment and man. Thus, the statement of Sekirin P. is fair. Here is the fact that our conceptual system, reflected in the form of a linguistic picture of the world, depends on physical and cultural experience and has a direct connection with it [Sekirin, 1990, p. 210].

In the human mind, the phenomena of the external world appear as a kind of internal image. As N.N.Leontiev asserts: "There is a "fifth quasi-dimension" in which the reality surrounding the human being is formed. It bears the name "meaning field"" [Leontiev, 1947, p. 112]. In this case, we can say that the picture of the world is a system of images. The picture of the world can be represented using spatial, quantitative, ethical and other parameters. It is formed under the influence of language, traditions, nature and landscape, upbringing, education and other social factors [Vereshchagin, Kostomarov, 1973, p. 150].

The linguistic picture of the world forms special pictures of the world (chemical, physical and others), which is due to the ability of a person to understand the world of himself thanks to the language in which the universal human and national socio-

historical experience is fixed [Weinreich, 1979, p. 133]. National experience captures the specific features of the language at all its levels. As a result of these features, a certain linguistic picture of the world is formed in the mind of a native speaker, through which a person sees the world [Vereshchagin, Kostomarov, 1983, p. 145].

According to V.B. Kasevich: "The picture of the world, due to its encryption by means of linguistic semantics, can turn to some extent into a vestigial one. It can only traditionally reproduce former oppositions due to the natural inaccessibility of other language tools, with the help of which new meanings are created, for which the old ones are some kind of building material" [Kasevich, 1997, p. 165]. In other words, discrepancies arise between the archaic and semantic system of the language and the mental model that is valid for a certain language community, which manifests itself in the texts it creates, as well as the patterns of behavior of this team.

The linguistic picture of the world determines the norms of human behavior in the world and attitude to the world. All natural languages reflect certain ways of perceiving and organizing the world. The meanings that are expressed in it are combined into a single system of views, a kind of collective philosophy, which must necessarily be supported by the language itself. Therefore, the function of language is not only to transmit messages, but first of all to the internal organization of what belongs to the message. The so-called "space of meanings" is formed, that is, the fixed language of knowledge in the world, where the national-cultural experience of the collective language is reflected. A world of speakers of a given language is being created, that is, a linguistic picture of the world as a complex of cognitions fixed in vocabulary, grammar and phraseology. [Anisimova, 2010, from 30].

The term "linguistic picture of the world" is a citywide metaphor, such as the validity of a particular national language, which is fortified by a social and historical experience of a national community of people, not created for the bearers of this language of a particular picture of the world, which is different from the subjectively existing, They create a very specific picture of the world, dictated by the national significance of the subject's manifestations, elective relations with the name, which is

called the specificity of activity, the image of the life of the national culture of the people [Aksenova, 1990, p. 400].

List of used literature:

1. Aksenova G.N. Language, culture and the existential picture of the world. Ufa: RIO Goskomizdata BASSR, 1990. - 543 p.

2.Anisimova.G. Methodology of translation of English-language terms of the humanities and socio-political sciences: Abstract. D.F.N. M., 2010. – 49s.

3. Barkhudarov L.S. Language and translation. M., LKI Publishing House, 2010. – 240s

4. Berkov V. P. Questions of bilingual lexicography. Dictionary. L.: publishing house-Volga, 1973. – 210 p.

5. Brutyang. A. The linguistic picture of the world and its role in cognition // Methodological problems of language analysis. – Yerevan: Publishing House of Yerevan. State University, 1976. – pp. 53-69.

MASOFAVIY TA`LIM TIZIMI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI

Nurmaxmatov Lutfulla
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang`ich ta`lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta`lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari hamda modellari keltirib o‘tilgan. Masofaviy ta`lim resurslari va uning ishtirokchilari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: AKT, masofaviy ta`lim, konsorsium, validatsiya, avtor, metodist, administrator, dokumentoved va h.k.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatkor rivoji natijasida o‘qitishning masofali shakli ham ta`lim tizimiga keng yoyilmoqda. Ayniqsa, oliy ta`limga masofali ta`lim texnologiyalarining keng tatbiq etilishi o‘zining bir qator afzalliklariga ega. Bu borada respublikamizda bir qator islohot va yangilanishlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PD-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g`risida”gi Farmonini misol qilib keltirish mumkin.O‘zbekiston sharoitida masofaviy ta`limni tashkil qilish o‘z samarasini beradi. Hozirgi axborot asrida ta'limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim.

Masofaviy ta'lim modellari.

Masofaviy ta'lim (MT) - bu o‘qituvchi va o‘quvchi bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli, axborot texnologiyalaridan fodalanilgan ta'lim turi. Bu ta'lim turining bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lim tashkil qilinishiga sabab bo‘lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi, transport va

kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lim uchun mutaxasislar mavjudligi, ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

Birinchi model. Ushbu model faqat masofaviy o‘quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har biri virtual o‘qituvchiga biriktirilgan bo‘ladi. Konsultatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun esa hududiy bo‘limlarga kelishlari shart. Bu modelga misol qilib Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi ta'limni olish mumkin.

Ikkinchi model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'lim o‘quvchilar bilan ishlash uchun yaratilgan bo‘lib, ikkala guruhda bir xil o‘quv dasturi va darslar jadvali, imtihonlar va ularni baholash mezonlari mavjud. Shunday o‘quv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni masofaviylarga qaraganda ko‘p bo‘ladi. Ushbu masofaviy kurslar pedagogikadagi yangi yo‘nalishlar izlanishlarida qo‘llanadi. Misol tariqasida Yangi Angliya va Avstraliya Universiteti ta'limini keltirish mumkin.

Gibrid model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'lim turlarini integratsiyalash uchun yaratiladi. O‘quvchilar o‘quv kursning bir qismini kunduzgi, boshqa qismini esa masofadan o‘qiydi. Shu bilan birga bu ta'lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va lektsiyalar o‘tkazish ham kiradi. Bu modelga sifatida Yangi Zelandiyadagi Massey Universiteti ta'limini olish mumkin.

Konsortsium. Ushbu model ikkita universitetni bir biri bilan birlashishini talab etadi. Ushbu muassasalardan biri o‘quv kurslarni tashkil qilsa, ikkinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga o‘quvchilarni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu jarayonda butun universitet emas, balki bitta kafedra yoki universitet o‘rnida ta'lim sohasida ishlaydigan korxonalar ham qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o‘quv kurslarni doimiy ravishda nazorat qilish va muallif xuquqlarini tekshirish zarur bo‘ladi. Kanadadagi Ochiq O‘quv Agentligidagi ta'lim aynan shu modelga misol bo‘la oladi.

Franchayzing bu – ikkita universitetlar bir biri bilan O‘zlari yaratgan o‘quv kurslar bilan almashishadi. Masofaviy ta'lim sohasida yetakchi bo‘lgan o‘quv muassasa bu sohada ilk qadam qO‘yadigan muassasaga O‘zining o‘quv kurslarni

taqdim etadi. Ushbu modelda ikkala muassasa o‘quvchilari bir xil ta'lim va diplomlar olishadi.

Validatsiya – universitet va uning filiallari bilan bo‘lgan munosabatlariga o‘xshash. Bu modelda bitta universitet o‘quv kurs, diplomlarni kafolatlasa, qolgan bir nechta universitetlar o‘quvchilarni ta'minlaydi.

Masofaviy ta'limning texnologiyalari va unda qatnashuvchilari. Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Internet masofaviy ta'lim portali.
- Video va audio konferentsiyalar.
- Elektron pochta orqali ta'lim.
- Internet orqali mustaqil ta'lim olish.
- Uzoqdan boshqarish sistemalar.
- Onlayn simulyator va o‘quv dasturlar.
- Test topshirish sistemalari.
- Video, audio va bosmaga chiqarilgan materiallar.
- Televizion va radio ko‘rsatuvlar.
- Disklarda joylashgan dasturlar.

Masofaviy ta`lim ishtirokchilari:

- **Avtor** - masofaviy kursni yaratuvchi, uni yangilatuvchi va taxrirlovchi shaxs.
- **Metodist** - masofaviy kurs avtoriga konsultatsiyalar beruvchi va kursni taxrirlovchi shaxs.
- **O‘qituvchi** - o‘quvchilar bilan o‘qish jarayonida muloqotda bo‘luvchi va ularga yordam beruvchi hamda ularning bilimlarini tekshiruvchi shaxs.
- **Ruhshunos** - o‘qish jarayonining psixologik monitoringni tashkil qiluvchi shaxs.
- **Administrator** - o‘quvchilarni qabul qilish va o‘qishdan chetlash masalalarini echuvchi va malakali o‘qituvchilarni jalb qiluvchi shaxs.
- **Dokumentoved** - hujjatlar bilan ishlovchi shaxs.

- **Telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi** -dasturlar va telekommunikatsiya resurslar ishini ta'minlovchi shaxslar.
- **O‘quvchilar** - o‘quv jarayonida qatnashuvchi shaxs.

Xulosa qilib, masofaviy ta`lim tizimi bir necha modellarda, o‘z tarkibiy elementlari vositasida tashkil qilinishini ta`kidlash lozim. Har bir ta`lim muassasining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra, mos modeldan foydalangan holda masofaviy o‘qitishni tashkillash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PD-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g`risida”gi Farmoni.

2. N.Duseinov, B.Ahmedov, “Masofaviy ta’lim tizimi” ilmiy maqola, researchgate.net, 2021.

3. S.QO‘chqorova, A.Norbekov “Masofaviy ta’lim texnologiyasi”, ma’ruza matni, Navoiy, 2020.

4. Z.F.Sharopova “Ta’lim texnologiyalari”, “Navro‘z”, Toshkent, 2019.

5. М.Ефимовна, В.Сысоева “Методика дистанционного обучения.” Учебное пособие для вузов. 2017.

6. Distance Education for Teacher Training: Modes, Models, and Methods Mary Burns Education Development Center, Inc. Washington, DC 2011

ORGANIZM O’SISH VA RIVOJLANISHINING YOSHGA BOG’LIQ XUSUSIYATLARI

O’taboyeva Zamira Rasuljonovna
Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi o’qituvchisi

Anotatasiya: Odam organizmida u tug‘ilganidan toki o‘limiga qadar uning hayotining turli davrlarida tuzilishning maxsus xususiyatlari, biokimyoviy jarayonlar, organizmning to‘liq yoki uning ayrim tizimlarining funksiyalarini o‘zgarishi qayd qilinadi. Bu o‘zgarishlar ma’lum darajada o‘sish va rivojlanishning bosqichlarini aniqlovchi irsiy omillar bilan ta’min etiladi.

Kalit so’z: o’sish, hayot, rivojlanish, omillar irsiyat.

Irsiy omillarning namoyon bo‘lishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga, yoshga oid xususiyatlarni shakllanishida oziqlanish va odamlarning ijtimoiy hayotini mohiyatini tashkil qiluvchi o‘qitish va tarbiyalash hayotning gigiyenik sharoitlari, bolaning odamlar bilan muloqoti, jismoniy va mehnat faoliyati va boshqa omillar egadir. Odamning hayoti – bu rivojlanishning uzluksiz jarayonidir. Dastlabki qadam va harakat funksiyalarining kelgusi rivojlanishi, bolaning boshlab gapirgan so‘zi va nutq funksiyasining rivojlanishi, bolaning ovqat hazmi va o‘smirlik davrida jinsiy yetilish, markaziy asab tizimining tinimsiz rivojlanishi, reflektor faoliyatning murakkablashuvi, bularning hammasi organizmning uzluksiz o‘zgarishidan keltirilgan ayrim misollardir. Bola organizmining o‘sish jarayoniga taalluqli xususiyatlardan bo‘lib uning notekisligi yoki geteroxronizm va to‘lqinsimonligi hisoblanadi. O‘sishning tezlashgan davrlari uning biroz sekinlashishi bilan almashadi. Bola organizmining o‘sish dinamikasini grafik kuzatishlarda bu qonuniyat juda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bola o‘sishini ancha jadallashgan davri hayotining birinchi yilida va jinsiy yetilish davrida, ya’ni 11-15 yoshlik bo‘lgan paytlarga to‘g‘ ri keladi. Endi tug‘ ilgan bolaning bo‘yi 50 sm bo‘lgan bo‘lsa, bir yoshning oxiriga kelib 75-80

sm. ga yetadi, ya’ni 50 % dan ortishi kuzatiladi, gavda og‘ irligi esa uch martaga – ya’ni yangi tug‘ilgan bola bor yo‘g‘i 3,0-3,2 kg bo‘lsa, birinchi yil oxiriga kelib 9,5-10,0 kg gacha yetadi. Keyingi yillarda jinsiy voyaga yetish davrigacha o‘sish tempi pasayadi va o‘rtacha yiliga 1,5-2,0 kg qo‘shilsa, bo‘y uzunligi 4,0-5,0 sm. ga o‘sadi. O‘sish tempining ikkinchi marta sakrashi jinsiy yetilish davrining boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bo‘y uzunligi bir yilda 7-8 sm. ga hatto 10 sm. gacha ortadi. Vaholanki 11-12 yoshda qizlar o‘sish bo‘yicha o‘g‘il bolalardan bo‘ydorroq bo‘ladilar. 13-14 yoshda ularning bo‘ylari deyarlik bir xil bo‘lsa, 14-15 yoshga borib esa bo‘yi bo‘yicha o‘g‘il bolalar qizlardan o‘tib ketadilar va bu ortiqlik butun hayot davomida saqlanib qoladi.

Yangi tug‘ilish davridan to to‘lig‘icha voyaga yetish yoshigacha tana uzunligi – 3,5 marta, gavda uzunligi –3 marta, qo‘llar uzunligi –4,5 marta oyoqlar uzunligi esa – 5 marta ortadi. Yoshga qarab tana proporsiyasi ham kuchli almashadi. Yangi tug‘ilgan bola voyaga yetgan odamlarga nisbatan oyoqlarning kaltaligi, gavda va boshining kattaligi bilan farq qiladi. Yangi tug‘ilgan bola boshining balandligi gavda uzunligining 1/2 qismini, 2 yoshli bolada 1/5, 6 yoshda 1/6, 12 yoshda 1/7 va voyaga yetgan odamlarda –1/8 qismini tashkil qiladi, yosh o‘tishi bilan bosh o‘sishi sekinlashib, oyoqlariniki esa tezlashadi. Jinsiy yetilish davri boshlanguniga qadar (pubertat oldi davri) gavda proporsiyalarida jinsiy farqlar kuzatilmaydi, jinsiy yetilish davrida esa (pubertat davri) o‘smirlarning oyoq qo‘llari qizlarnikiga nisbatan uzunroq, gavda kaltaroq, chanoq suyagi torroq bo‘ladi. Gavdaning uzunligi bilan kengligi orasidagi proporsiyalar farqini uch davrga bo‘lish mumkin: 4 yoshdan 6 yoshgacha; 6 yoshdan 15 yoshgacha va 15 yoshdan voyaga yetgan holatgacha bo‘lgan davrlar. Agarda pubertatoldi davrida umumiy o‘sish asosan oyoqlarni o‘sishi hisobiga ortsa, pubertat davrda esa – gavdaning hisobiga ortadi. Tananing ayrim qismlarini hamda ko‘plab boshqa organlarning ham o‘sish tasviri tananing uzunligini o‘sish chizig‘ i bilan mos keladi. Lekin, ayrim organlar va tananing qismlarida o‘sish boshqacha tipda bo‘ladi, masalan, jinsiy organlarning o‘sishi jinsiy yetilish davrida tezlik bilan yuz beradi, limfatik to‘qimalarning o‘sishi bu davrda tugagan bo‘ladi. 4 yoshli bolalarda boshning o‘lchamlari voyaga yetgan odamlar bosh o‘lchamining 75-

90 % ga yetadi. Skeletning boshqa qismlari 4 yoshdan keyin ham jadal o‘sishda davom etadi. Jinsiy yetilish davrida faqatgina jadal o‘sishgina yuz bermay, balki ikkilamchi jinsiy belgilarni shakllanishi ham jadal davom etadi. Organizmning ayrim tizimlarining o‘sish jarayonida geteroxroniya hodisasi faqatgina ularning o‘sish tempini oshirish paytida kuzatilmaydi. Fiziologik tizimlarning ayrim qismlari ham notekis yetiladilar.

Asab tizimi doimo yaxlit bir butun singari faoliyat ko‘rsatadi, lekin uning ayrim qismlari turli muddatlarda va turli templarda rivojlanadi va shakllanadi. Masalan, asab tizimining markazga intiluvchi yoki afferent tolalari, ya’ni tananing periferik qismidan impulslarni markaziy asab tizimiga olib boruvchi qismi bola tug‘ilishidayoq yetarlicha shakllangan bo‘ladi va 6-7 yoshda to‘liq va oxirigacha yetiladi. Shu bilan birga asab tizimining markazdan qochuvchi, yoki efferent ya’ni markaziy asab tizimidan impulslarni ishchi organlar – muskullar va bezlarga olib boruvchi qismi faqatgina 23-25 yoshgacha kelib to‘lig‘icha yetiladi. ‘sishning notekisligi – bu evolyusiya davomida shakllangan moslashishdir. Hayotning birinchi yilida tananing uzunasiga juda tez o‘sishi tana og‘irligining ortishi bilan bog‘liq bo‘lsa, kelgusi yillarda o‘sishning sekinlashishi organlar, to‘qimalar, hujayralarning faol tabaqalanish jarayonlarini namoyon bo‘lishi bilan ta’minlanadi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, rivojlanish morfologik va funksional o‘zgarishlarga olib kelsa, o‘sish esa to‘qimalar, organlar va butun tananing og‘irligining ortishiga olib keladi. Bola mutadil rivojlanganda bu jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Ammo, o‘sishning jadal davri tabaqalanishning jadal davrlari bilan mos kelmasligi mumkin. Kuchli tabaqalanish o‘sishning sekinlashishini chaqiradi. Bosh va orqa miyalarning massasining o‘sishi asosan bola 8-10 yoshga yetganida deyarlik voyaga yetgan odamnikiga tenglashib tamomlanadi, asab tizimining funksional jihatdan takomillashishi yana ancha uzoq muddat davom etadi. Harakat analizatorlarining yetilishi qator harakat funksiyalarini takomillashishi bosqichlarini bosib o‘tganidan keyin asosan 13-14 yoshda tugaydi. Shu bilan birga 15-18 yoshlar davomida muskul to‘qimalarining yana jadal o‘sishi va tabaqalanishi yuz beradi. Rivojlanishning geteroxroniyasi tezlashgan va tanlangan o‘sishning va

ontogenezning aynan shu bosqichida barcha organlarga nisbatan organizm uchun zarur bo‘lgan tuzilmalarning va ularning funksiyalarini tabaqalanishini ta’min etadi. Ayrim morfologik hosilalarning yoki funksiyalarning rivojlanishini qiyosiy jihatdan o‘rganishda kuzatiladigan geteroxronizm, bola organizmining, uning hayotining ayrim bosqichlaridagi gormonik rivojlanishni yo‘qolishini yoki buzilishini ko‘rsatkichi hisoblanmaydi. Har bir yosh davrlariga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan bir qatorda rivojlanishning shaxsiy xususiyatlari ham tipik hisoblanadi. Bu xususiyatlar salomatlik, hayot sharoiti asab tizimining rivojlanish darajasiga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Rivojlanishdagi keskin xususiy o‘zgarishlar odatda hayotning birinchi yilida, qachonki ular tug‘ma xususiyatlar va tarbiyalash sharoiti bilan birga bo‘lganda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Solixo’jaev S. S. , Iskandarova Sh. T. , Do’stjanov B. D. Umimiy gigiyena. Toshkent, 2003 y.

2. Sodiqov B. , Suchkarova L. Bolalar va o’smirlar fiziolognyasi va gigienasi. O’zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat nashriyoti. T. - 2005-y.

3. N. K. Axmedov. “Normal va patologik anatomiya bilan fiziologiya” Toshkent. Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiy nashriyot. 2004 yil.

DAVLAT XOKIMIYATI ORGANLARIDA KADRLARNI TO‘G‘RI TANLASHNING HUQUQIY AHAMIYATI

Shoxida Maxsumovna Jiyanova

Farg’ona viloyati yuridik texnikumi, maxsus fan o’qituvchisi

3-darajali huquqshunos, magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirish texnologiyasini amalga oshirish bosqichlari tahlil qilingan hamda kadrlar zaxira bilan ishlash tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat fuqarolik xizmati, kadrlar zaxirasi, kadrlar menejmenti, zaxiraga kiritish mezonlari, boshqaruv kadrlari.

Annotation: This article examines the priorities of the formation of the personnel reserve in the civil service. Also, the stages of implementation of the technology of formation of the personnel reserve in the civil service were analyzed, and suggestions and recommendations were made to improve the system of work with the personnel reserve.

Keywords: civil service, personnel reserve, personnel management, reserve criteria, management personnel.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqida amaldagi kadrlar tizimi faoliyatiga tanqidiy baho berib, “Hozirgi vaqtda davlat va hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmagani sezilmoqda. Eng yomoni, bu holat ishimizga xalaqit bermoqda. Bir idorani qarasangiz, yuzlab odam nomiga ishlab o‘tiribdi. Boshqa idorani qarasangiz, ish ko‘p, vazifa ko‘p, lekin ishlaydigan

odam, kadr yetishmaydi. Bunday noto‘g‘ri ish taqsimotiga mutlaqo chek qo‘yishning vaqti yetdi”[1] degan fikrni bildirdi.

Bundan ko‘rinadiki, kadrlarning amaliy zaxirasini shakllantirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim masalalarini o‘z ichiga oladigan maqsadli dasturni ishlab chiqish bugungi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi”da davlat xizmatiga zamonaviy fikrlaydigan, tashabbuskor, mas’uliyatli, kasbiy tayyorlangan kadrlarni jalb etish vazifasi belgilangan. Shundan kelib chiqib, kadrlar zaxirasini shakllantirish tizimidagi islohotlarning ijtimoiy zaruriyatidan kelib chiqib, birinchidan kadrlar zaxirasini shakllantirishning huquqiy asoslari yetarli darajada shakllantirish; ikkinchidan kadrlar zaxirasi uchun nomzodlarni tanlash va zaxiraga kiritish tizimida yagona uslub va yondashuvni joriy etish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Bugun hayotning o‘zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo‘l ochish bo‘yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda” [2]. degan fikrlari davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5843-son Farmonida davlat fuqarolik xizmati masalalari bo‘yicha vakolatli organning mavjud emasligi davlat organlari va tashkilotlarida yagona kadrlar siyosatini olib borishga, xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirishga, malakali kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirishga hamda ular tomonidan davlat fuqarolik

xizmatchilarining vakant lavozimlari o‘z vaqtida egallanishiga yo‘l qo‘yilmayotganligii ta’kidlangan.

Shundan kelib chiqib, milliy, respublika, tarmoq va hududiy darajalarda professional tayyorlangan samarali kadrlar zaxirasini shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatiga eng malakali nomzodlarni saralab olish uchun xususiy bandlik agentliklarini faol jalb etish va zamonaviy autsorsing shakllaridan foydalanish, milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini yuritish, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritishni muvofiqlashtirish buyicha mas’ul organ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Farmon asosida O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, milliy kadrlar zaxirasi, vakant lavozimlar va ularga tayinlash uchun o‘tkazilayotgan tanlovlar, davlat organlari va tashkilotlarining son va sifat tarkibi to‘g‘risida axborot ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun davlat fuqarolik xizmatining yagona elektron axborot-tahlil tizimini yaratish vazifasi belgilangan. Shuningdek, istiqbolli kadrlarni milliy kadrlar rezerviga qo‘shish uchun tanlov saralashlarini tashkil qilish. Tanlov saralashlari natijalari hamda davlat organlari va tashkilotlarining kadrlar zaxirasini integratsiyalash asosida milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish. Istiqbolli davlat fuqarolik xizmatchilari hamda milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslarning, shu jumladan xorijiy stajirovkalarini tashkil etish bo‘yicha milliy va tarmoq dasturlarini amalga oshirish vaziflari belgilangan.[3]

Davlat fuqarolik xizmatida mutaxassis kadrlarni qidirish, tanlash, o‘rganish, baholash, tayyorlash va nomzodlarini ko‘rsatish boshqaruv kadrlari tarkibini shakllantirishning asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasi bilan ishlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, yosh istiqboli kadrlarni davlat boshqaruviga jalb etish imkonini beradi.

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirish tartibi, shakllari va usullariga doir qator tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Tarixiy nuqtai anazardan alloma Abu nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” va Amir Temurning “Temur tuzuklari”da bu borada qator qarashlar va yondashuvlar mavjud.

O‘zbekistonlik olimlardan A.To‘xtaboyev[4], Q.X.Abdurahmanov Sh.R.Xolmo‘minov, N.K.Zokirova[5] va D.S.Qosimova[6]lar personalni boshqarish, kadrlar zaxirasini shakllantirish masalalarini tadqiq etishgan.

Xorijlik olimlardan V.V.Travin, V.A.Dyatlov[7], Richard Daft[8], T.Y.Bazarova[9] kabi olimlar o‘rgangan. Shunigdek, P.V.Juravlyov [10], A.Y.Kibanov., I.B.Durakovalar [11] kadrlar ma’muriyati va ishlab chiqarish munosabatlarini, Uondel French[12] kadrlarni boshqarish jarayonida inson resurslari ma’muriyatini, D.Mayster[13] va Fernandes-Araos, Klaudiolar[14] kadrlar ma’muriyatining prinsiplari va amaliyoti kabi masalalarini tadqiq etishgan.

Yosh tadqiqotchi J.Q.Yusubov ta’kidlashicha “davlat hokimiyati organlarining kadrlar zaxirasi bilan ishlash faoliyati kadrlarni tanlash va zaxirani shakllantirish kabi ishlardan boshlanib, ularni qayta o‘qitish muddatlari va uslublarini aniqlash, boshqaruv faoliyatiga bevosita tayyorlash va zaxiradagi nomzodni rahbarlik mansabiga tavsiya etishgacha bo‘lgan bir nechta bosqichlarda amalga oshirib boriladi. Umuman, rahbarlik mansablariga kadrlar zaxirasini tayyorlashning quyidagi usullari shakllandi: amaldagi kadrlar zaxirasi; istiqbolli (yaqin va uzoq istiqboldagi) kadrlar zaxirasi” [15].

Rahbar kadrlar tanlash va saralash borasida tadqiqot olib borgan olim F.R.Ravshanov «kadrlar zaxirasi - bu tegishli maqsadli tayyorgarlikdan so‘ng rahbarlik lavozimiga tavsiya etilishi nazarda tutilgan xodimlarning guruhidir. Zaxira bo‘lajak rahbarlarni rejali tayyorlash va ularning tayyorgarligini oldindan tekshirish uchun anih asos bo‘lib xizmat qiladi hamda rahbarlik lavozimiga nomzodlarni tanlash jarayonining doimiyligi va ularning moslashish davrini qisqartirish imkonini beradi» [16] degan fikrini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi T.Sagatov tomonidan mustaqillik yillarida kadrlarni boshqarish tamoyillari va strategiyasini amalga oshirish borasida erishilgan pozitiv o‘zgarishlar manzarasini totalitar tuzum davri bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan [17].

Iqtisodchi olim I.Toirov kadrlarni tanlash texnologiyasi xususida tadqiqot o‘tkazib, nomzodlarni tanlashdagi to‘g‘ri tanlov kadrlar bilan ishlashda eng muhim jarayon sanalib, o‘z vaqtida o‘tkazilgan attestatsiya va rotatsiyalar ish samaradorligini ta’minlab beruvchi muhim omillar ekanligini ta’kidlaydi [18].

Tadqiqotning metodologik asosini menejment va personalni boshqarish fanining fundamental qonunlari, kadrlar zaxirasini shakllantirish tizimlari, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlariga doir tadqiqot olib borgan xorij va O‘zbekistonlik olimlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’ruza va nutqlari tashkil qiladi. Mazkur tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, institutsional tahlil, kontent tahlil, funksional tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati mahalliy davlat hokimiyati organlarida kadrlar zaxirasini shakllantirish, kadrlar va inson resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etishga doir chora- tadbirlar ishlab chiqishda joriy etish mumkin.


Tadqiqot natijalarning nazariy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalardan “Strategik menejmenti”, “Kadrlar menejmenti”, “Mahalliy boshqaruv”, “Liderlik asoslari” kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tahlil va natijalar

Kadrlar zaxirasini shakllantirish texnologiyasi insonlarni o‘z-o‘zini ko‘rsata olishiga, intelektli va professional ekanligini amalga oshirishiga layoqatini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishda personalni boshqarishning demokratik tamoyillarini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda

kadrlar menejmenti va zaxira bilan ishlash yo‘nalishining o‘zaro aloqadorligini hisobga olish muhim (1-rasm).



1-rasm. Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar menejmenti va zaxira bilan ishlash yo‘nalishining o‘zaro aloqasi

1. Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasi – bu istiqbolli davlat xizmatchilari, professional mahoratga ega nomzodlar, ishchan, va axloqiy-psixologik sifatlarga ega, turli lavozimlarda o‘zini yaxshi tomonlama ko‘rsata olgan, kerakli tayyorgarlikdan o‘tgan va navbatdagi lavozimni egallashga qodir, maxsus shakllantirilgan va belgilangan tartibda mezonlarga asoslangan guruh. YA’ni, kadrlar zaxirasi - bu u yoki boshqa taklif etilgan lavozim talablariga javob beradigan, tizimli maqsadli malakaviy tayyorgarlikdan o‘tgan tanlangan boshqaruv faoliyatini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan rahbarlar va mutaxassislar guruhidir.

2. Kadrlar zaxirasining bir necha turlarga ajratish mumkin (faoliyat turlari, lavozimlarni almashtirish tezligi, tayyorgarlik darajasi va hakozo). Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasining maqsadidan kelib chiqib quyidagi yo‘nalishlarga ajratish mumukin:

Faoliyat turi bo‘yicha. Rivojlanish zaxirasi - yangi yo‘nalishlar doirasidagi ishga tayyorgarlik ko‘radigan mutaxassis va rahbarlar guruhi (ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashda, yangi tovar va texnologiyalarni ishlab chiqishda). Ular karyera yo‘nalishining kasbiy yoki rahbarlik bo‘yicha ikkitasidan bittasini tanlashlari mumkin. Faoliyat yuritish zaxirasi - kelajakda tashkilotning samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi mutaxassis va rahbarlar guruhidir. Bu xodimlar rahbarlik karyerasiga yo‘naltirilganlar hisoblanadi.

Tayinlash vaqti bo‘yicha.

A guruhi- hozirgi vaqtda yuqori lavozimga tayinlanishi mumkin bo‘lgan nomzodlar;

B guruhi - ko‘tarilishi yaqin 1-3 yilda rejalashtirilayotgan nomzodlar.

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishdan asosiy maqsad bu, demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida davlat xizmatida tayyor bo‘lgan, tanlov, saralash, joy-joyiga qo‘yish, kadrlarni tayyorlash va lavozim bo‘yicha ko‘tarish, davlat xokimiyati xizmatiga mos vazifa va masalalarni samarali, professional imkoniyatli amalga oshirishdir. Bunda davlat fuqarolik xizmatida zaxira instituti funksiyalarini to‘liq bajarilishi muhim ahamiyat kasb etadi (2- rasm).



2-rasm. Davlat fuqarolik xizmatida zaxira instituti funksiyalari

Kadrlar zaxirasining shakllantirilishi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: 1) zaxira dolzarbligi - lavozimni almashtirishga bo‘lgan ehtiyoj real bo‘lishi lozim; 2) nomzodning lavozim va zaxira turiga mos kelishi - ma’lum bir lavozimdagi ishga qabul qilinadigan nomzod malakasiga bo‘lgan talabga javob berish; 3) nomzodning istiqboli - kasbiy o‘sishga yo‘naltirilganligi, ma’lumotiga bo‘lgan talab, yoshi, umuman, lavozimdagi ishlash staji, sog‘ligining holati va karyerasining dinamikligi (karyera dinamikligi- xodimning iyerarxik zinapoyadan qanchalik darajada tez ko‘tarilganligi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi kasbiy yo‘lining indikatordir).

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: 1) vakant lavozimlarni to‘ldirish tanlovini o‘tkazish tartibi; 2) kadrlar zaxirasini shakllantirish tartibi; 3) kadrlar rotatsiyasi; 4) kadrlar malakasini va kasbiy mahoratini oshirish; 5) yagona idoralararo «Kadrlar» zamonaviy axborot

tizimini yaratish; 6) hududlar rahbarlarini lavozimga qo‘yishda oshkoralik, samaradorlik, xolislik va haqqoniylik ta’minlash.

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni yuqori lavozimlar uchun zaxiraga olish, mazkur sohada tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqazo etadi. Shu maqsadda kadrlar doimo o‘rganib borilishi talab etiladi, zaxiraga qobiliyatli, tashabbuskor, bilimdon istiqbolli kadrlarning kiritilishi ta’minlanishi talab etiladi. Lavozimlarga tayinlashda birinchi navbatda zaxira ruyxatlari inobatga olinishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4472-son qarori asosida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va uning filiallari asosiy vazifalari hamda funksiyalari biri sifatida milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini yuritish, shuningdek, davlat xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritish vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirish mezonlarini ham hisobga olish lozim (1-jadval).

1-jadval

Zaxiraga kiritish mezonlari

Zaxira turi	**Mezonlar**	**Zaxirani shakllantirish mezonlari ko‘rsatkichlari**
Salohiyat	Ijtimoiy- demografik talablar	Ta’lim darajasi, amaliy ish tajribasi va insonlar bilan ishlash tajribasi, yoshi (shaxsiy hujjat bo‘yicha)
Dastlabki	Boshqaruv sifati	Nomzodni zaxiraga kiritishda professional va shaxsiy sifatlarini ekspert bahosi (so‘rov va test o‘tkazilish natijalari)
Yakuniy	Ish natijasi	Ishlab chiqarish faoliyatida yakuniy natijalari (belgilangan vazifalarni bajarilish natijasi bo‘yicha), nomzodni ma’lum rahbar lavozimni egallashi uchun roziligi

Davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirish asosini quyidagilar tashkil etadi: 1) Kadrlar zaxirasi katta va ko‘p qirrali masalalarni xisobga olishi va buning uchun katta hajmdagi axborotni yig‘ish; 2) Kadrlar zaxirasini yaratish murakkab jaryon bo‘lganligidan ko‘zlangan maqsad o‘zgaruvchan xususiyat kasb etadi, buni hisobga olish lozim; 3) Kadrlar zaxirasini yaratishda professional kishilar, ya’ni ishbilarmon, ma’lum tajribaga ega bo‘lgan va maxsus tayyorgarlik ko‘rgan mutaxassislarga tayanish; 4) Kadrlar zaxirasini shakllantirish texnologiyasi insonlarni o‘z-o‘zini ko‘rsata olishiga, intelektli va professional ekanligini amalga oshirishiga layoqatini takomillashtirishga karatilgan bo‘lishi lozim; 5) Kadrlar zaxirasini shakllantirishda kasbiy malaka va kunikmalarni muttasil rivojlantirib borishga karatilgan keng kulamli ishlarni shu ishga mas’ul bo‘lgan shaxslar (korxona raxbariyati, kadrlar bo‘limi boshliqlari va mas’ul xodimlar) tomonidan tizim sifatida ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak; 6) tashkilot, korxona va davlat muassalarida hodimlar saolihiyati va faoliyat samaradorligini muntazam baholab borish.

